

Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova

INKLYUZIV TA'LIM
O'QUV QO'LLANMA

Toshkent - 2022

NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova

INKLYUZIV TA'LIM
(eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar misolida)

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent-2022

Taqrizchilar:

p.f.d.prof .M.F.Xakimova

p.f.d.prof .P.M.Po°latova

p.f.d.prof .F.U.Qodirova

Mazkur o°quv qo°llanma 60112700 - Maxsus pedagogika (Surdopedagogika - qo°shimcha surdotarjimon ta°lim yo°nalishi uchun mo°ljallangan bo°lib, "Inklyuziv ta°lim" fani namunaviy dasturi asosida yaratilgan. "Inklyuziv ta°lim" o°quv qo°llanmasi inklyuziv ta°limining nazariy va amaliy asoslari, inklyuziv ta°lim vazifalari va maqsadi, inklyuziv ta°lim asosiy tamoyillari, inklyuziv ta°limning huquqiy, me°yoriy asoslari, O°zbekiston Respublikasida inklyuziv ta°limni qo°llab-quvvatlashning tashkiliy va me°yoriy asoslari, inklyuziv ta°lim amaliyotida samaradorlikka erishish omillari, inklyuziv ta°lim ishtirokchilari va ularning huquq hamda buchlari, maxsus maktab o°qituvchilarida eshitishda nuqsoni bo°lgan o°quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo°yicha kompetentligini rivojlantirish kabi masalarni qamrab oladi. O°quv qo°llanma 4 bo°limdan iborat. O°quv qo°llanma maxsus pedagogika sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida qo°shimcha manba sifa°da foydalanilishi mumkin.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----------|
| KIRISH | 5 |
| I BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIMNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | |
| I.1. Xorijiy davlatlarda inklyuziv ta'limning tushunchasi, vujudga kelish va rivojlanib borishi..... | 7 |
| I.2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola – inklyuziv ta'limning asosiy sub'ekti sifatida | 16 |
| I.3 O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlanish davriyligi | 18 |
| I.4. Inklyuziv ta'lim vazifalar va maqsadi..... | 22 |
| I.5. Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari..... | 27 |
| II BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY, ME'YORIY ASOSLARI | |
| II.1. Inklyuziv ta'lim siyosatining jahon miqyosida nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi | 32 |
| II.2. Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari..... | 38 |
| III BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISH XUSUSIYATLARI | |
| III.1. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va me'yoriy asoslari..... | 44 |
| III.2. Inklyuziv ta'lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo'l va omillari..... | 54 |
| III.3. Inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari | 64 |
| Inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda | 71 |
| III.4. zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar va ta'limni tashkil etish shakllari | |
| IV BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIM ISHTIROKCHILARI VA ULARNING HUQUQ HAMDA BURCHLARI | |
| IV.1. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari: ota-onalar, bolalar, pedagoglar jamoasi, hamkor tashkilotlar..... | 79 |
| IV.2. Maxsus maktab o'qituvchilarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha | 87 |

kompetentligini rivojlantirish

| | | |
|--------------|--|------------|
| IV.3. | Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga umumtalim muassasalarida ta'lim-tarbiya berishda ota-onalar va defektolog hamkorligining ijobiy samarasi | 92 |
| IV.4. | Ota-onalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha bilimlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari | 94 |
| IV.5. | Ota-onalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha bilimlarni shakllantirish | 101 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... | 112 |

KIRISH

Har qanday davlat siyosatining insonparvar tamoyillarga asoslanishi, jamiyatda aholining nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yaratilgan shart-sharoitlar, ularning erkin, farovon yashashi uchun kerak bo'lgan barcha sohadagi qo'llab-quvvatlanishlari bilan belgilanadi. O'zbekiston taraqqiyotining besh tamoyilidan birining kuchli ijtimoiy siyosat sifatida belgilanishi, mamlakatimizda u yoki bu nogironlikka mansub, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga ehtiyojmand shaxslarga bo'lgan kengqamrovli, tegishli kompleks yondashuvlarning maqsadli amalga oshirilishi orqali ular hayotini farovonlashtirib borilishi maqsadi sari qadam tashlanayotganining yorqin dalilidir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olish jarayonini isloh qilib borish, rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, har bir davlat va jamiyat oldida turgan masaladir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'rmini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirok etishi uchun ta'limni to'laqonli o'zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olish lozim. Oddiy sharoitlarda, umumiy ta'lim tizimida kamol topgan tibbiy jihatdan "nogironlik" mavqeiga ega o'quvchilar olgan ta'limining darajasi ularning ijtimoiy reabilitatsiyasi, moslashuvi hamda jamiyat hayotiga samarali uyg'unlashuvining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday umumiy tarzdagi tizim sharoitida bilimlarni egallagan, ijtimoiy hayotda yashash uchun zaruriy sanalgan ko'nikmalar va kasb-hunarni egallagan har kanday nogironligi bo'lgan shaxs o'zgarishlar jarayoniga tez va qulay moslashib, shaxsiy va oilasining hayotini farovonlashtirishi orqali mamlakat aholisi turmush darajasining yuqorilashuvini ta'minlaydi. Shu jihat bilan bog'liq holda ta'lim muassasalarining bugungi vazifasi Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'z oilasi, mahallasida o'sib kamol topishiga qulay sharoit yaratib berish orqali zamonaviy bilimlar, hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishining omili sanalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga o'rgatishdan iborat etib belgilanmoqda. Istiqloq davriga qadar nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasi yopiq mavzu hisoblanib, ular asosan "o'qitiladigan" va "o'qitilmaydigan"lar toifasiga tabaqalashtiriladi. Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", "nuqsonli", "kar" kabi atamalar o'rni "nogironligi bo'lgan", "alohida e'tiborga muhtoj", "eshitishda muammosi bo'lgan", "rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning reabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda integratsiyalashuvlari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda mamlakatimizda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquqlarini ro'yobga chiqirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini ularning ehtiyoji va qobiliyatiga mos ravishda tashkil etish, jamiyatga uyg'unlashtirishning samarali yo'l va usullarini joriy etish o'ta dolzarb masalalardan biri ekanligi tobora keng anglanmoqda. O'zbekiston Respublikasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarning ta'lim mazmunini takomillashtirish masalalariga e'tibor davlat tomonidan ortib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida

e'tiborimizni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5270-sonli farmoniga qaratsak, ushbu Farmonning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ishlarning samarali yechimlarini nazarda tutayotganini kuzatamiz. Farmonda aholining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ro'yobga chiqirishga, ularni moddiy, ma'naviy, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berilgan bo'lib, unda nogironligi bo'lgan shaxslar hayotining farovonlashishi uchun asos bo'luvchi "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari" Qonunini ishlab chiqib, qabul qilish, har bir bolaning sog'lig'ini tiklash va ularni reabilitatsiyalash maqsadida yordamchi tibbiy va texnik vositalar bilan ta'minlanishi, ta'lim muassasasi binosini nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirilishi, zaruriy moddiy-texnik negizni yaratish, malakali kadrlar bilan ta'minlanishi, o'quv-metodik adabiyotlar yaratish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish, keng targ'ib qilish yo'nalishlarida talaygina ishlar amalga oshirilishi belgilanganini kuzatamiz. Co'nggi yillarda jahon hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilayotgan inklyuziv ta'lim har bir bolaning ta'lim turini tanlashida erkinligi, oilada bo'lish huquqi, o'z uyi hamda mahallasida kamol topishi, barcha qatori teng ravishda bilim olishi kabilarni ta'minlashga qaratilgan. Mazkur omillar inklyuziv ta'lim muammosini, nogironligi bo'lgan maxsus ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganish muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Mazkur o'quv qo'llanma 4 bo'limdan iborat bo'lib inklyuziv ta'limning ilmiy-nazariy asoslari, birinchi bo'lim nomlanib, unda inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari, inklyuziv ta'lim vazifalar va maqsadi, inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari kabi masalar yoritiladi. Ikkinchi bo'lim Inklyuziv ta'limning huquqiy, me'yoriy asoslari nomlanib, unda inklyuziv ta'lim siyosatining jahon miqyosida nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari kabi masalar ochib beriladi. Uchinchi bo'lim Inklyuziv ta'limni joriy etish xususiyatlari nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va me'yoriy asoslari, inklyuziv ta'lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo'l va omillari kabi masalar tavsiflanadi. To'rtinchi bo'lim Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari va ularning huquq hamda burchlari nomlanib, unda inklyuziv ta'lim ishtirokchilari: ota-onalar, bolalar, pedagoglar jamoasi, hamkor tashkilotlar, inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalar va pedagoglar jamoasi xamkorligi ishlarni rejalashtirish kabi masalarni qamrab oladi.

I BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIMNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Xorijiy davlatlarda inklyuziv ta'limning tushunchasi, vujudga kelish va rivojlanib borishi

Hozirgi kunda ko'pchilik tomonidan eng bahsli deb tan olingan masala eshitishda nuqsoni bo'lganva imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni joriy etish masalasidir. Inklyuziv ta'limni joriy etish deganda, imkoniyati cheklangan bolalar uchun xalqaro darajadagi ta'lim sohasining siyosati va tajribasida muhim oqibatlarini nazarda tutiladi. Inklyuziv ta'lim, inson huquqlarini farqlari va turlarini namoyon qilish, baholash va hisobga olishni, ijtimoiy adolat va adolatlilik masalalarini, shuningdek nogironlikning ijtimoiy modeli va ta'limning ijtimoiy-siyosiy modelini o'z ichiga olgan ko'p tomonlama konsepsiyadan iborat. Shuningdek, maktabni transformatsiya qilish jarayoni va bolalar diqqatini ta'lim olish huquqi va ta'lim olish imkoniyatiga jalb etishni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limning umumiy maqsadi sifatida inklyuziv ta'limni talabalarga jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatini berish vositasi sifatida deb ta'kidlanadi¹.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun inklyuziv inklyuziv ta'limi 4 asosiy tamoyilga tayanadi. Bu:

- birinchidan, ko'plab o'quvchilarni umumiy ta'limning ko'plab va'dalar beruvchi, qiziqarli va egiluvchan o'quv dasturlari bilan ta'minlash;

- ikkinchidan, o'ziga jalb etuvchi turfa xillik, kuchli tomonlari va chaqiriqlarga e'tibor berilishi;

- uchinchidan, differensial ta'lim va amaliyotni o'zida aks ettirish yordamida;

- to'rtinchidan, talabalar, o'qituvchilar, oilalar, boshqa mutaxassis va jamoat muassasalari bilan birgalikdagi hamkorlik asosidagi hamjamiyatni tashkil etish.

Yuqorida bayon etilganlardan shu narsa ayon bo'ladiki, inklyuziv ta'lim konstruktiv yo'naltirilgan holda imkoniyati cheklangan bolalar (SEND)ga ta'lim berishni yaxshilashni ta'minlashga harakat qilmoqda. Shunga qaramasdan, yuqoridagi qarashlarga qarama qarshi holda, ayrim mualliflar ta'limning inklyuziv natijalari aqlga zid mafkuraning bolalar uchun qurbonligi, deb ta'kidlaydilar (Kauffman va Xallaxan 2005). Boshqalar esa inklyuziv ta'limning joriy etilishi urfga kirgan atama (Armstrong va b. 2010), moda cho'qqisida esa, asl mol jahondagi ko'plab kishilar uchun foydasiz va yetishib bo'lmaydigan hisoblanadi, deb taxmin qilishdi².

¹Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.

²Колокольцева Марионелла Алексеевна Воспитание нравственных взаимоотношений младших школьников в инклюзивном образовании Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016

Bu qarama qarshi taklif va mulohazalarga qaramasdan, inklyuziv ta'limga kirishni joriy etish ko'pgina dunyo mamlakatlari madaniyatining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda o'z ko'rinishlari bilan barcha bolalar hamma uchun belgilangan oddiy sinflarda ta'lim olib, hamma narsaning o'z vaqti bo'lgan maktabda "to'liq kiritish" siyosatini kiritish nazariy jihatdan imkoniyati yo'q va amaliy jihatdan bunga erishib bo'lmaydi, deb keng tan olinmoqda. Buning sababi shundaki, har doim imkoniyati cheklangan bolalar bo'ladi va ular oddiy sinflarga muvaffaqiyatli kirishib keta olmaydilar, bu esa boshqa qolgan bolalarning umumta'lim maktablarida samarali ta'lim olishlarini cheklaydi. Agar, bu haqiqatda shunday bo'lsa, hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishning inklyuziv ta'limni ham maxsus ta'limni ham o'rniiga butunlay yangi realistik ko'rinishi zarur. Bunda imkoniyati cheklangan barcha bolalarga samarali ta'lim berishni aniq tasavvur qilishga erishish esa falsafa, siyosat va tajribani ham maxsus ta'lim, ham inklyuziv ta'lim nuqtai nazaridan sintez qiluvchi maxsus inklyuziv ta'lim nazariyasini ishlab chiqish hisobiga bo'lishi taxmin qilinmoqda. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limning kiritilishi mohiyati va oqibatlarini tushuntirish muhimdir.

Dissertatsiya aynan shunday muammolarni hal etishga bag'ishlangan bo'lib, dissertatsiyada sog'lom va nogiron bolalarning teng huquqlarini e'lon qilish, bolalar to'liq ta'lim olishlari, ijtimoiylashuviga erishish, ushbu kontingentning haqiqiy kamsitilishi va buning oqibatida ularning jamiyatga ijtimoiy integratsiyalashuvidagi to'siqlarni olib tashlash, ularga samarali ta'lim berishni ta'minlash strategiyasi batafsil bayon etilgan.

Imkoniyati cheklangan barcha bolalar individual o'quv rejalari birinchi marta AQShda (1975) Ta'lim Qonuniga kiritilgan. Ta'limning individual rejalari doimiy ravishda imkoniyati cheklangan talabalarning dasturga muvofiq ehtiyojlarini aniqlash va ta'minlash vositalarini ta'minlaydi. (Beytman 2011). Bolalarining ta'lim olishini qaror qilishda ota-onalar ishtirokini oshirish maqsadida rejalashtirish jarayonida ota-onalar qatnashishi majburiy hisoblanadi. Bu bolalardagi akademik va ijtimoiy natijalarning yaxshilanishi, ota-onalar ishtirokining samarasini isbotlaydi. (Striklend va Ternbull 1993).

Har bir mamlakat maxsus inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun amal qilinadigan o'z siyosatiga ega bo'lishi kerak. Bu siyosat milliy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlarini va eng muhim bo'lgan milliy maqsadlarni o'zida aks etishi zarur. Masalan, Finlyandiya ta'lim organlari e'tiborlarini imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish masalasiga qaratganlar (Mitchel 2014).

Uornok "Maxsus ta'lim ehtiyojlari: Yangicha nazar" nomli broshyurasini nashr ettirganidan so'ng inklyuziv ta'lim haqidagi bahslar yanada jonlantirildi. Uornokning bundan avvalgi ma'ruzasi Buyuk Britaniyada inklyuziv ta'limni rivojlantirishni kengaytirish haqidagi birinchisi bo'lib, unda imkoniyati cheklangan bolalarni ta'minlashning rivojlanishi tarixi va kiritilish haqidagi masala tanqidiy tarzda ko'rib chiqilgan. Bu nashrda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishi uchun umumiy ta'lim muassasalaridaimkoniyati cheklangan bolalarning hammadan yaxsht ta'lim olishlari uchun inklyuziv ta'lim o'ylangan va qayta ko'rib chiqilgan bo'lishi kerak degan, xulosa kelinadi. Uornok o'z asarida ayrim bolalar uchun maxsus

maktablarning bo'lishi zaruriyati davom etib turgan holda hal qilishda davom etadi va ta'kidlaydi: "maxsus maktablarning dogmatik tarzda yopilishi shuni tan olishi kerakki, ayrim bolalar uchun maxsus maktablar asosiy va yagona variant hisoblanadi"³.

Uornok sharhlari muhim hisoblanadi, hozirgi davrda umumta'lim maktablariga imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga jalb etishga asoslanuvchi ko'plab kitoblar mavjud bo'lib, ularda inklyuziv ta'limning nazariya va amaliyotini baholashga harakat qilingan. Bunday baholashining zaruriyati Uornok broshyurasida belgilab berilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etishning tanqidiy sharhi izohlangan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etish "halokatli natijaga olib kelishi mumkin" kabi xulosaga keladi. Uornok hisobotida "shunday isbotlar mavjudki, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga jalb etish ideal holatda bu – og'ir holatdagi nogironlardan tashqari qolgan barchasi oddiy maktablarda o'qitiladi", demak. "Uornok hisobotidagi bu sharh ayniqsa muhim bo'lib, Angliyadagi va boshqa mamlakatlardagi inklyuziv ta'limni amalga oshirishni jadallashtirishga olib keldi".

Shunga qaramasdan, Uornokning bu broshyurasi imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga jalb etishda inklyuziv ta'limga o'tishning maqsadga muvofiq ekanligi masalalariga qaratilgan 1-nashr emas. Bu mavzudagi 1-katta nashr etilgan ish bu – AQSh maxsus ta'lim sohasidagi yetakchi olimlari Kaufmann va Xallaxanlar tahriri ostidagi kitob hisoblanadi. Bu ishda kiritilishning o'ta tanqidiy nazariyasi berilgan bo'lib, unda barcha bolalar maxsus sinflar, resurs xonalar va turli tipdagi maxsus maktablar talab etilmagan holda oddiy sinflarda ta'lim olishlari mumkinligi taklif etilgan. Kitobda to'liq integratsiyaga harakatlanish nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar ta'limigaa balki, butun maxsus ta'lim hamjamiyatiga katta zarar yetkazar edi, degan aniq fikr nihoyasiga yetkazilgan.

Ikki yil o'tgach, Djekinson Avstraliya, Kanada va Angliyadagi maxsus ta'lim sohasidagi tadqiqot va amaliyotda yaqqol namoyon bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalarning ikkala asosiy va maxsus maktablarda ta'lim olishlarini tanqidini taqdim etdi⁴. Djekinson 1990-yillar davomida Avstraliyaning ayrim qismlarida maxsus maktablarga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan qaytish rejalashtirilganligini, va bu yerda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyatlarni saqlab qolish qayta saqlanib tebranish bo'layotganligini ma'lum qildi⁵.

Bir necha yil o'tgach Angliyadagi maxsus ta'lim sohasidagi bir guruh mutaxassislar maxsus ta'lim sohasidagi ekspertlarning soha ijobiy tomonlari haqidagi minimal tarzdgagi munozaralariga qaramasdan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun

³Сигал Наталья ГермановнаСовременное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016.

⁴Сигал Наталья ГермановнаСовременное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016.

⁵КолокольцеваМарионелла Алексеевна Воспитание нравственных взаимоотношений младших школьников в инклюзивном образовании,Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016

inklyuziv ta'lim tendentsiyasi ortib borayotganligidan xavotirga tushdilar, bunday munozaralarni stimullashtirish uchun tahrir qilingan kitobni chop etishga qaror qildilar. 1-bobda imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga kirishga mas'uliyatli yondashuv ta'riflangan "mas'uliyatli kirish" haqidagi AQSH dagi Bonom va Shummllarning bir necha qo'shimcha fikrlarini aniqlashtirildi.

Keyinchalik Uornokning kirish haqidagi negatív sharhlariga javob tarzida shu mavzudagi kitob Kidman tahriri ostida chiqdi. Kitob Angliyadagi ijtimoiy ta'lim sohasidagi ko'plab katta ilmiy xodimlar fikrlari jamlangan boblardan iborat, shu jumladan to'liq kirish tarafdolarining ham fikrlari berilganligi sababli fikrlarning keng spektri aks etgan. Kidman ham Uornok singari faylasuf bo'lib, maxsus pedagog emas. U kitobida dastlabki kirish haqidagi aniqlanganayrim fikrlarni ma'qullab oldingi qat'orga chiqaradi. U to'liq kirish tarafdorlari Salamanka -Alohida ta'lim ehtiyojlari haqidagi Bayonnoma kabi obro'li hujjatlardagi inklyuziv ta'lim argumentlarini qiyalatib ko'rsatganlar degan xulosaga keldi. Bu barcha imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga tegishli bo'lgan xoyalarni qo'llab-quvvatlab turgan bir vaqtda, ko'plab imkoniyati cheklangan bolalar umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya olayotganligidan darak beradi. Kidman hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda ta'lim bilan ta'minlashning real holati kabi imkoniyati cheklangan bolalarni maxsus maktablardan umumta'lim maktablari maxsus sinflari orqali oddiy sinflarga joylashtirish kontinuum variantlari tushunchasini o'z ichiga olgan "sekin-asta kirish" tarafdori sifatida chiqadi⁶.

Bu adabiyotga keyingi to'ldirilgan nashr Terzi tahriri ostidagi kitob bo'lib, bu asar ham Uornok broshyurasining nomida edi. Bu yangi nashrda Terzi kirish bobini taqdim etib, unda birinchi navbatga savollarni qo'yadi. 2-bobda inklyuziv ta'limning batafsil tahlili beriladi. 3-bobda esa Uornok yuqorida bayon etilgan qarashlarni yanada kuchliroq aniqlashtirib Noridjga javob beradi. Masalan, imkoniyati cheklangan ayrim bolalar uchun maxsus maktablarga ehtiyojlar saqlab qolinganligini u "dogmatik maxsus maktab, bunday maxsus xonaning yopilishi shart" deb, bayon qiladi. Tan olish kerakki, maxsus maktablar ayrim bolalar uchun eng yaxshisi yoki haqiqatda yagona variant.

O'sha yildayoq Farrel inklyuziv ta'limni asoslashni hisobga olgan holda maxsus ta'lim haqidagi tanqidiy fikrlar jamlangan kitobni chop ettirdi. U bayon etgan tanqidi ta'lim tizimida ko'mak beruvchi klassifikatsiya, autizm, baholash turlarini muammoli foydalanish, intellektni test qilish, imkoniyati cheklangan bolalarni markirovka⁷lashning negatív asoratlari, maxsus ta'lim sohasida ajralib turuvchi pedagogika va o'quv dasturi kabi maxsus bilimlari chegaralangan bazani o'z ichiga olgan maxsus ta'limga yo'llangan. O'z ichiga ta'limning postmodernistik istiqbollariga bog'liq bo'lgan inson huquqlariga asoslangan ijtimoiy bunyodkorlikni olgan inklyuziv ta'limga tegishil bo'lgan masalalarni kiritadi. U inklyuziv ta'limni asoslash jiddiy buzilgan va uning samarali ekanligini tasdiqlovchi empirik isbotlar yetarli emas, degan xulosaga keladi.

⁶Сигал Наталья ГермановнаСовременное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.

Kaufman va boshqalarning yaqindagi maxsus ta'lim borasidagi asosiy matnida kitobga zamonaviy muammolar haqidagi bobni kiritishni muhokama qiladilar. Ular kirish haqida falsafiy tomondan qarovchilar inson huquqlari nuqtai nazaridan qarashgan bo'lsa, kirishning ashaddiy tarafdorlari postmodernistik g'oyalar tarafdori bo'lganlar ekanligini ko'rsatadilar. Ular imkoniyati cheklangan bolalar uchun bunday konkret joylashtirish akademik va ijtimoiy qobiliyatlarining o'ta darajada ortib ketishi haqida ilmiy ma'lumotlar mavjud emasligiga qaramay, shuning uchun ham kirishish tezlashib bormoqda deb tahmin qiladilar. Ular asosiy xavotir talabalarning qayerda o'qiyotganligi emas, talabalarining o'qiyotganligida bo'lishi kerak deb taklif qiladilar. Biz Uornok bilan "kirish albatta bir tom ostida emas, balki ta'limning umumiy korxonasida jalb etilgan degan ma'noni bildirishi kerak" fikriga qo'shilamiz⁷.

Yuqorida nomi tilga olingan adabiyotda inklyuziv ta'limga kirish borasidagi bir necha muhim tartibsizliklar fakti ta'kidlab o'tilgan. Bu aniqlash (belgilanish), huquqlar, markirovka/identifikatsiya qilish, tengdoshlari, etiologiyasi, aralashish modellari, maqsadlar, o'quv rejalari, aniqlik, moliyaviy jihatlari, vosita va maqsadlari shuningdek, isbotlarni tadqiq qilish.

Birinchi navbatda kiritish deganda, Noridj, "aniqlash va foydalanish jiddiy muammoli", deb ta'kidlaganidek nima tushunilishi borasida anglashilmovchilik (chigallik) mavjud.

Ko'pgina manbalarda "inklyuziv ta'lim" deganda, ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun maxsus maktablarni saqlab qolgan holda umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar ulushining oshib ketganligi fikri bilan oldinga o'tib bormoqdalar. Bundan farqli ravishda, boshqa manbalar kiritish atamasini umumta'lim maktablari umumta'lim sinflarida individual terapiya kabi holatlardan vaqtinchalik chiqish holatini ta'riflash uchun foydalanmoqdalar.

Bu boradagi eng katta chigallik (tushunmovchilik) imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda inklyuziv ta'limning ijtimoiy integratsiya bilan qo'shib yuborilganligidadir. Ijtimoiy integratsiya atamasi odatda inklyuziv jamiyatni ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Ta'lim sohasidagi ijtimoiy integratsiya ko'plab turli farqlar, qiyinchilik va ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablariga jalb etilishiga tegishli. Bu imkoniyati cheklangan bolalarga inklyuziv ta'lim berishga nisbatan keng yo'nalishga ega bo'lib, lekin aksari holatlarda to'liq jalb etilish (kirish) tarafdorlari tomonidan keng qo'llaniladi. Bundan tashqari ko'p inklyuziv ta'lim tarafdorlari inklyuziv maktablarni rivojlantirish maqsadidagi umumiy maktabni qayta tashkillashni o'z ichiga olgan jalb etish jarayoni deb aytmoqdalar. Bu jarayonda oxir oqibat to'liq jalb etilish nazarda tutiladi. SHuning uchun muhimi, jalb etilish (kiritish) so'zi ko'plab usullarda qo'llanilayotganligi sababli, atamaning har bir qo'llanilgan holatida nimani nazarda tutilayotganligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lib, anglashilmovchilikdan qochish zarur. Masalan, ta'lim soxasida faoliyat yurituvchi ko'pchilik mutaxassislar o'z ichiga ko'plab imkoniyati cheklangan bololarga ta'lim

⁷Сигал Наталья ГермановнаСовременное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016.

berish vazifasini olgan inklyuziv maktab foydasiga, oddiy sinflarda tarbiyalanayotgan imkoniyati cheklangan bolalarning barchasini qamrab olishni nazarda tutadi. Bu kitobda imkoniyati cheklangan bolalarga oddiy maktablarda ta'lim berishga jalb etish diqqat markazida ekanligi tushunarli bo'lishi uchun "Inklyuziv ta'lim" atamasi "Jalb etish" ga nisbatan yuqoriroq pog'onada qo'llaniladi⁸.

Tanqidiy tushunmovchiliklardan biri imkoniyati cheklangan bolalar xuquqlariga aloqador bo'lib, odatda asosiy inson xuquqlarida barcha bolalarning o'z tengdoshlari bilan ta'lim olishi "Jalb etish"ning muhim tomonidir. Bolalarni biror bir sabab bilan ajratish inklyuziv ta'lim tarafdorlari tomonidan inson xuquqlarini paymol qilish xisoblanadi. Shunga qaramasdan bu yerda ikki asosiy tushunmovchilik mavjud. Avvalo inson xuquqlari va ma'naviy xuquqlar o'rtasida anglashilmovchilik mavjud. Kimnidir inson xuquqlariga ega bo'lishi bu ular uchun majburiyat yoki ma'naviy jixatdan analga oshirish to'g'riligini anglatmaydi. SHu tarzda inson xuquqlari imkoniyati cheklangan bolalarning tengdoshlari bilan ta'lim olishiga imkoniyat bersa xam ayrim bolalar uchun bu ma'naviy jixatdan mumkin emas. Uornok ta'kidlaganidek "jamiyatda o'zini yaxshi tomondan ko'rsata olish nimayu, shuningdek mening xuquqim nima ... maktab bolasidan yaxshiroq'i yo'q"

Huquqlar borasidagi tushunmovchiliklarning ikkinchi yo'nalishi afzalliklarga tegishli. SHuningdek bolalar extiyojlariga muvofiq tarzda ta'lim olish xuquqiga ega "qolgan xamma bolalar o'qiyotgan muxitda o'qish ularning huquqi emas, biz ximoya qilishimiz kerakligini bilish bu ularning xuquqi", ya'ni bolalarning aniq extiyojlariga javob beruvchi muvofiq ta'lim olish xuquqi o'z tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olish xuquqidan ko'ra muximroq xisoblanadi. SHu tarzda ma'naviy xuquq jixatdan barcha bolalarni umumta'lim maktablariga jalb etish mumkin emas, bu ayrim bolalarning o'z extiyojlariga mos keluvchi ta'lim olomasliklarini bildiradi.

Inklyuziv ta'lim tarafdorlari maxsus ta'limdagi ta'limning individual rejalarini belgilash va yaratish kabi ayrim metodlardan chetga chiqishni afzal deb bilishadi. Inklyuziv tarafdorlariga muvofiq imkoniyati cheklangan bolalarni ajratish (belgilash) ularni taxqirlangan xisoblab bunday xolatga yo'l qo'ymaslik zarur. Bu xolatda ikki yoqlama muammo kelib chiqadi⁹. Agar imkoniyati cheklangan bolalar identifikatsiya qilinsa ularda salbiy ajratish yoki tamg'a xavfi paydo bo'lmoqda. Ayni paytda agar ular aniqlanmasa ularning alohida extiyojlari inobatga olinishi yoki olinmasligi xavfi paydo bo'ladi. Bu tushinmovchilik Noridj farqlari "dilemmasi" sifatida tilga olinadi. SHunga qiramay bu muammo chigal fikrlar maxsuli xisoblanadi. imkoniyati cheklangan bolalar rasmiy jixatdan shu guruxda aniqlanmagan bo'lsa ham ular jalb qiluvchi bdgilari bilan boshqa bolalar va o'qituvchilardan ajralib turadi. SHunday qilib, ularni ajratib belgilash shart emasligi identifikatsiya natijasi bo'lib, lekin ayrim

⁸Колокольцева Марионелла Алексеевна Воспитание нравственных взаимоотношений младших школьников в инклюзивном образовании Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016

⁹Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.

xolatlarda imkoniyati cheklangan bolalarni boshqalardan ajratish uchun belgilash lozim. Bu belgilanish bolalarga zarur bo'lgan ta'limni olishlariga xalaqit beradi.

Yana bir muammo "xamkasb" atamasini qo'llash bilan bog'liq. Inklyuziv ta'limning taklif etilayotgan belgilaridan biri bu imkoniyati cheklangan bolalarning oddiy sinflarda tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olishidir. Uornikning ta'kidlashicha, "jalb etilish bu geografik jixatdan qaerdaligida emas balki, sizning qaerda xis etib qaerga mansubligingizda". Imkoniyati cheklangan bolalar o'z qiziqishlariga o'xshash "xamkasb" bolalar bilan o'zlarini qulayroq xis etadilar. Bu ularning xronologik yosh davridagi tengdoshlaridan ko'ra o'ziga xos umumiy qiziqish va qobiliyatlari bo'lgan "xamkasb" lari bilan bo'lish muximdir. SHuning uchun "o'z tengdoshlari bilan birga" ta'lim olgan bunday bolalar uchun o'xshash imkoniyati cheklangan bolalar bilan birga bo'lish yoki ta'lim olishini anglatadi. SHunigdek imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limiy xamjamiyatga kirish va tegishlilik xissi ularni oddiy sinfdan ko'ra resurslar xonasi, maxsus sinf yoki maxsus maktablarga joylashtirish natijasida xosil qilinadi.

Inklyuzik ta'lim bilan bog'liq muammo bu imkoniyati cheklangan va aloxida talimga muxtojlikning etiologiyasini nazariyasiga tegishli. Taxminan 40 yil oldin bolalarni o'zlariga tegishli bo'lgan to'liq fiziologik yoki psixologik qiyinchiliklar natijasi imkoniyati cheklanganlikka olib kelgan. Vaqt o'tishi bilan bolaning rivojlanishi va shakllanishiga ko'plab ijtimoiy va ekologik omillar ta'sirini anglash ortib bordi. SHunga qaramay ayrim inklyuziv ta'lim tarafdorlari bu ijtimoiy istiqbolni chegarasigacha borib imkoniyati cheklangan bolalar to'raligicha ijtimoiy jixatdan tarkib topadi, deb taxmin qildilar Uornok va Noridj xam bolalar ta'limining buzilishiga yuqoridagilarning ta'sirini inkor qilish qiyindeb xisoblaydilar. Ularning fikricha imkoniyati cheklangan bolalar etiologiyasida fiziologik, psixologik shuningdek ijtimoiy omillar rolini tan olish muxim¹⁰.(Terzi 2010).

Bu bir necha sabablar bilan chigal va noaniq tur bo'lib, ta'lim soxasidagi maxsus tadbirlar tibbiy, psixologik va bir qator boshqa davolanuvchi modellar ta'siri ostida bo'lgan. Farellaning(2010)izohlashicha "maxsus ta'lim bilimlar bazasi o'z ichiga muvofiq tadqiqotlar va aniq ma'lumotlarga asoslangan amaliyot metodlari bilan to'ldirilgan keng doiradagi fanlar " ni o'z ichiga oladi. Ilmiy asoslanagan amaliyotga bunday urg'u berilishi maxsus ta'limning muxim yo'nalishi xisoblanadi.Barchaga ma'lum bo'lgan soddalashtirilgan aloqa, Irlen linzalari va Doman-Delasato dasturi kabilarni o'z ichigan namunalar faqatgina samarasiz bo'lib qolmay balki imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oila a'zolari uchun butunlay xavfli. Uning tarafdorlari bu uchala namunani kiritish mustaxkam nazariy bazani o'rnatmastan turib uning samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tadqiqot olib borishni yoqlamayapti.

Terzining qayd etishicha, inklyuziv ta'lim muammosiga ta'sir ta'lim maqsadlariga ham tegishli. Bu muammo barcha bolalarga asosan imkoniyati cheklangan bolalaruchun muhim. So'nggi yillarda kuzatilishicha ta'limning muhim

¹⁰Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016.

maqsadi sifatida o'zlashtirishga aloxida etibor berilmoqda. Ko'plab davlatlar ko'maklari diqqat-e'tiborlarini akademik standartlarni yaxshilashga ayniqsa savodxonlik va arifmetika soxalariga, shuningdek turli uslublar bilan baxolashning milliy dasturi va milliy tartibini belgilashga qaratdilar. Bu esa ta'limning kengroq maqsadlari, ya'ni hayotiy ko'nikmalar, ijtimoiy malakalar, muloqot malakalari va mustaqil xayot malakalarini rivojlantirish kabilar bilan shug'ullanuvchi kishilarni chalg'itadi¹¹.

Umuta'lim maktablaridagi imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim maqsadlari soxasidagi yuqori akademik standartlar natijalariga erishishi zaruriyati ko'plab bunday bolalar uchun muvofiq emas. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi uchun asosiy maqsad ular yashayotgan jamoada xamkorlikdagi qulaylik va mustaqillikning ta'sir etishidir. Salamanka bayonotida aytilishicha "Maktablarkatta xayot uchun talab etiladigan ijtimoiy va muloqot talablariga javob beruvchi ta'lim ko'nikmalarini taklif etib, bolalarga iqtisodiy faol bo'lishlariga ko'mak berishi va kundalik xayotda zarur bo'ladigan ko'nikmalar bilan ta'minlashiga yordam berishi kerak" (Yunesko 1994).

Muammolardan yana biri imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'quv dasturlarining maqsadga muvoqiligidagi tushunmovchiliklar. Angliyada birinchi marta o'quv dasturi amalga oshirilganda imkoniyati cheklangan bolalar soxasidagi nufuzli kishilar va tashkilotlar xukumatning shu o'quv dasturida imkon darajasida imkoniyati cheklangan bolalarni kiritish taklifini qo'llab-quvvatladilar. Bu oldinga olg'a qadam bo'lib barcha imkoniyati cheklangan bolalarning shu dasturga xaqli ekanliklarini namoyon qildi. Aslida bu ko'plab imkoniyati cheklangan bolalar uchun shunchaki bo'lib, masalan, ilgari ko'rishida jiddiy nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ilmiy fanlarni o'rganishdan maxrum qilgan. SHunga qaramay ta'lim olishi va xulqida qiyinchiligi bo'lgan ko'plab imkoniyati cheklangan bolalar uchun orqaga bir qadam edi. (Terzi 2010)

Milliy dasturlar ular bilan bog'liq milliy baxolash va uning natijasida maktablardagi akademik yutuqlar o'quv dasturidagi boshqa yo'nalishlar ya'ni shaxsiy, ijtimoiy vakasbiy ta'lim kabilaridan yuqori ekanligi ta'kidladi. Butun o'quv yili davomida o'quv dasturi sifatida milliy o'quv rejaga ega bo'lib, ta'lim berish jarayonida ta'lim olishda muayyan va murakkab qiyinchiliklarga ega bolalar uchun to'g'ri kelmaydi chunki bolalarning diqqatlarini o'quv dasturiga to'plash imkoniyatidan maxrum qiladi, bola orqada qolmaslik uchun bor kuchini extiyojlarga mos xolda sarflaydi, natijada maktabdan hafsalasi soviydi. SHu tariqa ko'plab bolalar uchun mos kelmaydigan o'quv rejasiga jalb etilish xissiyot va xulqidagi qiyinchiliklarni rivojlanishiga bevosita asos bo'ladi yoki mavjud muammolarni chuqurlashtirib buzg'unchilikka olib keladi, oxir-oqibat ayrimlarining maktabdan chetlanishiga sabab bo'ladi. Farrelaning(2010) ta'kidlashicha asosiy aholi uchun ishlab chiqilgan milliy o'quv rejasi tarkibida bo'lmagan imkoniyati cheklangan

¹¹Колокольцева Марионелла Алексеевна Воспитание нравственных взаимоотношений младших школьников в инклюзивном образовании. Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016

bolalar uchun ijobiy tomoni ularga mos keluvchi o'quv dasturlarining mavjudligidir¹².

Maktablardagi real vaziyatlar qarama-qarshiligiga qaramay to'liq jalb etish g'oyasi ta'siri ostida bo'lgan maktab pedagoglari orasida uchraydi. To'liq jalb etish g'oyasi bo'yicha barcha imkoniyati cheklangan bolalarni oddiy sinflarda samarali o'qitish mumkin. Lekin umumta'lim maktablardagi real xolatshuni ko'rsatmoqdaki aksariyat o'qituvchilar bu g'oyani amalga oshirishga tayyorgarlik xissi yo'q yoki tayyor emas. Real xolat shuki, ko'pkina mamlakatlarda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish uchun boshlang'ich pedagogik ta'lim kurslari yetarli emas va ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda chegaralangan ta'limni tashkil etish uchun o'qituvchilarga imkoniyat yo'q. Bu shuni anglatadiki aksariyat o'qituvchilar o'z sinflarida keng ko'lamdagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun zarur bo'lgan munosabat bilim va ko'nikmalarga ega emas. (Avramidis2000, Emam va Farrell 2009)

Umumta'li maktablariga kiruvchi yaxlit va qisman imkoniyati cheklangan bolalarni moliyalashtirish xal qiluvchi muammodir. Moliyalashtirish muammosini xal qilish uchun turlicha takliflar kiritilgan, lekin shu paytga qadar moliyalashtirishning eng qoniqtiradigan modeliga kelishilgani yo'q (Terzi 2010). SHuningdek imkoniyati cheklangan bolalarga oddiy yoki maxsus zaxiralar baxosi borasida xam muammolar mavjud. Bir qarashda maxsus maktablar, maxsus sinflar shu bilan birga resurs xonalarining baxosi qimmatroq bo'lmoqda, shuning uchun inklyuziv ta'lim nisbatan arzon variant xisoblanadi. Bir necha umumta'lim maktablaridagi ko'mak beruvchi xizmatlar jismoniy va nutq terapiyasi kabi baxosi jamlansa maxsus maktab bilan solishtirganda unchalik farqi katta emas. Bu qisqa muddatda qimmat bo'lmagan narxda taqdim etilsa, uzoq muddatda amalga oshirib bo'lmaydi.

Inklyuziv ta'limning muxim muammolaridan biri vositalarning maqsad sari yo'naltirilganligida. To'liq jalb etish tarafdorlari ta'kidlaydilarki, imkoniyati cheklangan bolalarni aloxida joylashtirish noto'g'ri, chunki ta'limning asosiy maqsadi bolalarni o'zlari yashayotgan jamiyatga to'liq jalb etishdan iborat. SHunday qilib ular maxalliy umumta'lim maktablariga joshylashishlari kerak (Terzi 2010). Uornok ta'kidlaganidek, pedagoglar intilishi kerak bo'lgan o'ta muxim maqsad bu maktabni tamomlagach bolalarning jamoaga kirishishi. Umumta'lim maktablariga jalb etilish bu maqsadga erishish vositasi bo'lishi mumkin. Bolalarning aloxida extiyojlarini qondirmaydigan umumta'lim maktablariga jalb etish salbiy xolatlariga olib keladi, kattalar kabi jamiyatga to'liq kirishish uchun imkoniyatlarni kamaytiradi.

¹²Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.

1.2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola – inklyuziv ta'limning asosiy sub'ekti sifatida

Maxsus ta'limni keng ko'lamli aniqlashni ta'minlash quyidagicha amalga oshiriladi:

Maxsus ta'lim o'z ichiga xulq-atvor, emotsional, jismoniy, salomatligida yoki sensor rivojlanishida buzilishlari bo'lgan talabalar uchun ularni baholash tajribasi va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan maxsus ishlab chiqilgan va koordinatsiyalashtirilgan ilmiy asoslangan uslubiy majmuaviy to'plamini yetkazib berish va monitoring qilishni o'z ichiga oladi. Bu ta'limiy tajribalar va xizmatlar talabalarining alohida kuchli jihatlari va muammoli tomonlarini hisobga olgan holda aniqlanadi va bartaraf etiladi; ularning ta'limiy, ijtimoiy, xatti-harakat (xulq-atvor) va jismoniy rivojlanishlarini oshirish maqsadida; maktab ta'limining, jamoalar va jamiyatning barcha jabhalariga kirish va haqqoniylikni ta'minlash.

Bu shundan darak beradiki, maxsus ta'lim quyidagicha ta'riflanadi¹³:

- Individual baholash va rejalashtirish.
- Ixtisoslashtirilgan ta'lim.
- Intensiv (tezkor) ta'lim.
- Maqsadga yo'naltirilgan ko'rsatma.
- Ta'lim tajribasi asosidagi tadqiqot.
- Hamkorlikdagi sheriklik.
- O'quvchining samaradorlik bahosi.

Maxsus ta'limning rivojlanish davri oxirgi 250 yilni o'z ichiga oladi. Dastlab paydo bo'lgan maktablar bu 1760 yilda karlar uchun va 1780 yillarda ko'r bolalar uchun tashkil etilgan maktablar hisoblanadi. Bulardan keyin 1830 yillarda intellektual imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun va 1860 yillarda jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maktablar tashkillandi.

1900 yillarda ta'lim olishda qiyinchilikka uchraydigan bolalarga ta'lim beruvchi o'qituvchilar ma'lumot sifatida jahonning turli mamlakatlari bo'yicha barcha bolalarning maktabga borishlarini talab qila boshladilar. Shu davrda Binga murojaat qilinib, shunday bolalarni aniqlash uchun test yaratishni taklif qilindi. Bu keyinchalik intellektni sinashning 1-usuli bo'lib qoldi. Bu testlardan 20-asr boshlarida ta'limda ma'lum qiyinchiliklari mavjud bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablari maxsus sinflarida o'qimishli bo'lishlari uchun tanlab olishda foydalanildi. Ko'pgina mamlakatlarda bunday sinflar soni 1980-yillargacha ortib bordi, shu jumladan AQSh va Yangi Zelandiyada, shundan keyin esa maxsus sinflar soni kamaya boshladi.

So'nggi 30 yil atrofida maxsus ta'lim siyosati va tajribasi yaxlit holatda, shuningdek, qisman umumta'lim maktablaridagi maxsus sinflarning "inklyuziv ta'lim" deb nomlanishi alternativ holatda shubha ostida qoldi.

Inklyuziv ta'limni aniqlash: Salend Inklyuziv ta'limni aniqlashning foydali jihatlari quyida tarzda ta'minlaydi:¹⁴

¹³Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.

Bunga falsafani kiritish, qaysiki, talabalarni, ularning oilalarini, o'qituvchilar va hamjamiyat a'zolarini birgalikda o'zaro e'tirof etish va tegishlilik asosidagi maktab tashkil etishga olib keladi. Inklyuzivlashtirilgan maktablarda o'quvchilarning barcha fazilatlarini o'lqishlash, e'tirof etish, tasdiqlash va namoyish qilish orqali ularni hududlaridagi umumta'lim maktablari sinflari davriga mos keluvchi, yuqori sifatli o'quvchilarni tarbiyalash. Bu shundan dalolat beradiki, inklyuziv ta'lim quyidagicha xarakterlanadi:

- Hamjamiyat doirasidagi qabul qilish va tegishlilik falsafasi;
- Talaba, oila, pedagog va hamjamiyatning hamkorlik falsafasi;
- Barcha o'quvchilarning turli tumanligi va qadriligi belgilanadi;
- Yuqori sifatli maktablardagi o'quvchilarning ma'rifatiligini qadrlash;
- O'z tengqurlari bilan birga o'quvchilarning ma'rifatiligini qadrlash;
- Oddiy sinflarda o'qiydigan o'quvchilarning ma'rifatiligini qadrlash;
- Maktablar va mahalliy hamjamiyatdagi o'quvchilarning tarbiyalanishini qadrlash.

Inklyuziv ta'lim nisbatan yaqin davrda tashkil topgan. Uning ilk kurtaklari davri umumta'lim maktablaridagi ta'lim olishda muayyan qiyinchiliklari mavjud bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus sinflarning samaradorligiga Dunn shubha bilan qaragan 1960 yillarga to'g'ri keladi. Bu hodisa bunday bolalarni "dolzarblashtirish"ga chaqiradi, ya'ni ularni maxsus sinflarga emas, balki oddiy sinflarga kiritib o'qitish, oxir oqibat umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish masalasini, boshqacha qilib aytganda, "integratsiyalashtirish" masalasi "ta'lim sohasidagi davomiy tashabbus"deb atala boshlandi.

1981 yilda BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)ning Xalqaro nogironlar yilini nishonlash bayramida inklyuziv ta'lim harakatiga asos solingan. Bunda asosiy e'tibor imkoniyati cheklangan barcha kishilarning jamiyat hayotida to'laqonli qatnashishlarini ta'minlashga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim rivojlanishining muhim davri Salamankaning bunday bolalarga ta'lim berishining o'ziga xos ehtiyojlari haqidagi bayonnomasi hisoblanadi (YuNESKO, 1994). U o'z bayonnomasida imkoniyati cheklangan bolalarning ko'proq qismi umuta'lim maktablarida ta'lim olishlari kerakligini tavsiya qiladi. So'nggi 20 yil ichida umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish harakati tobora faollashmoqda. Hozirgi kunda "Inklyuziv ta'lim" atamasi esa shunga muvofiq uni nomlash uchun ishlatilmoqda¹⁵.

Ayon bo'ladiki, inklyuziv ta'lim va maxsus ta'lim turli falsafalarga asoslangan, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda turli alternativ yondashuvlarni turli

¹⁴Вакорина Людмила Юрьевна Инклюзивное образование в россии: механизмы управления и повышения эффективности Диссертация ... кан. пед. наук. — Москва, 2016.

¹⁵Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.

sabablar bilan ishlab chiqqan. Aslini olganda esa, har ikkisi ham imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda o'z yondashuvlari bilan qarama qarshi hisoblanadi. Bu hodisa ta'lim sohasining professional mutaxassislar uchun ham imkoniyati cheklangan bolalar ota-onalari uchun ham chigal masala hisoblanadi. SHuning uduun imkoniyati cheklangan barcha bolalarga samarali ta'lim berish uchun har ikkala tarafning ham nazariyalari, ilmiy tadqiqotlari va amaliy tavsiyalarini integratsiya qiluvchi yangi nazariya talab etiladi. Bu kitob Maxsus inklyuziv ta'lim nazariyasini ishlab chiqish yo'li bilan bu masalani hal etishni taklif qiladi. U o'z tarkibiga farsafani va maxsus ta'lim qadriyatlarini amaliyot bilan va maxsus ta'lim usullari bilan ishlab chiqishni kiritadi. SHu tarzda barcha imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish samarasini oshirish uchun maxsus ta'limni kiritgan holda falsafa va siyosatning boshqaruv tamoyillarini, o'qitish usul va uslublari (strategiya) ni ta'minlab beradi. Inlyuziv maxsus ta'limga bunday yangi yondashuvni ishlab chiqish zarurati Yangi Zelandiyadagi imkoniyati cheklangan bolalar bilan o'tkazilgan ijtimoiy ta'liqotlar natijalariga asoslanadi. Quyida keltiriladi. PISA ta'liqotlari boshidanoq Yangi Zelandiya Finlyandiya kabi matematika, o'qish va fanlarni egallashda yetakchi davlatlar qatoriga kirganligi sababli tanlab olingan. SHunga qaramasdan, Finlyandiyadan farqli ravishda PISAning har bir ta'liqotida Yangi Zelandiya barcha mamlakatlar ichida talabalarining eng yuqori va eng past natijalari oralig'i kata bo'lgan mamlakat ekanligi aniqlandi. Finlyandiyadagi talabaniing eng yuqori reytingi shu davlatdagi ta'lim tizimiga bog'liq holda Yangi Zelandiyadagi yutuqlari oralig'i imkoniyati cheklangan bolalarning maktab haqidagi tasavvurlarining yetarli emasligi masalasini ko'rib chiqish qiziqish uyg'otadi (Xornbi 2014).

1.3. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlanish davriyligi

Respublika ta'lim markazi YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikdagi loyiha rejasiga binoan Inklyuziv ta'lim resurs markazi va integratsion ta'lim tizimi joriy qilingan muassasalarga uslubiy va metodik jihatdan yordam beradi, bu ta'lim tizimini takomillashtirish uchun xalqaro xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish Respublikamizning ayrim viloyatlarida, jumladan Farg'ona, Andijon, Xorazm, Toshkent viloyatida tajriba sinov jarayoni boshlangan bo'lib, bu ishlarni amalga oshirishda nodavlat jamoalar, xorijiy tashkilotlar tashabbus ko'rsatmoqda. Halkar YuNESKO tashkiloti va Xalk, Ta'lim Vazirligi bilan xamkorlikda O'zbekiston Respublikasining ta'lim muassasalarida inklyuziv-korreksion ta'limning tayanch punktlari tashkil etildi. Ular Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi bilan shug'illanuvchi, "Inklyuziv ta'lim" dasturini amalga oshiruvchi yagona punktlar hisoblanadi.

Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ijimoiy qo'llab quvvatlash "Ziyo" markazi umumta'lim maktablariga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etish YuNESKO loyihasi asosida 2004

yil o'z faoliyatini boshladi. Sinov - tajriba maydonlari uchun Farg'ona viloyati Qo'qon va Marg'ilon shahridagi 4, 5-sonli aqli zaif bolalar, 9-sonli zaif ko'ruvchi bolalar maxsus maktab internatlarida, 64-sonli falaj bolalar bog'cha majmuasi, 39-sonli nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chasi, 1,9-sonli umumta'lim maktablari, Andijon viloyatidagi 5, 31 - sonli umumta'lim maktablari tanlandi¹⁶.

Inklyuziv ta'lim borasida tajriba-sinov ishlari 2004 yil iyun oyidan boshlangan. Dastavval ma'lumotlar banki yig'ildi. Bu ishga ota-onalar, o'qituvchilar va mahalla qo'mitasi a'zolari jalb etildi. Andijon viloyatidagi 31-sonli umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi L.Habibullaev (zaif eshituvchi) 2001-2002 o'quv yillarida resurs pedagog M.Valieva tomonidan umumta'lim maktabining inklyuziv sinflarida o'qitila boshlagan. L.Habibullaev onasi vafot etganligi sababli bobosi va buvisi qaramog'ida qolgan. Dastlab unga Xo'jaobod tumanidagi kar-soqovlar maktab-internatiga yo'llanma berilgan, masofa uzoqligi sababli 31-sonli umumta'lim maktabiga jalb etilgan. Resurs pedagog Mamlakatxon Valievaning aytishicha, Lutfilla Habullaevga normal bolalar bilan o'qish ilk bosqichda qiyin bo'lgan. Differensial va individual yondashish yordamida asta-sekin qiyinliklar ortda qolib, bilim, ko'nikma va malakalari hosil bo'la boshladi. Tengdoshlari tomonidan kamsitilmay, ularning mehr-muruvvatiga sazovor bo'ldi.

Shahar halq ta'limi bo'limi Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyasi raisi M.Sattorovanning aytishicha, "Bolalarni maxsus maktabga joylashtirish tortishuvlarga sabab bo'lgan, ayniqsa, ota-onalar maxsus maktablarga bolalarini berishga qarshilik ko'rsatar edilar. Bizni xursand qilgan narsa maxsus ta'limning no'anaviy shakllari va ta'lim turlarining kengayganligidir. Maxsus ta'lim umumta'lim maktablari bilan qo'shilib ketmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni "Sen hech kimdan kam emassan, tengdoshlaring bilan o'qishga teng huquqlisan"-deb uqtirmoqdamiz".

Oripova Yorqinoy Sobirovna rahbarlik qilayotgan Andijon shahar 5-sonli umumta'lim maktabida 78 ta sinf bo'lib, 2619 nafar o'quvchi tahsil oladi. Shulardan boshlang'ich sinfda 5 ta o'quvchi inklyuziv ta'lim oladi¹⁷.

Mukarram Ahmadullaeva resurs pedagoglik faoliyatini yuritayotgan 1-D-sinfda Muzaffar Olloberdiev (Oligofreniyaning debil darajasi), Omonullo Is'hoqov (mayda qo'l muskullari falajlangan) va Ro'zieva Shohsanam (RRS) inklyuziv ta'lim olmoqda. Marg'ilon shahar 9-sonli umumta'lim maktabida tahsil olayotgan A.Hakimovning ta'lim-tarbiya olish jarayonini kuzatdik. A.Hakimovning harakat tayanch a'zolari falajlangan bo'lib, nogironlar aravachasida o'tiradi. Inklyuziv ta'limga 4-sinfdan boshlab jalb etilgan. Dastavval o'qish jarayoni bola uchun juda

¹⁶Вакорина Людмила ЮрьевнаИнклюзивное образование в россии: механизмы управления и повышения эффективности Диссертация ... кан. пед. наук. — Москва,2016.

¹⁷Вакорина Людмила ЮрьевнаИнклюзивное образование в россии: механизмы управления и повышения эффективности Диссертация ... кан. пед. наук. — Москва,2016.

qiyin kechdi, sog'lom tengdoshlaridan nogironligi tufayli ajralib qoldi. Ammo so'nggi kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatdiki, A.Hakimovni o'rtoqlari do'stona munosabatda tanaffus paytida aravachada yetaklab yurishar, dars paytida esa sinf taxtasi yonga yetaklib olib chiqishar ekan. Bu kuzatishdan shu narsa ayon bo'ladiki, maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish ularni barcha qatori teng huquqli ijtimoiy jamiyat a'zosi bo'lishini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish loyihasi Xorazm viloyatida ham izchil tarzda olib borilmoqda. Bu ishda Xorazm viloyatining bir qator hududlarida halqaro YUNISEF, "Opereyshen Mersi" nodavlat tashkilotlari va RTM Maxsus ta'lim bo'limi bilan hamkorlikda tuzilgan rejasiga asosan amalga oshirib kelinmoqda. Inklyuziv ta'limning loyihasi 1999 yildan boshlangan bo'lib, hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Loyihaning birinchi bosqichida "Opereyshen Mersi" tashkiloti Xiva tumani Xalq ta'lim bo'limi va Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlik rejasiga binoan Xiva tumanida jismonan qalaj bolalar uchun 4ta integratsiya sinflari tashkil etildi. Maktab binolarini ta'mirlash va hodimlarni qo'shimcha ish haqqi bilan, bolalarni maktabga muntazam qatnashlari uchun transport bilan ta'minlashni "Opereyshen Mersi" tashkiloti amalga oshirdi. "Opereyshen Mersi" inklyuziv ta'limni butun O'zbekistonga targ'ib qilishni maqsad qilib qo'ygan va ushbu loyiha doirasidagi barcha yangiliklarni Respublika ta'lim markazi Maxsus ta'lim bo'limi bilan hamkorlikda amalga oshirib qelindi¹⁸.

Qo'yida biz xalqaro "Operation Mercy" xayriya tashkiloti va Respublika ta'lim markazining maxsus ta'lim bulimi bilan hamkorlikdagi loyxa asosida Xalq ta'limi vazirligining buyrug'iga binoan O'zbekistonda ilk bor 1999y.\2000y. mobaynida Toshkent viloyati Bustonliq tumani Oqtosh xududidagi "Aloqachi", "Texnolog" oromgoxlari tasarrufida ilk bor imkoniyati cheklangan nogiron bolalar uchun "Integratsion - sog'lomlashtirish oromgoxi" tashkil etkdi¹⁹.

Ush bu oromgoxni tashkil etilishida "Opereyshen Mersi" tashkilotining rahbari Andrea Vogt, RTM maxsus ta'lim bulim boshlig'i R.Shomaxmudovalar tashabbus kursatdi. Oromgoxni tashkil etishdan maqsad rivojlanishida turli xil muammolari bo'lgan bolalarni 10\14yoshgacha bolalarni jismoniy, ma'naviy, madaniy xordiq chiqarishini va korreksion pedagogik yordam ko'rsatishga oid maqsadli tadbirlarni amalga oshirishdan iborat edi. RTMning maxsus ta'lim bo'limi, "Operation Mercy" bilan birgalikda turli mashg'ulotlar rejasini tuzib chiqdi.

Oromgoxga respublikamizning 7ta viloyatlaridan: Andijon, Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Toshkent. 17\sog'lom va 16\ ko'rish, eshitish, tayanch xarakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar

¹⁸Колокольцева Марионелла Алексеевна Воспитание нравственных взаимоотношений младших школьников в инклюзивном образовании Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016

¹⁹Колокольцева Марионелла Алексеевна Воспитание нравственных взаимоотношений младших школьников в инклюзивном образовании Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016

dam olishdi. Ularni birlashtirishda MTM hodimlari, chet ellik ko'ngillilar, 32 ta maxsus maktablarning tajribali o'qituvchi va tarbiyachilari va "Operation Mercy" xodimlari ishtirok etishdi. Bolalarni tanlash qo'yidigi tartibda amalga oshirildi: xududi yaqin bo'lgan umumta'lim va maxsus ta'lim o'quvchilarini ota'onasining arizasi va tibbiy ko'rikdan o'tganligi xaqidagi xujjatlar va XTVning ruxsati asosida qabul qilindi. Bunday tartibdagi oromgoxni tashkil etishdan asosiy maqsad bolalar orasida dustona munosabatni shakllantirish, ular orasidagi tusiq devorni olib tashlash doimiy yashash joylarida bir-birlariga ko'maklashishga yordamlashish va birgalikda faoliyat yuritishdan iborat edi. Integratsion oromgoxda bolalar bilan shug'ullanuvchi 32 pedagoglar test asosida tanlab olindi. Xrijiy mamlakatning 10 davlatidan: Germaniya, Shvesiya, Yamayka, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Shotlandiya va boshqalardan bittadan ko'ngilliy (valantyor)lar jalb etilib bolalar bilan o'tkazilgan tadbirlarda faol ishtirok etishdi. Shulardan 3tasi Tantanali Uzbekistonga kelish uchun nafaqat ishlarini tashlashdi, balki yana o'z vaqlari va sayoxat uchun pul\mablag'lariniyam ayamadilar. Yana 4ta ko'ngilli Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan "Mercy Project" xalqaro insonparvarlik tashkilotlari ishchi xodimlari bo'lib "Operation Mercy"ning 3ta xodimlari bilan o'ziga xos xalqaro jamiyatni tashkil etishdi. Oromgoxdagi bolalarni o'z madaniyatlari meroslaridan bahramand qilishni maqsad qilishgan edi. Misol uchun Yamayka va Gollandiyadan kelgan ko'ngillilar bilan uchrashuv oromgoxdagi bolalar uchun birinchi marta chet ellik fuqaro bilan bevosita muloqot qurishning va madaniyatini o'rganishning ilk safari edi. Har bir ko'ngilli zimmasida bolalardan tashkil topgan kichik guruxlarga g'amho'rlik ko'rsatish bo'lib buning natijasida ular orasida ko'pga chuziladigan dustona munosabatlar o'rnatildi. Chet ellik ko'ngillilar mahalliy tilni tushunmaganliklari ularni muloo'ot qilishning boshqa yo'llarini uylab topishga ruhlantirdi²⁰. Yamaykalik Venae "*Odamlar nima deyayotganini tushunmaganimdan o'zimni nogirondek sezdim*" dedi. Tezda imo'ishora tilini o'rganib oldim va mening bu "nogironligim" bolalar bilan ishlashimga halaqit bermasligiga va hatto bunga sho'ng'ib ketishimdan to'xtata olmasligini bolalar tezda anglab oldilar. Hech bir mustasnosiz hamma chet ellik ko'ngilli oromgoh hayotidan mamnun bo'lib, nogironlar hayotidan ko'p narsalar o'rganib olishganini tan olishdi. Ular bolalarning layoqatlariga va hayotga intilishiga, o'qituvchilarning g'amhurligi va ochiq chehraligiga qoyil qolishdi.

"Bu eng og'ir ish bo'lishiga qaramasdan eng oliyanob va g'aroyib harakat bo'lib shu yerda o'tkazilgan yozning 10kuni esda qolarli hodisa bo'ldi" – deydi Angliyalik ko'ngilli Keti. Bu kabi hayirli va saxovatli ishlar maktabdan tashqari tashkil etilgan tadbirlar, imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalarni barchalar qatori teng huquqli sharoitda turli xil tadbirlarda ishtirok etib jamiyatga to'laqonli moslashib, integratsiyalashib ketishiga yana bir bor ishonch xosil qilindi. Qolaversa sog'lom va imkoniyati cheklangan o'quvchilarni bo'sh vaqtini mazmunli va samarali tashkil etish barcha mutassadi tashkilotlarning burchidir. Qanchadan qancha ota'onalarning o'z

²⁰Вақорина Людмила ЮрьевнаИнклюзивное образование в россии: механизмы управления и повышения эффективности Диссертация ... кан. пед. наук. — Москва,2016.

farzandini garchi nogiron bo'lsa ham, nimalarga qodir ekanligini anglashib, xozirgi kunda o'z farzandlarini umumta'lim ya'niy inklyuziv maktab, bog'chalarga berish istaklarini bildirishmoqda. Bu tadbirmi taxlili shuni kursatdiki, O'zbekistonda bu kabi bolalar va yoshlarni nafaqat umumta'lim muassasalarida o'z tengdoshlari ta'lim olishi ijobiy natija beradi. Ayniqsa ularni maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishi kelajakda integratsiyani amalga oshirish samarali yuli. Xozirgi ekologik sharoitlarnie'tiborga olgan xolda jismoniy va aqliy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar va ekologik jixatdan toza havoda nafaqat ma'daniy dam olish, balki ularni ko'rish, eshitish, aqliy va nutqiy kamchiliklarini jismoniy xarakatini korreksiyalash, tuzatishga oid korreksion pedagogik, psixologik, tibbiy yordamlarni kompleks tashkil qilish kelajakda bunday yoshlarni jamiyatga to'laqonli uyg'unlashib, o'z qobiliyatini rivojlantirish, oila qurish va jamiyatga foyda keltirishi aniq. Bu masala amaliyotda sinalgan ular uchun ham sayyohlik va ulkashunoslik yunalishidagi integratsion oromgoh bo'lsa qani edi ! Shu o'rinda ulug' mutafakkir, davlat arbobi, buyuk shoir A. Navoyning qo'yidagi fikrini keltirmoqchiman: "Barcha insonlarga nisbatan adolatli bo'lish, mehr \ muruvvat ko'rsatish, yetimlarni va nogironlarni qo'llash, ko'nglini ko'tarish savobliligi jixatdan vayron bo'lgan Ka'bani tiklashdan afzal " deb ta'kidlab o'tadi.

Xorijik ko'ngillilar maxalliy pedagoglar bilan xamkorlikda seminar treninglar ukazib tajriba almashishga muyassar bo'lishdi. Xar kungi reja bo'yicha tadbir nomlari belgilandi masalan "Bizning shior", "Shijoatli", "Jaxonshumul", "Matonatli" va xk. Bolalar bilan turli tugaraklar to'qish, tikish, san'at, o'yin, tasviriy san'at, raqsh musiqa va ashula, sport uyinlari, musoboqa, yosh ulkashunoslar kabi tadbirlarni o'tqazish bolalar uchun juda qiziqarli bo'ldi.

I.4.Inklyuziv ta'lim vazifalar va maqsadi

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bdalar o'rtasidagi tusiqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning siyosati turlixil extiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llpaydi, va yutuqga erishishiga yordam beradi hamda yaxshi xayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim - bu davlat siyosati bo'lib nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muxtoj, tabiyasi og'ir, yetim bolalar, kasallangan bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashgan yordam tizimidir va barcha bolalarni teng ko'rishni ko'zda tutadigan ta'lim. Millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoi kelib chiqishi, o'lasining jamiyatda tutgan o'rni, manbai, moddiy va ma'naviy axvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo'lishidan qat'iy nazar barcha bolalarni

teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko'zda tutadigan ta'limdir²¹.

Inklyuziv ta'lim - umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim xarxil extiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli extiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaxolangki ular uqitilmasaham). Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir - birlari bilan muloqot qilish jarayonida uzlarining o'qitilish jarayonida turli extiyojlarga ega - individum ekanliklarini anglyadilar. Sharqning mashxur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy larning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta'limning ta'siri tug'risidagi qarashlari inklyuziv talim ga ham taalukli deb o'ylaymiz. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus extiyojli bolalarga e'tiborning yanada yaxshilanishiga olib keldi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim - tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarning extiyojlarini umumta'lim muassasalarida qondirib bulmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z - o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko'plab maxsus extiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmokdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga kura maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmokda. Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tengdoshlari katori umumta'lim tizimida ta'lim olishiga jiddiy etibor

²¹ Сулейманова Р.А., Хакимжанова Г.А. Зарубежный и отечественный опыт включения детей с особыми нуждами в общеобразовательный процесс: проблемы и пути решения. – Алматы: КАПринт, 2001. -65.с.

berilmokda va inklyuziv ta'lim matbuot axborot vositalari orkali ommaga keng targ'ibot kilnmokda²². Bu borada ota-onalar xam farzandlarini umumta'lim tizimidagi integratsiyalashgan va inklyuziv gurux va sinflarda ta'lim - tarbiya olishiga uz istaklarini bildirishmokda. Integratsiyalashgan ta'lim bu, -diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib - ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integratsiyalashgan ta'limda bolaga mummo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud: Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bulmagan bolalar urtasidagi jismoniy farkni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin. Funktsional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funktsional muammolarni kamaytirishga qaratilgan. Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab - quvvatlaydi.

Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari²³:

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning inkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- ukuvchilarning ta'limdagi tenglik xukukini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va saglom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashashxuquqini ruyobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-nuxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Yukoridagivazifalarni tulaqonli amalga oshirishda eng birinchi galda kuyidagilarga e'tibor qaraitish lozim:

Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni ukish va yozishga ugatish muammolarini ijtimoiy xayotga moslashtirishga kumak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

²² Ратнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 32.с.

²³ Сулейманова Р.А., Хакижанова Г.А. Зарубежный и отечественный опыт включения детей с особыми нуждами в общеобразовательный процесс: проблемы и пути решения. – Алматы: КАПринт, 2001. -65.с.

Maxsus yordamga muxtoj bolalarning asosiy muamolarini ular o'zлари yashab turan muxitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z buyniga olmas ekan, cheklab kuyilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integratsiyaga erishish qiyin.

Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim - tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralari ko'rib chiqish, ya'ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanganlar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini, nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarning muvaffaqiyati xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlari talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi.

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyati darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan ximoyalanganlar, ijtimoiy xayotda teng xuquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregatsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi boalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega.

Inklyuziv ta'lim masalasi 90-yillarning diqqat markazida bo'lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o'rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta'lim vazirliklarida

maxsus maktablar qoshidagi aloxida bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi²⁴:

- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;

- inklyuziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- bolalarni oilasidan, o'yidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning o'yi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqigato'sqinlik qiladi;

- o'yidan, oilasidan, ota - ona mexridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarniqamraydigan yangi o'qitish uslublarni ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi.

Jamiyatda nogironlarga nisbatan yangilish fikr va munosabat mavjud. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularga yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim - tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim - tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

Inklyuziv ta'limning muammolari:Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha davlat normativ xujjatlarida qayd qilinmaganligi;

Nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat;

Imkoniyati cheklangan bolalarning hamjamiyatda ko'rinmaslik muammosi;

Imkoniyati cheklangan bolalarning maktabda ko'rinmaslik muammosi;

Moddiy mablag' muammolari;

Ta'lim muassasalarini moslashtirish;

Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi;

Kambag'allik;

Jinsiy tafovutlarga qarab kamsitish;

Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;

Favqulodda vaziyatlar , mojarolar, qochoqlar;

Kadrlar masalasidagi muammolar.

Inklyuziv ta'limning koidalari²⁵:

²⁴ Сулейманова Р.А., Хакимжанова Г.А. Зарубежный и отечественный опыт включения детей с особыми нуждами в общеобразовательный процесс: проблемы и пути решения. – Алматы: КАПринт, 2001. -65.с.

1. Insonning qadr qimmatini, uning qobiliyati va yutug'iga bog'liq emas.
2. Har bir inson o'ylash va xis qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir kishi eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga ega.
4. Har bir kishi bir - biriga muxtoj.
5. Shaxsning to'liq va haqiqiy ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi.
6. Hamma kishilar o'z tengdoshlarini qo'llab quvvatlashga muxtoj.
7. Hamma ta'lim oluvchilarni yutuqqa erishishiga ularning nimadir qila olmasligi emas, balki nimanidir qila olishidir.
8. Hamkorlik qilish kishi hayotini har tomonlama ko'chaytiradi.

Inklyuziv ta'lim tizimi qo'yidagi ta'lim muassasalarni o'z ichiga oladi; maktabgacha umuta'lim, umu o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb - xunar va oliy ta'lim. Bu ta'lim muassasalarning maqsadi bolalarning ta'lim olishi va kasb - xunarga tayyorlashda ularning o'rtasidagi to'siqlikni bartaraf etib ochiq ta'lim muxitini yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan uzining mazmun - moxiyati, maqsadi, vazifalari va xarakat dasturi bilan farqlanadi.

1.5 Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslanilad²⁶:

- 1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7). Malakaviylik tamoyili.

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalrni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki

²⁵ Сулейманова Р.А., Хакимжанова Г.А. Зарубежный и отечественный опыт включения детей с особыми нуждами в общеобразовательный процесс: проблемы и пути решения. – Алматы: КАПринт, 2001. -65.с.

Ратнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 46.с.

qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini jori qilish asosan shaharlar miqyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

"Bog'lanish"-bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilari yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi²⁷.

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoiilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B). Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga jaqvobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sihatlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqil berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.

²⁷ Shomaxmudova R. Maxsus va inklyuziv ta'lim. – Toshkent, 2012. -123.b.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi ta'lab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuhori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarda (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari²⁸.

- Maxsus ta'lim tamoyillari:
- Korreksion yo'naltirilganligi;
- Nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologo-pedagogik) yondoshish;
- Nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy-psixologik jixatdan korreksiyalash;
- Umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yunaltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;
- Differensial-tabaqalashtirish va oloxida yondoshish;
- Ta'limning uzliksizligini ta'minlash.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar

Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni ukish va yozishga urgatish muammolarini ijtimoiy xayotga moslashtirishga kumak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogron

²⁸ Ратнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 56.с.

bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

Maxsus yordamga muxtoj bolalarning asosiy muamolarini ular o'zlari yashab turan muhitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z buyniga olmas ekan, cheklab kuyilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integratsiyaga erishish qiyin.

Maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim - tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'p²⁹ bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish, ya'ni mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor²⁹:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalana²⁹dilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini, nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlar²⁹ning muvaffaqiyati xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar-o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlari talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi.

Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyati darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan ximoyalana²⁹dilar, ijtimoiy xayotda teng xuquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregatsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalada bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi boalalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bdalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega.

²⁹ Ратнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 88.с.

Inklyuziv ta'lim masalasi 90-yillarning diqqat markazida bo'lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o'rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta'lim vazirliklarida maxsus maktablar qoshidagi aloxida bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;

- inklyuziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- bolalarni oilasidan, o'yidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning o'yi, oilasi xamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqigato'sqinlik qiladi;

- o'yidan, oilasidan, ota-ona mexridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarniqamraydigan yangi o'qitish uslublarni ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi.

Jamiyatda nogironlarga nisbatan yangilish fikr va munosabat mavjud. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularga yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim - tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdur. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim - tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Inklyuziv ta'lim qanday ma'nonini anglatadi?
2. Inklyuziv ta'limning ilmiy-nazariy asoslarini tafsiflang.
3. "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyaning mazmuni tavsiflang.
4. Inklyuziv ta'limining nazariy va amaliy asoslarini yoritng.
5. Inklyuziv ta'lim qanday maqsad va vazifalarga ega?
6. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj nima asosida kelib chiqadi?
7. Inklyuziv ta'limning koidalarini ochib bering.
8. Inklyuziv ta'limning qanday muammolari mavjud?

II BO‘LIM. INKLYUZIV TA‘LIMNING HUQUQIY, MYE‘YORIY ASOSLARI

2.1. Inklyuziv ta‘lim siyosatining jahon miqyosida nazariy va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi

Ma‘lumki, umumjahon statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, yer yuzi aholisining 9-11% ni rivojlanishdan orqada qolgan va ularning ruhiy-jismoniy holati bilan bog‘liq maxsus ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan kishilar tashkil etadi.

Yunisef Xalqaro bolalar jamg‘armasining Uzbekiston Respublikasidagi vakolotxanasining sobiq boshlig‘i Reza Xossayni Innohentining ma‘lumotiga ko‘ra markaziy - sharqiy -evropa mamlakatlari va Baltika davlatlarida mintaqaning 27davlatida nogiron deb tan olingan bolalar soni 2009yilda 500mingta, 2019 yilga kelib ularning soni 1,5mln. ga ko‘tarildi, nogiron bolalar soni 3barobarga ko‘tarilgan. Uzbekistonda esa 1996yilda qayd qilingan va nazorat ostidagi nogiron bolalar soni 70mingtani tashkil qilgan bo‘lsa 2005 yilga kelib 125mingtaga yetdi. Bu keskin o‘shish, birinchi navbatda bolalar nogironligi masalasining dolzarbligi va ko‘mak izlayotgan analarning ko‘payayotganligini tan olish bilan bog‘liq³⁰.

BMT sobiq bosh kotibi Kofi Annan o‘z ma‘ruzasida qo‘yidagi hayotiy misollarni keltirdi Maktabda deyarli bo‘lmagan, na ishi, na bexatar boshpanasi bo‘lmagan maxsus yordamga muxtoj bolani tasavvur qiling...

Onalari dori solingan shishaga yopishtirilgan yorliqni o‘qiy olmagani uchun jon taslim kilayotgan bolani yoki yuridik xujjatni o‘qiy olmagani uchun me‘ros qolgan yerdan maxrum bo‘lib kolgan kishini ko‘z oldingizga keltiring. Ta‘lim har doim ham qaramlik, vasvasa va qashshoqlikdan halos bo‘lish uchun kalit bo‘lib xisoblangan. Talim bu qambag‘allikka qarshi kurashadigan samarali qurol. U ko‘plab odamlarning hayotini saqlab qoladi va raqobatbardoshligini oshiradi, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotini rag‘batlantiradi. Ta‘limning uzliksizligi yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Rivojlanish ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun u tub ahamiyatga ega. Ammo bugungi kunda dunyo bo‘yicha 113 milliondan ortiq bola ta‘limdan bebahra qolmoqda. Mana bu bolaning fikriga etibor bering “Mening otim Amerigo. Yoshim 13da. Ko‘chada yolg‘iz yashayman. Qachonlardir otam tashlab ketgan. Otam men bilan yashashni xoxlamaydi. Otam juda uzokda yashaydi. Men uning yoniga borishim mumkin, lekin u ham meni olishni xoxlamaydi. Xullas mening o‘yim ko‘cha. Ilgarilari eski-tuski narsalarni yig‘ib sotardim. Qandaydir kasallikka chalinganidan so‘ng ko‘zim hiralashib, qulog‘imning eshitishi ham yomonlashdi. Bir oz vaqt muzqaymoqchi bilan ishladim. Men plyajda muzqaymoq sotar edim, Ammo bu juda mashaqqatli ish. Mo‘zqaymoq to‘la og‘ir yashikni ko‘tarib yurishga to‘g‘ri kelardi. Qulog‘imning eshitmasligi esa meni yanada qiyin ahvolga sola boshladi.

Hozir poyafzallarni tozalayapman. Biroq hech qachon qorin to‘ymaydi, keyingi kcha qayerda tunashni bilmayman. Men ham o‘z o‘yimda yashashni,

³⁰ Патнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 56.с.

maktabga borishni juda-juda istar edim. Qishkechalari juda sovuq bo'ladi. Sovuqdan ko'chada o'lib qolish ham hech gap emas" Amerigoning ahvoli yagona voqea emas. Butun dunyo bo'yicha 1000lab bolalar ko'chada yashaydilar. Xavfli joylarda ishlaydilar. Ularni (ayniqsa nuqsonli bo'lsa) har doim kamsitadilar, ko'pincha bu bolalarning oddiygina huquqlari ham yo'q."- (" Ming yillik ma'ruzasi "- 2000 yil³¹)) Chet el va Rossiya federatsiyasining tajribasini o'rganish jarayonida Rossiyada ijtimoiy muammolari bo'lgan bolalar bo'yicha qo'yidagi ko'rsatkichlar ma'lum bo'ldi. Birinchi o'rinda asab tizimi va his qilish organi (21,7%), shularning orasida eng ko'p uchraydigan tserebral falajlangan (DSP), ikkinchi o'rinda psixik rivojlanishi buzilgan (18, 6 %) va (71,0%) aqli zaif, tug'ma anomal (18, 5 %) . 3ta turidagi kasalliklar tizimi, sabablari bolalar nogironligi asosining qariyb 70 % ni belgilab beradi.

Halqaro tashkilotlardan biri UNICEF, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi 2dekabr 2005 yilda butun jaxon nogironlar kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirning ham asl maqsadi nogironlarni xar-qanday diskriminatsiyadan ozod qilish, nogironlar barchalar qatori o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ko'rsata bilish, bilim, malakaga ega ekanligi to'g'risida fuqarolar e'tiborini qaratish (prizyv)dan iborat edi..

SNG, Markaziy Sharqiy Yevropa (MShYe) davlatlarida 2000y. boshlarida maxsus tashkil topgan muassasalar, maktab - internatlarda 317000 imkoniyati cheklangan bolalar yashab kelgan. Ular o'z ota-onalaridan va o'arindoshlarida uzoqda ajralgan xolda maxsus maktab va maktab - internatlarga jo'natilgan.

Shuni aytish joizki bu bolalar ota-onalarining qo'llab-quvatlashi asosida rivojlangan ta'lim tizimida yashashi mumkin edi. "Barcha regionlardagi xolatni ko'rib chiqish jarayonida bolalar ota-onalarimizni oldida yashab barcha sog'lom tengdoshlarimiz qatori bir-hil maktablarda o'qishni hojlar edik" deb ta'kidlashdi. O'zbekistondagi Yunisef tashkilotini bosh vakili Reza Xossaynining ta'kidlashicha "ko'p vaziyatlarda nogironlikni oldini olish mumkin, qachonki onaning xomiladorlik vaqti, bolaning tug'ilishi va tug'ilishidan keyingi vaqtlarda ularni parvarish qilishga qulay bo'lgan tizimni yo'lga quyilsa. Nogiron bolani ilk yoshdan tashxis qo'yish, kerakli bo'lgan parvarishni ta'minlashni ko'p muddatli tasir ko'rsatishni biz ham kamaytirgan bo'lar edik."

"Haqiqat shuki ota-onalar o'zlarini ijtimoiy - iqtisodiy yordamga muxtojligini his qilishadi. Ko'p mamlakatlarda hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni muammosi va hayotini hal qiluvchi normativ xo'jjat-qonun mavjud. Misol tariqasida SNG- davlatlaridan biri O'zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoyalash qonuni (1991y.) va nogironlarni ijtimoiy rehabilitatsiyasi bo'yimkoniyati cheklangana davlat dasturi mavjud bo'lib, hamda bolalarni o'zini o'zinishaxsiy oilasida yashab inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim olishi bo'yimkoniyati cheklangana ish olib borilmoqda. Bugungi tadbir nogiron bolalar va ularni oilalarini hayotini pozitiv ijtimoiy

³¹ Ратнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 56 с..

o'zgartirishga qiziqishi bor tashkilotlar diqqatini jalb qilishni va ularni ovozi
eshitishga safarbar qilishmoqda.³²

“Nogiron bolalarni ta’lim olish uchun qilgan murojatini keltirmoqchimiz “Biz maktablarda o’qimoqishni hojlaymiz. Biz hojlaymizki bizlarga hamma qatori bir xil munosabatda bo’lishini. Bizlarning orzu-umidlarimizni amalga oshiradigan imkoniyatlarni bizga berishingizni so’raymiz” Aziza 18 yosh diagnozi DSP O’zbekiston.

“Menga o’йда bo’lishim yaxshiroq bo’lar edi chunki, oilada sen uchun qayg’urishadi va qullab quvatlashadi.” Misha 13 yosh Bolgariya, internatda yashaydi.

“Men ko’proq mehr-muxabbatga muxtojman, o’z yaqinlarim bilan ko’proq muloqotda bo’lishni istayman. Internatda yashayman shu bois ota-onamni kam ko’raman.” Yeva, 12yoshda, internatda yashaydi, Latviya.

“Onalarga gamxurlik kiling shunda bolalar baxtli buladilar.” Imkoniyati cheklangan bolaning onasi Vera, Rossiya.

“Sen odamlar bilan muloqot qila olmay qolasa. O’rtoqlaring seni unutadi.” Ralitsa, imkoniyati cheklangan bolaning onasi, Bolgariya.

“Men uzimni kasal deb xisoblamayman. Aksincha. Sen yeshsan, hayot naqadar go’zal.” Valya 17 yesh uyda yashaydi, Bolgariya.

“Siz tushinasizmi nima uchun ular [tayanch-xarakat a’zolari falajlangan nogironlar] o’ylarida utirishadi. To’g’ri! Chunki xech qayerda yo’laklar, inshootlar ning yo’llari nogironlar aravachasi uchun moslashtirilmagan.” Lyuda, 17 yosh, internatda yashaydi, Rossiya³³.

Bir qator chet mamalakatlarining tajribasini o’rganish jarayonida bizga shu narsa ma’lum bo’ldiki taxminan 1970-yillardan boshlab nogironlarning ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida normativ aktlar paketi ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda. Shunday qonunlarni va boshqa shunga o’xshash xujjatlarni xayotga tadbiiq etish, sog’lom bolalar bilan nogiron bolalarni xuquq jixatidan barobar ko’rishning kompleks chora-tadbirlarida ifodalanmoqda. Bu imtiyozlar tartibi sog’lom bolalar bilan nogiron bolalarning jamiyatda bir xil imkoniyatlarga ega bo’lishlariga yordam beradi. Ta’limiy tafovutlarni yoqotishdagi barcha ishlarning borishida kamchilikni tashkil qiladigan nogironlar guruxlarining imtiyozlarini oshirib, sog’lom rivojlanishidagi ko’pchilikni tashkil qilgan guruxlar imtiyozlarini kamaytirish chora tadbirlari ko’rilmoqda. Siyosatchilar sotsiologlar va ijtimoiy tashkilotlar ijtimoiy tashkilotlar ijtimoiy jixatdan yordamga muxtoj guruxlarga o’rta va oily o’quv yurtlarida sifatli ta’lim olishlariga keng yo ochib berishga oid

³² Shomaxmudova R. Maxsus va iklyuziv ta’lim. – Toshkent, 2012. -123.b.

³³ Ратнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 56.с.

masalalarni xal etmoqdalar. Ana shunga muvofiq oily ta'lim talabalari tarkibiga siyosiy va iqtisodiy tomondan ta'sir qilish tizimini shakllantirish, ijtimoiy yordamga muxtoj qatlamlardan chiqayotgan o'quvchilarni oily ta'lim maskanlariga kirishlariga tayyorgarlik chora tadbirlarini ko'rish, nogiron bolalar, kam ta'minlangan va qishloq axolisi vakillari bolalariga ta'lim jarayonida yuqori darajali qulay sharoitlarni yaratish xaqidagi masalalari ko'rib chiqildi.

AQSh va Yevropa ta'limi siyosati tarixi davomida o'zlarining bir qancha rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqdilar:

maktab desegregatsiyasi;

ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;

meynstriling;

integratsiya;

inklyuziya.

Meynstriling – bu shunday cstrategiyaki, bunda nogiron bolalar o'z tengdoshlari bilan bayramlarda, turli xil darsdan tashqari vaqtlarda muloqot qiladilar, ayrim bolalar ommaviy maktablarning sinflariga xam kiritilib, ular ta'lim olish maqsadida emas, balki o'z tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida kiritiladi. Integratsiya -bu ruxiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar extiyojlariga ko'ra ta'lim jarayonini amalgam oshirish; ular nogiron bolalar uchun moslashtirilmagan maktablarga boradilar, lekin maktabga borish majburiy emas, bu ularning xoxish-istaklaridan kelib chiqadi. Inklyuziv ta'lim bu yangi atama, ya'ni maktablarda tubdan isloxatlar o'tkazish va o'quvchilarning extiyojlarini qondiradigan o'quv binolarini qayta rejalashtirish.

Yuqoridagi yondashuvlar bir qancha nazariy yo'nalishlarga asoslanadi;

ijtimoiy odiylik nazariyasi;

inson xuquqlari, insonning rivojlanishiga nisbatan ijtimoiy tuzim nazariyasi;

strukturalizm;

ijtimoiy tanqid.

Agar nogiron o'quvchilarning ta'lim tizimi nazariyasi xaqida gapiradigan bo'lsak, u xolda U.Bronfenbrennning 1979 yil ishlarini esga olish kerak. Bu olimning fikricha inson rivojlanish jarayonida ya'ni ulg'ayotgan, o'sayotgan indevid atrof-olamni keng, differentsiyalashgan va adekvat anglay boshlaydi. Bunday bo'lishning sababi vaqt o'tishi bilan bolalar o'zlarining ijtimoiy-ijtimoiy muxitlarini o'zgartirib, xarakat va muloqotga katta qiziqish bilan qaraydilar. Shuning uchun xam o'quvchilarning xulq-atvorlarini nazorat qilish emas, balki ularda o'z-o'zini boshqarish malakalarini rivojlantirish kerak. Yana bir shunga o'xshash konsepsiya Brim konsepsiyasidir, 1975 yilda konsepsiya yuqoridagi fikrning davomi xisoblanadi, ya'ni uning ta'kidlashicha xar bir insonning o'z ta'lim datsuri, qonun-qoidalari bor. Shuning uchun xam biror bir guruxning faoliyatida, ularning qonun-qoidalarini o'rganmay turib, ishtirok eta olmaymiz. Shuningdek o'quvchilar (bu yaxshimi, yomonmi) maktab qonun-qoidalarini o'zlashtirib olishlari, o'qituvchilar esa ularga o'quv muassasining ijtimoiy va tashkiliy tizimini mukammal o'rgatishlari kerak. Shuningdek o'qituvchilar shuni tan olishlari kerakki, o'quvchilar ulardan maktabdan tashqarida-uyda, ko'chada, jamiyatda ishlarini, maktabda ruxsat berishlarini iltimos

qilishadi. Tarbiyachi va o'qituvchilar internatlat muxitini "uy muxitiga" aylantirishga qanchalik xarakter qilishmasin, bular bari bir uy va oilalarning o'rnini bosa olmaydilar. Bu bilan esa o'quvchilar maktabdan keyingi mutsqaqil xayotida ijtimoiy muxitga e'rganish jarayoniga kirishishlariga keng imkoniyat bermaydi. Shuning uchun xam maxsus maktab xam nogiron o'quvchilar uchun muammo xisoblanadi. Maxsus ta'lim sharoitida biz o'quvchilarni maktabga moslashtirish, maktab qonun-qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish muammolari bilan to'qnashamiz. Shu uchun xam o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish va mustaqil xulosalar chiqarish malakalarini shakllantirish kerak. Bunday malakalar ularga jamiyatda, katta xayotga qadam qo'yganlarida kerak bo'ladi.

AQSh da 1875 yildan 1914 yilgacha majburiy maktab ta'limi joriy qilingan edi. Shunga muvofiq ravishda aqli zaif xisoblangan va tarbiyasi og'ir, kar, jismoniy nogironlar uchun maxsus sinflar tashkil qilingan edi. bu vaqtda Milliy ta'lim assotsiyatsiyasi maxsus ta'lim Departamentini tashkil qildi. Aqliy qobiliyatni tekshirishga mo'ljallangan testlar, psixologik nazariyalar rivojlandi, ishchi kuchi ko'paya boshladi. Bu omillar maktab tizimiga ta'sir qila boshladi, ya'ni o'quvchilar orasidagi individual farqlar va aniqlash va ularni o'lchash tamoyillari tuzildi.

60-70 yillarda nogiron o'quvchilarning omadsizligida maktabni aybdor xisoblab, maktablarga qarshi norozi ovozlari kuchaydi. Djeyn Merser 1971 yil tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, xar bir ijtimoiy tizim insonga yangi tushunchalarni beradi, shuning uchun nogironlik ijtimoiy kelishuvlarning maxsuli xisoblanadi.

1962 yilda Reyxolds va I.Denoning takliflari asosida "servislar kaskadi" degan tushuncha priy qilindi. Bu shunday modelki, bu model asosida kasalxonada yoki uy sharoitida, maxsus maktab yoki maxsus sinflarda bilim olayotgan nogiron o'quvchilarning, shuningdek umumta'lim maktablardagi o'quvchilarning xoxish-itsaklarini inobatga olgan xolda turli qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi ko'zda tutiladi.

1977 yilgagi "Xamma nogiron bolalar uchun ta'lim tizimi" xaqidagi qonunda qo'shimcha xizmatlar turi ko'rsatilgan bo'lib, bu xizmatlar o'quvchilarni maxsus ta'limni o'lishlariga yordam beradi. Bunday xizmatlarga quyidagilar kiritilgan: transport, bgoped, audologiya, psixologiya, fizioterapiya, tibbiy xizmat, maktab shifokori yoki xamshirasi, ijtimoiy xodim, psixologlarni maslaxat berishi.

1990 yillarda AQSh da barcha nogiron bolalar uchun ta'lim xaqidagi qonun ishlab chiqildi. Uning tamoyillari bilan individuallashtirilgan ta'lim, shu bilan birga nogiron ta'limi xaqidagi qonun xam ishlab chiqildi.

M.Reynolds 1989 yil maxsus ta'lim muxitini nogiron bolalarni ommaviy maktablarda ta'lim sharoitlarining yaxshilanishi maxsus sinf va maktablarga yuborilayotgan bolalar sonining kamayishiga olib keladi. Xozirda Amerikada maktablarni shunday qilishiga jamiyatning qiziqishi ortib bormoqda, chunki bunday maktablarga barcha o'quvchilarni jalb qilish imkoni ortadi.

Shu tariq inklyuziya – bu ta'lim olishni tashkil qilishning shunday asosiki, bunda xamma o'quvchilar o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'zlarining yashash joylariga taaluqli bo'lgan maktablarda ta'lim oladilar. Inklyuziya tushunchasi zamonaviy ta'lim siyosatiga Madlen Uill xonimning ta'lim siyosatidagi ishlari asosida kiritilgan.

Uillning ta'kidlashicha, pedagoglar ko'pchilik nogiron o'quvchilar uchun "pull-out" xizmati samarasiz ekanligini ta'kidlashmoqda. "pull-out" bu shunday xizmatki, sinfda dars olib o'quvchilarni darsdan chiqib ketishlarini talab etadi. Gap shundaki, ko'pincha maxsus sinflarga turli guruxlardagi o'quvchilar: pedagogik qarovsiz bo'lgan, nogiron, aqli zaif, xulqida qiyinchiligi bo'lgan, diqqati tarqoq va giperaktiv o'quvchilar yuborilar edi. Bundan tashqari tadqiqotchilar maxsus muassasalarga kelgan bolalar xech qachon ommaviy maktablarga qaytib kelmasligidan tashvishlanar edilar.

Inklyuziv ta'limning asoslari shundan iboratki, nogiron o'quvchilarni turli extiyojlarini qondirishi kerak. Shunga ko'ra bunday maktablarning oldiga qo'ygan maqsadi shundaki, barcha o'quvchilarga to'laonli ijtimoiy xayotida, jamoa ishlarida va maxalliy jamiyatda faol ishtirok etishda, shu jamiyatning bir a'zosi sifatida bir-biriga yordam berishga qaratilgan. Bu tushuncha integratsiya va mensinglingning taqqoslash bo'yicha keyingi qadamlarini belgilab beradi. Inklyuziv maktablar va sinflarda bolalarning turar joylari bo'yicha o'qitiladi. Bu tamoyillar shuni bildiradiki:

1) xamma bolalar o'z turar joylaridagi maktablarning ta'lim va ijtimoiy xayotiga kiritilishlari kerak;

2) inklyuziya – bu o'quvchini boshidan ta'limga kiritish;

3) inklyuziv maktabning vazifasi shundan iboratki, xar bir bolaning extiyojini qondirish tizimini yaratish;

4) inklyuziv maktablarda nafaqat nogiron bolalarning, balki boshqa bolalarning xam xayotda o'z o'rinarini topishlariga, o'zlariga ishonch xissini uyg'otishlariga, xayotda muvoffaqiyatlarga erishishlariga yordam beriladi.

Inklyuziv maktabning maqsadi xamma o'quvchilarga ijtimoiy xayotda, jamoada va jamiyatda faol ishtirok etishga imkon yaratib berish va jamiyatning bir a'zosi sifatida bir-birlariga yordam berish, shu bilan birga to'laonli aloqalarni ta'minlashdan iborat. (Ferguson, Meyer, Jeanchild et al. 1992). Bu shunday bebaxo qatiy talabki, bunda xamma maktab va jamiyat a'zolari bir-biri bilan bog'liq. Va o'quvchilar nafaqat bir-birlari bilan ta'lim jarayonida o'zaro aloqalarda bo'ladilar, balki auditoriyalardagi qabul qilinadigan jarayonlarda xam bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydilar. (Sflisbury, Palombaro, Xolloivud 1993).

Inklyuziv maktablarda ishlayotgan xodimlar, pedagoglar o'z zimmalariga quyidagi majburiyatlarini oladilar³⁴:

ularga biriktirilgan xamma o'quvchilarni o'qitish;

ta'lim berishga oid masalalarni xal etish va ularning monitoringini tuzish;

o'ziga xos bo'lgan ta'lim datsuriga muvofiq o'qitishni ta'minlash;

kutilayotgan natija bolalar erishayotgan yutuqlardan farq qilsa, datsur qismlarini moslashtirish;

turli xil auditoriyalarda ishlashni bilish;

o'quvchilarni ta'lim jarayonida qo'llab quvvatlash.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, inklyuziv o'qituvchilarga aylangan pedagoglar "transformatsiya tajribasi"ni boshlaridan kechirganlar. Bu tadrijiy transformatsiyaga

³⁴ Патнер Ф.Л., Юсупова А.Ю. Интегрированное обучение детей с ограниченными возможностями в обществе здоровых детей. – М.: Владос, 2006. 56.с.

- 1) o'z tengdoshlaridan farq qiluvchi o'quvchilar bilan o'zaro aloqa qilishni;
- 2) o'quvchilarga ta'lim berish kerak bo'ladigan malakalarni egallamoqchi;
- 3) tengdoshlaridan farq qiluvchi o'quvchilarga nisbatan o'z munosabatlarini o'zgartirmoqchi bo'lgan o'qituvchilar jalb qilinadi.

Inklyuziv ta'lim tizimida ishlab tajriba orttirayotgan o'qituvchilar o'quvchilarni qabul qilishning quyidagi usullarini ishlab chiqdilar:

- 1) nogiron o'quvchilarni sinfdagi boshqa o'quvchilar singari qabul qilish;
- 2) ularni ta'limga jalb qilish, faqat ularning imkoniyatlariga mos vazifa berish;
- 3) o'quvchilarni birgalashib ta'lim olishga va barcha vazifalarni gurux bo'lib xal etishga jalb qilish;
- 4) manipulyatsiya, o'yin, loyixa, laboratoriya, dala tadqiqotlaridan keng va faol foydalanish

Inklyuziv ta'lim jamiyatida o'qituvchining rolini o'zgartirmoqda. Lipski va Gartner fikricha, o'qituvchi o'quvchining faol ishlashiga ta'sir ko'rsatadi. Ular o'quvchilar bilan xar xil faoliyatda ishtirok etib, ularning xar birining individual xususiyatlarini bilib oladilar. Shu bilan birgalikda o'qituvchilar o'quvchilarning maktabdan tashqari paytdagi ijtimoiy munosabatlarida ishtirok etadilar va ota-onalari bilan keng ijtimoiy munosabatda bo'ladilar.

Pinnel va Gellovey inklyuziv ta'lim asosida maktablardagi sinflarni boshqarish va rivojlantirishning quyidagi printsiplar sitsemasini ko'rsatishgan:

- o'qituvchilar, o'quvchilarni dars jarayoniga salmoqli xissa qo'shayotganlarini tan olishmoqda;
- o'quvchilarning biror narsalarni o'rganishlari shunda sodir bo'ladiki, qachonki o'quvchilarning biror nimani bilishga yoki uni o'zgartirishga extiyoj sezishsa;
- o'rganish, bu ma'lumot va malakalarning aloxida to'plamlari emas, balki bir butun jarayondir;
- o'qituvchilar, o'quvchilarning o'rganishlari ustidan ijtimoiy tugal fikrni anglatuvchi sinf xonalari xokimligini tan olishadi;
- o'qituvchilar o'quvchilarda bilimlarni o'rganish va mutsaxkamlash kabi shaxsiy tushunchalarni rivojlantirishadi;
- o'qituvchilar sinflarda qanday voqea va xodisalarning sodir bo'lishiga aloqadorlar va bu yerda bo'ladigan xodisalarga befarq bo'la olmaydilar.

2.2. Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalarni me'yorda rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim - tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir.

BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da "Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi" ekanligi alohida e'ti'of etilgan.

“Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishliligi aniqlandi.

Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT 1975 yilda “Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta’kidlanishicha: “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug‘ilishi bilan mavjud bo‘ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat’iy nazar, fuqaro o‘z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to‘laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega” (“Nogiron shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Deklaratsiya, 3-modda).

Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muxofaza qilish maqsadida BMT 1989 yilda “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya”ni qabul qildi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya” bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi halqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyaning ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko‘ngilli tarzda zimmalariga “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya” qoidalarini ma’muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar.

“Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya” kompleks va ko‘p qirrali xarakterda bo‘lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta’min etadigan yagona Konventsiyadir.

Bu konventsiya qat’iy faoliyat ko‘rsatadi. Barcha hukumatlarni hamma bolalarning huquqlarini himoya etish uchun sa’y - harakatlar qabul etishga chaqiradi. Shuningdek, bu Konventsiya yaxlitdir, chunki unda ta’kidlanishicha, barcha huquqlar muhim, mushtarak, bir-birlariga bog‘liq va tengdir. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya” barcha bolalarning huquqlarini himoya qiladi. Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida “Bolalar, ularning ota-onalari, boquvchilarining irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e’tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog‘lig‘i, qanday holatda tug‘ilganliklari va boshqa holatlaridan qat’iy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasiligi kerak”-deb qat’iy belgilangan³⁵. Demak, bu Konventsiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo‘lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo‘lish kafolatlanadi. Shunday ekan, “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya” maxsus ehtiyojli bolalarning ta’lim olish huquqini ham kafolatlaydi. Aynan 28-modda “Ta’lim insonning siyosiy huquqi”, deb nomlangan bo‘lib, unda ishtirokchi davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini e’tirof etadilar, hamda ana shu huquqni teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta - sekin erishish maqsadida, bepul va majburiy boshlang‘ich ta’limni joriy etadilar,-deyilgan. Ushbu modda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ta’lim olishlarini, ular uchun ham ta’limning majburiy ekanligini ko‘rsatib turibdi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya” maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, “barcha

³⁵ Shomaxmudova R. Maxsus va iklyuziv ta’lim. – Toshkent, 2012. -123.b.

huquqlar barcha bolalarga” tamoyili e’tirof etilishi ma’lum bo’ldi. Shuningdek, “Bolalar huquqlari to’g’risidagi Konvensiya”ning 23-bandida maxsus ehtiyojli bolalarning ta’lim - tarbiyasi xususida qisqa va aniq qilib quyidagicha ta’kidlangan: “Nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo’shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta’lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim”. Bu qoidadan shu narsa ayon bo’ladiki, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to’liq ishtirok etishi, madaniyatga hamohang bo’lib o’sishi, uning boyliklaridan, go’zalligidan bahra olib jamiyatning rivojiga hissa qo’shishlarining ahamiyati juda kattadir. Mana shunday imkoniyatlardan foydalanish va joriy etishda maxsus ta’lim muassasalarining ta’lim tizimi va mazmuni talabga javob bermaydi. Shuning uchun ham insonparvarlik nuqtai nazaridan jahondagi ko’plab mamlakatlar maxsus-segregatsion ta’lim tizimini inkor eta boshladi.

Buning natijasida esa 1990 yilda Tailandda o’ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo’lib o’tdi. Bu konferensiyada “Ta’lim hamma uchun ” Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi. “Ta’lim hamma uchun” Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155ta davlat hukumatlari va 150dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. “Ta’lim hamma uchun ” Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to’laqonli va mukammal ta’lim olishini kafolatladi.

Ushbu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot kabul qilingan: “Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta’limiga javob berishi bilan xarakterlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta’lim - tarbiya olishni talab etadi;
- o’qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanlanadi;
- maktabda to’laligicha korreksion pedagogik yordam tashkil etiladi;
- bolalar to’g’risidagi qaror kompleks tarzda qabul qilinadi;
- bolaning har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;
- maktabda integratsiya tamoyiliga o’quv rejaning asosi sifatida qaraladi;
- inklyuziv maktablarning moddiy ta’minoti yaxshilanadi”.

“Ta’lim hamma uchun ” maqsadlarini amalga oshirish va maxsus yordamga muhtoj bolalarning to’laqonli mukammal ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida 1994 yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniya davlatining va YuNYeSKOning yordamida Salamanka shahri (Ispaniya)da ikkinchi yirik Umumjahon Konferensiyasi bo’lib o’tganligi aniqlandi. Mazkur Konferensiya “Salamanka Deklaratsiyasi va Eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar ta’limining kelgusida ijrosini ta’minlash Ramkasi” deb atalib, shu yili “Salamanka bayonoti va ish faoliyat Rejasi” nomi bilan uning ish mazmuni nashr etildi. Bu hujjatda huquqlar bo’yicha bayonotlar mazmunlarini yorituvchi fikrlar bayon etilgan. Salamanka bayonoti va ish faoliyati Rejasining asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hisiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar o’qishga qabul qilishlari lozim. Mazkur hujjatda ta’kidlanishicha:

“Har bir bola ta’lim olish va o’ziga muvofiq darajada bilimga erishish huquqiga ega:

- Ta’lim tizimi va ta’limiy dasturlar turli xil xususiyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzilib, shu ishga yo’naltirilsin. Maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun oddiy maktablarga borish imkoniyati yaratilsin;

• Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash oddiy maktablarning ish faoliyati doirasiga kirar ekan, bu jarayon quyidagi maqsadlarga erishishning eng samarali vositasi bo'la oladi:

➤ Ajratib qo'yish illatiga qarshi kurash;

➤ Do'stona insonparvar jamoalarni yaratish, o'z tarkibiga maxsus ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni olgan jamiyatni qurish;

➤ Barcha bolalarning ta'lim olishiga erishish" (Salamanka bayonoti 2-band);

Salamanka Bayonoti va Ish faoliyati rejasida "Ta'lim hamma uchun" shiori ilgari surilmoqda. "Ta'lim hamma uchun" shiori deganda nogiron bo'lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo'yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham tenghuquqlilik asosida ta'lim olishlari tushuniladi.

Ushbu harakat rejasining tahlili shuni ko'rsatadiki, asoslanadigan muhim tamoyili quyidagilardan iborat:

"Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat'iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko'chmanchi xalqlarga tegishli bo'lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchilikni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi" (Harakat Rejasiga kirish 3-chi band).

• Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasida maxsus ehtiyojli bolalarga umumta'lim tizimi sharoitida inklyuziv ta'lim berish lozimligi alohida ta'kidlanib, har bir bolaning boshqalarnikiga o'xshamagan o'z ehtiyojlari mavjudligi, shuningdek, har bir bola yashash joyiga yaqin bo'lgan maktabga borish huquqiga egaligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Bunday maktablarning asosiy maqsadi barcha bolalarga samarali ta'lim beribgina qolmay, maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan inklyuziv va iliq munosabatli jamiyat yaratib, diskriminatsion o'zgarishlarga barham berishdir.

Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasining ishlab chiqilishi jahon miqyosida "Ta'lim hamma uchun" mazmunidagi ta'lim siyosati ilgari surilib, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimi sharoitida o'qitishning yo'llari belgilab berildi. Ammo bu ta'lim tizimining mazmun-mohiyatini yanada aniqroq va mustahkamroq huquqiy jihatdan asoslash, qat'iy belgilab berish lozim edi. Shuning uchun ham 2000 yilning 26-28 aprel kunlari Dakarda ta'lim to'g'risida xalqaro Forum qatnashchilari tomonidan "Dakar harakat dasturi"ni qabul qilganliklari tahlil etildi. Ular 10 yil oldin qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" Xalqaro Deklaratsiya (Djomten-Tailand-1990 yil) ni qayta tasdiqlab, ratifikatsiya qildilar. Dakar harakat dasturi "2000 yilga qadar jahon miqyosida ta'lim hamma uchun amaliy faoliyatining darajasini baholash" maqsadiga asoslanildi. Bu baholashda, har bir davlat o'zining ta'limini barcha bolalar uchun taminlanganlik darajasini tahlil qilib chiqish vazifasi topshirildi. Tahlil asosida har bir davlat 6 ta hududiy Konferensiyalarni o'tkazish davomida 1990-2000 yillarda erishgan yutuqlarini Djomt'enga yetkazib turishi lozim deb belgilandi.

Dakar harakat reja dasturiga kirgan barcha davlatlar 2002 yilga qadar "Ta'lim hamma uchun" rejasini mukammal tuzib, 2015 yilga qadar bu ta'lim tizimini amaliyotga to'liq joriy etishlari lozim deb topildi. Ushbu harakat rejasi tarkibiga kiruvchi davlatlarning barchasi "Har bir insonga va har bir jamiyatga" shiori ostida barcha

insonlar va bolalar ta'limini to'laqonli ta'minlash majburiyatini oladilar. Bu harakat dasturida "Ta'lim xavfsiz, sifatli, bolaning sog'lig'ini himoya qilib, mustahkamlaydigan, hamma uchun birdek, inklyuziv tarzda va barcha zaruriy resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. O'qituvchilar saviyasi va o'quv rejalar "Ta'lim hamma uchun" maqsadlariga javob berishi kerak"-deb belgilangan.³⁶ Uchinchi ming yillik arafasida o'tkazilgan mazkur Dakar Umumjahon Konferensiyasida xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlarda e'tirof etilgan ta'lim olishdagi tenglik amalda keng tatbiq etilayotganligi alohida ta'kidlandi³⁷.

Bu Deklaratsiya quyidagicha bayonot qilindi:

➤ Har bir inson: bola, o'smir va kattalarning har biri ta'lim olishlari shart va bu ta'lim uning asosiy o'quv imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim;

Nuqsonli bolalarning o'quv imkoniyatlari asosiy o'rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning nuqsonlarini erta aniqlab ta'limga jalb qilish imkoniyatini topmoq kerak. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha xuquqiy me'yoriy hujjatlar, xalqaro forum Konferensiyalar asosida maxsus ehtiyojli bolalar hamjamiyatning to'laqonli va tenghuquqli a'zosi ekanligi e'tirof etilib, ular ta'limida alohida yangicha yondashuv maydongan keldi. Ushbu ta'lim shakllari inklyuziv va integratsion ta'lim deb ataldi. "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyaning mazmunidan shu narsani tushunish mumkinki, nogiron fuqarolar uchun jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish kafolatlanadi. Ammo mazkur deklaratsiyada nogiron bolalar, ularning ta'lim olish imkoniyatlari va barcha davlatlar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari batafsil yoritilganligi aniqlandi. Bu xususda Suleymenova R.A. fikricha "Agarda nogiron bolalarning uz jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari rad etilsa ularning imkoniyatlari keskin kamayadi"

"Ta'limning uzluksizligi, yangi global iqtisodiyotning kalitidir. Ta'lim rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va inson ozodligi uchun tub ahamiyatga ega" deb ta'kidlaydi.

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy mslashtirishni to'raligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi. "Ta'lim tizimi shunday bo'lishi keraki deb yozadi L.S.Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning xayotga integratsiyasini ta'minlash deb xisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muxtoj bola o'qish jarayonida xar tomonlama rivojlansin. Ya'niy L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyhunlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish - maxsus yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni etirof etgan³⁸.

³⁷ Shomaxmudova R. Maxsus va iklyuziv ta'lim. – Toshkent, 2012. -145.b.

³⁸ Shomaxmudova R. Maxsus va iklyuziv ta'lim. – Toshkent, 2012. -156.b.

Savol va topshiriqlar:

1. Inklyuziv ta'limning huquqiy, me'yoriy asoslariga misol keltiring.
2. Inklyuziv ta'lim siyosatining jahon miqyosida nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlanishini tafsiflang.
3. Inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslarini yorting.
4. Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiyada nima ta'kidlanadi?
5. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha "Ta'lim hamma uchun" mazmunidagi ta'lim siyosati nimani ko'zda tutgan?
6. Dakar Umumjahon Konferensiyasida xalqaro va milliy me'yoriy hujjatlarda qanday ta'lim e'tirof etilgan ?
7. L.S.Vigotskiyning fikricha ta'lim tizimi qanday bo'lishi kerak?
8. Inklyuziv ta'limning huquqiy, me'yoriy asoslarini tahlil qiling.Ularga o'z munosabatingini bayon qiling.

III BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISH XUSUSIYATLARI

3.1. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va me'oriy asoslari

Nogironlarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, Respublika ta'lim markazi va Yunesko tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o'tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab dimlar, maxsus ta'lim tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta'lim muassasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta'limi ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatlari o'zgara boshladi. Inklyuziv ta'lim Resurs Markazi imkoniyati cheklangan bolalarni integratsiyalashgan ta'lim jarayonida ta'lim olish strategiyasini keng joriy qilish maqsadida Yunesko tashkiloti bilan shu yildan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekistonda integratsiyalashgan inklyuziv ta'lim tizimini amaliyotga tadbiiq qilish maqsadida YuNYeSKO xalqaro tashkiloti loyihasi asosida bir necha Respublika seminar-treininglar va xalqaro konferensiya, forumlar o'tkazishga muassar bo'lindi. Konferensiyalarda ko'tarilgan dolzarb muammolar, tavsiyalar va ishtirokchilarning ma'ruzalari kuyidagi ilmiy amaliy tuplalarda: «Aloxida yerdamga muxtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish» (Toshkent «Uzinkomsentr» 2003y.) chop etildi. Uzbekistonda ximoyaga muxtoj bulgan bolalarga yerdam kursatishning samarali shakli va uslubi (2005y respublika bolalar ijtimoiy markazi bulimi), «Uzbekiston respublikasida bolalarni ijtimoiy ximoyalash tizimini rivojlantirishning istikbollari» (2007y), «Inklyuziv ta'lim va bolalarni ijtimoiy kullab-kuvatlashning zamonaviy tendensiyalari» va boshka bir kator tuplamlarda chop etildi. Hozirgi kunda Respublikamizda inklyuziv ta'lim konsepsiyasini joriy qilishda ush bu materiallar asosiy dasturamal bo'lib kelmoqda.

1998 yilda YuNYeSKO tashabbusi bilan Buxoro shahrida yirik Konferensiya o'tkazildi. Konferensiyaning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llash, reabilitatsiya qilish, ta'limga jalb qilish, maxsus va inklyuziv ta'limning moddiy, texnikaviy bazasini tashkil qilish va maxsus extiyejli bolalarni to'laqonli jamiyatga moslashtirishga oid turli tashkiliy uslubiy ishlarni amalga oshirishda Markaziy Osiyoda ko'p tarmoqli aloqalar o'rnatishdan iborat edi³⁹.

Ushbu Konferensida BMT, YuNISYeF, VOZ tashkilotlarining ekspertlari shuningdek Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston Respublikai hamda O'zbekiston Respublikasidagi turli xil davlat va nodavlat tashkilotlar, ma'muriy organlarning mutasaddi xodimlari ishtirok etdilar. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo'llash va barcha qatori teng huquqli sharoitda ta'lim olishi va biron bir bola ta'limdan chetda qolmasligi jiddiy muhokama

³⁹ Shomaxmudova R. Maxsus va iklyuziv ta'lim. – Toshkent, 2012. -154.b.

etildi va rezolyutsiyalar qabul qilindi. Ushbu halqaro konferensiyada O'zbekiston Respublikasi XTV va uning tasarrufidagi turli ma'muriy tashkilot vakillari ham ishtirok etib, o'z tajribalari bilan fikr almashdilar va respublikada ushbu muammoni hal qilish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shu bois O'zbekistonda alohida yordamga muxtoj bolalarni to'laqonli maxsus ta'limga jalb qilish va integratsiya usulida ta'lim olish 2001-2002 yillarda birmuncha faollashdi. Bunga asos Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi, YuNYeSKO, YuNISYeF, "Opereyshen Mersi", "Mersi projekt" nodavlat xalqaro tashkilotlar va O'zbekistonda faoliyat ko'rsatuvchi milliy tashkilotlar, jumladan "UMR", "Ziyo", "Imkon", "Hayot", "Umidvorlik", "Yorug'lik", "Muruvvat"(Samarqand), "Mezon", "Mehrigiyo", "ShANS", "Nihol", "Korreksion pedagogik Reabilitatsiya markazi" kabilar bilan hamkorlikdagi loyihalar bo'yicha amalga oshirib kelingan ishlar, chora – tadbirlardir.

2000 yil O'zbekistonda inklyuziv ta'limning ilk asosi sifatida Respublika ta'lim markazi maxsus ta'lim bo'limi tomonidan "O'zbekiston respublikasida alohida yordamga muhtoj bolalar ochiq ta'lim tizimining rivojlantirish chora-tadbirlar rejasini" ishlab chiqildi. Bu reja dasturda alohida yordamga muxtoj bolalarni umumta'lim tizimga kiritishning quyidagi tashkiliy asoslari yoritib berildi:

ommaviy axborot orqali jamiyat ongini inklyuziv ta'limga tayyorlash;
Respublikadagi Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar haqida axborot banki yaratish;
-barcha turdagi nuqsonli bolalar uchun umumta'lim va yakka tartibda oilalarda o'qitilishi bo'yicha turli xil o'quv metodik adabiyotlar, didaktik vositalar ishlab chiqish va ta'minlash masalalari qayd qilingan.

Ayniqsa, 2001 yil 21-23 noyabr kunlari Toshken shahrida o'tkazilgan "Alohida yordamga muxtoj bolalarni ma'naviy va estetik tarbiyalash" mavzusidagi xalqaro konferensiyada turli xorijiy mamlakatlar, Qozog'iston, Rossiya, SNG davlatlarining ekepertlari qatnashib, o'z fikr - muloxazalari bilan o'rtoqlashdilar. Konferensiyada qatnashgan shaxar va viloyat xalq ta'limi boshqarma vakillari, aholini ijtimoiy muxofaza qilish, sog'liqni saqlash vazirliklari, mutaxassislar, Oliy ta'lim professor o'qituvchilari, malaka oshirish institutlari xodimlari, nodavlat jamoat tashkilotlari, nogiron bolalari bo'lgan ota-onalar, matbuot va axborot vositalari xodimlari, jurnalistlar qatnashib, hozirgi kunda vujudga kelayotgan muammolar ustida to'xtalib, bahs-munozara yuritdilar. Bu konferensiyada imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyatlari, mehnat natijalari, san'at, sportda erishgan yutuqlari va mahoratlari namoyish etildi. Uning tahlili shuni ko'rsatdiki alohida yordamga muxtoj bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim olishi ularni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi yana bir bor ekspertlar tomonidan qayd etildi.

Inklyuziv ta'lim goyasini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

XTV Respublika ta'lim markazi YuNYeSKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001-2003yillarda "Inklyuziv ta'lim" mavzusida seminar o'tkazib, uning tavsiyalariga

asosan "Inklyuziv ta'lim resurs markazi" tashkil etildi. "Inklyuziv ta'lim resurs markazi"ning nizomi ishlab chikildi va unda quyidagi vazifalar belgilandi:

- rivojlanishida muammolari bulgan bolalarni ilk yeshdan saralash umumta'limga jalb kilishning mezonlari-talablarini ishlab chikish va -inklyuziv sinf va guruhlarni o'quv metodik majmualar bilan ta'minlash;

-joylardagi inklyuziv ta'lim resurs markazlarga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

-imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga farzandlarini tarbiyalash, maktabga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga oid turli shakldagi tadbirlarni tashkil etish, maslahatlar berish;

-imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga ta'lim berish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasalarida inklyuziv sinflar va guruhlar tashkil etish kabilar.

2002 yilda kuni "Ta'lim hamma uchun Dakar Dekloratsiyasi"ning mohiyatini O'zbekistonda tadbir etish yuzasidan Xalq Ta'limi Vazirligi, YuNYeSKO, Yunisef xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlikda "Ta'lim hamma uchun" mavzusida halqaro forum tashkil etildi. Forumda xalqaro YuNYeSKO tashkilotining ekspertlari ishtirok etib forum qatinashchilariga "Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasining maksad vazifalari va uning xozigi kunda dolzarbligini tegishli ma'muriy organlar va turli Davlat va nodavlat tashkilotlar muxokamasiga olib chikildi. Forumda kabul kilingan dolzarb masalalar va rezolyutsiyasi asosida Uzbekistonda «ta'lim xama uchun milliy xarakter reja dasturini ishlab chikish tartibi buyicha ukuv seminar utkazildi. Seminarda kurib chikilgan masalalar yuzasidan 2003 yil "Ta'lim hamma uchun" milliy xarakter dasturining reja ishlab chiqildi. Ushbu dasturining reja 2000 yilda Dakarda kabul kilingan umumjaxon deklaratsiyasi tavsiyasi asosida ishlab chiqilib.bunda siyosatchilar, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan shugullanuvchi va qiziquvchi barcha shaxslar ishtirok etdi. "Ta'lim hamma uchun" Milliy harakat rejasini amalga oshirish chora tadbirlari dasturda (2001-2015- yillar)ga mo'ljallangan. Dasturning VI bandining IX yo'nalishi Maxsus ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, unda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishning qonuniy va xukukiy asoslarini ishlab chikish; maxsus va inklyuziv ta'lim tizimi xamda mazmunini moddiy texnikaviy bazasini yangilash; o'quv-uslubiy taminotini takomillashtirish; pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish; inklyuziv ta'limni joriy etishda jamiyatning faol ishtirokini aminlash matbuot va axborot vositalari orkali targ'ibot-tashviqot ishlarini faol olib borish va boshqa kator masalalar qayd etilgan.

Bu ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida 2003 yilda Inklyuziv ta'lim bo'yicha o'tkazilgan respublika seminarida xorijiy davlatlar ekspertlari, mutaxassislar, olimlar, Xalq ta'limi vazirligi, joylardigi viloyat Xalq ta'limi boshqarmalari va bo'limlarining ta'limga mas'ul vakillari, Tashxis markaz raxbarlari, umumiy va maxsus ta'lim pedagog raxbarlari, jamoat tashkilotlar vakillari va boshqalar ishtirok etdilar.

Ushbu seminar YuNYeSKOning eksperti Vakayto Unversiteti professori David Mitchel (Yangi Zelandiya) ishtirok etib "Inklyuziv ta'limning tashkil etishning asl

mohiyati, umumta'lim tizimida alohida sinflar yoki guruhlar tashkil etish bilan chegaralanib qolmay balki ularni me'yorida rivojlangan bolalar kabi ta'lim olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishdir". Shuningdek inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishda xalqaro ish tajribalari bilan fikr almashdi.

2005 yilning 19 sentabr kuni XTVning 234-sonli buyrug'i bilan «Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom»i tasdiqlandi. Ushbu Nizomda inklyuziv ta'lim tizimining maqsad, vazifalari belgilab berilgan.

“Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim muvaqqat Nizom” asosida Respublikamizda inklyuziv ta'lim tizimining huquqiy-ijtimoiy asoslari yaratildi, nizomning 4 - bandida inklyuziv ta'lim tizimida o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishning quyidagi masalalari qayd etilgan:

4.1. Inklyuziv ta'limni tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan do'stona munosabat ruhi shakllanadi.

4.2. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktablarida Davlat Ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart - sharoitlar yaratiladi (maxsus jixozlangan korreksiya xonasi, maxsus infrastruktura).

4.3. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktablarida tayyorlov guruh va birinchi sinflarida 35 daqiqa va boshqa sinflarda 45 daqiqadan darslar olib boriladi.

4.4. Imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlar bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baholanadi.

4.5. Ta'lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e'tiborga olinadi.

4.6. Korreksion ta'lim o'quvchilarning extiyojlariga ko'ra tabaqalashtirilgan xolda tashkil etiladi.

4.7. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktabiga o'quvchilar ota - onalarning arizasi hamda “Tibbiy - psixologo - pedagogik komissiya”lari xulosalarasosida qabul qilinadi va ta'lim muassasalari rahbarlari bo'yruq'i bilan tasdiqlanadi.

4.8. Inklyuziv ta'lim amalga oshirilayotgan umumta'lim maktabidagi sinflarida integratsiya qilingan o'quvchilar soni 4nafardan oshirilmaydi hamda o'quvchilar umumiy soni 25nafargacha belgilanadi.

Shuningdek, mazkur Nizomda inklyuziv ta'lim ishtirokchilari, inklyuziv ta'lim mutaxassislarining ota - onalar yoki boshqaqonuniy vakillar bilan hamkorligi, xalqaro hamkorlikda qatnashish xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

“Imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlar uchun inklyuziv ta'lim muvaqqat nizomi” asosida Respublikamizda inklyuziv ta'lim tizimining quyidagi huquqiy - ijtimoiy asoslari yaratildi:

-bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashda yoshi, jinsi irqi, millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Konstitutsiyasining moddasiga asosan barcha bolalar umumta'lim jarayoniga kiritish va ijtimoiy hayotga moslashtirish lozimligi belgilangan;

-har bir bola o'zining qiziqishi qobiliyati, va ehtiyojiga ko'ra mos ravishda bilim olishi huquqiga ega;

-ta'lim dasturini ishlab chiqishda va amalga oshirishda o'ziga xoslik va ehtiyojlarning turli-tumanligini nazarda tutish;

-har bir bola uz tengdoshlari qatori bilim olish huquqiga ega bo'lishi;

-bolani ta'limga emas, balki ta'limni bolani ehtiyojiga ko'ra tashkil etilishi;

-bolani muhtojligi va imkoniyatini e'tiborga olgan holda ta'lim metodologiyasini, o'quv rejalarini ixcham bo'lishini qo'llab-quvvatlash hamda baholash;

-inklyuziv ta'lim muammoni bolada emas, tizimda ekanligini aniqlaydi, bolaga qulay shart-sharoit yaratishni ta'minlaydi;

-bolani shaxsiy ehtiyojiga qarab korreksion-pedagogik va ijtimoiy yordamni tashkil qiladi va hokazo.

Yuqorida keltirilgan inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarga tayangan holda bu ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uni amaliyotga joriy etishni jadallashtirish maqsadida 2005 yilning 14-15 dekabr kunlari Toshkent shahrida "Ta'lim hamma uchun" Milliy dasturini joriy qilish bosqichlari" mavzusida yirik xalqaro Konferensiya o'tkizildi. Ushbu konferensiyada xalqaro tashkilotlarning O'zbekistordagi vakolatxonalarining vakillari ham o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. YuNISYeF tashkiloti vakili Reza Xosseyn, YuNYeSKO tashkiloti vakili Bari Layn, "Mesi Projekt" , "Opereyshn Mersi", Kosta Rika davlatlari xalqaro vakillari shular jumlasidandir.

"Ta'lim hamma uchun" Milliy dasturini joriy qilish bosqichlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiyada quyidagi vazifalar muxokama etildi va belgilandi:

-“Ta'lim hamma uchun” umummilliy dasturining mohiyatini targ'ibot qilish;

-Respublikada imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limini tashkil etish bo'yicha ma'yoriy metodik hujjatlarni ishlab chiqish;

-imkoniyati cheklangan bolalarni erta tashxis qilishning zamonaviy uslublarni yaratish;

-psixologo-tibbiy-pedagogik komissiya, Tashxis markazlari, psixologik xizmat faoliyati sanaradorligini oshirish;

-sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy muxofaza vazirligi tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni aniqlash hisobga olish, davolash, ijtimoiy himoyalashborasidagi faoliyatini jonlantirish;

-imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish, ularni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat va nedavlat tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish;

-inklyuziv ta'lim jarayonida uchraydigan to'siqlarni bartaraf etish yo'llari bilan tanishtirish.

Konferensiya nafaqat Respublikamizning soha vakillari, balki qardosh Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya davlatlar vakillari ham ishtirok etib, o'z davlatlarida inklyuziv

ta'lim tizimi modayellari, bu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan konferensiya ishtirokchilarini tanishtirishga muvaffaq bo'ldilar.

“Ta'lim hamma uchun” milliy harakat reja dasturini amalga oshirish bo'yicha erishilgan yutuqlar va muammolar konferensiya kun tartibida quyidagi mavzular bo'yicha guruhlarda ishtirokchilar tomonidan muhokama etildi:

-“Nuqsonlarni ilk tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam ko'rsatish-aloxida yordamga muxtoj bolalar integratsiyasining muhim omili sifatida”.

-“O'zbekistonda aloxida yordamga muxtoj bolalar integratsiyasining milliy modeli”

-“Imkoniyati cheklangan bolalar oilalarining ijtimoiy rehabilitatsiyasi” va shu kabi. Bugungi kunga qadar Respublikamizda o'tkizilgan seminar treninglarda 2000 ziyed ishtirokchilar inklyuziv ta'lim tizimining mazmun mohiyati, uni joriy qilish bosqichlari xususida mukammal ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim olishini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida hal qilish masalalari yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

-korreksion ta'lim strukturasi sifat jixatdan yangilash;

-respublikaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich to'liq integratsiyasiga amal qilish;

-davlat normativ hujjatlariga inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha qo'shimchalar kiritish yoki tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlashni davlat darajasiga olib chikish;

-binoni ularga mos ravishda rekonstruksiya qilish;

-umumta'lim tizimida ta'lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun zaruriy moddiy texnik ba'zani yaratish;

-inklyuziv ta'limni tashabbuskorlik, mehr-muruvvat tarzida tashkil etish;

-maktabning ish faoliyatiga inklyuziv ta'limni amalga oshirish borasida o'zgarishlar kiritish;

-umumta'lim muassasa pedagoglarini inklyuziv ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash;

-barcha pedagogika oliygohlarida va o'rta maxsus o'quv yurtlarida korreksion pedagogik kurslarni kiritilishi;

- korreksion Davlat ta'lim talablari va dasturlarni imkoniyati cheklangan bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirishirilgan, ishlab chiqish;

-umumta'lim, maxsus maktab pedagoglari, ota-onalar uchun o'quv metodik va ilmiy ommabop, ixcham turdagi o'quv adabiyotlar va individual dasturlar yaratish;

-nogiron bolani ilk yoshidan tashxis qilish va korreksion pedagogik yordam berish;

-imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimida umumiy va korreksion ta'lim olishini ilmiy asoslari, standart talablar, o'quv metodik majmualarni yaratish va ta'minlash;

-kasb-hunarga o'rgatish, rehabilitatsiya qilish va bu ishda oilani bevosita ishtirokini ta'minlash kabi bir qator dolzarb masalalarni kelajakda keng qamrovi bajarish uchun davlat tasarrufida muvofiqlashtiruvchi ilmiy-pedagogik resurs markazi, boshqarma, ilmiy laboratoriyalar tashkil qilish kabi tashkiliy, ilmiy-uslubiy, amaliy ishlarni bajarish inklyuziv ta'limni joriy qilish muvaffaqiyatini ta'minlaydi Yuqorida keltirilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limning joriy etilishi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Jumladan; "Ta'lim hamma uchun" dasturining bajarilishi, O'zbekistonda ta'lim olish huquqining qonunchilik asosini:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil; 41-modda)
- "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risidagi" qonun (19,27-moddalar)
- "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (1997 yil, 22, 23-moddalar)
- "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun (2008 yil; ta'lim olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlari, 28, 29-moddalar)
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (o'quvchilarni qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq o'qitishga differension yondashuv)
- "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi (4.2-modda), "Yoshlar yili" Davlat dasturi.
- "Sog'lom avlod" davlat dasturi (2000 yil)
- "Ijtimoiy himoya yili" davlat dasturi (2007 yil)
- "Barkamol avlod yili" davlat dasturi (2010 yil) va boshqalar

Inklyuziv ta'limning barqarorligini ta'minlash maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan.

O'zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni rivojlantirish bo'yicha siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasining muhim omili sifatida tan olinishi;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida barcha strategik kuchlar, davlat va nodavlat tuzilmalar, keng jamoatchilikning jisplashishi;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limning hamma uchun ochiqligi, ta'lim tizimining o'quvchilarning rivojlanish salohiyatlari, o'ziga hos xususiyatlari hamda ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiyalash maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun maxsus o'quv rejalari, o'quv-uslubiy komplekslar ishlab chiqish;

- o'quvchilarda tevarak-atrofdagilar, tengdoshlari bilan o'zaro ijobiy munosabatlarning o'rnatilishi, atrofdagi kishilarda kommunikabellik va bag'rikenglikni rivojlantirish;

- imkoniyatlari cheklangan bolalarni ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qaratilgan sifatli ta'lim olishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

O'zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlar bajarilishiga yo'naltiriladi:

- bolaning o'ziga xos ta'limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash;

- o'ziga xos ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta'limga jalb etish;

- imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;

- imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- inklyuziv ta'lim muhitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirish;

- uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lim vositalari yordamida qo'llab-quvvatlash;

Mazkur maqsadlarga erishish, quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqozo etadi:

- imkoniyatlari cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish;

- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni uning barcha pog'onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning me'yoriy huquqiy jihatdan ta'minotini ta'lim siyosatining maqsad va vazifalariga moslashtirish;

- bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishning davlat tomonidan kafolatining amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;

- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish;

- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishini ta'minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish;

- O'zbekistonning bu faoliyatga davlat, jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalarni keng jalb qilishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning davlat-jamoatchilik mexanizmlarini rivojlantirish;

- mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim holati va rivojlanish tendensiyalarini monitoring qilish tizimini yaratish;

- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasida o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, jamoa tashkilotlari xodimlari uchun o'quv metodik majmualar va ommabop adabiyotlarni yaratish;

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo'lsin, hoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlar bo'lsin, hoh uyda ta'lim olish bo'lsin – o'qitishning barcha shakllari–ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moshlashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Biroq, ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasining huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o'rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo'lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o'qitish va ularga mos keladigan ta'lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi. Shunday qilib, o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolaning umumta'lim sohasiga samarali jalb qilinishi uchun quyidagilar zarur:

- bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korreksion tadbirlarni erta yoshdan boshlash
- umumiy ta'limga jalb qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, 7a'ni mutaxassislarining doimiy yordamini tashkil etish;
- ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog'lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta'lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta'minlash;

Bolaning ta'lim tizimiga jalb qilinishining biror ko'rinishi u uchun oddiy va foydali bo'lishi dastkor, ayni paytda bu inklyuziv ta'lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarning sifatli ta'lim olishiga halaqit bermasligi lozim.

Shuningdek, ushbu hujjatlar asosida **2003 yilda** Respublikamizda “Talim hamma uchun” Milliy dasturi ishlab chiqildi. “Ta'lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YuNYeSKOning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan **2000 yilgi** Dakar shartnomasiga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. Mazkur rejada O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi –“Ta'lim hamma uchun” Milliy Rejasining konseptual o'zagi asosida isloh etish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. YuNYeSKOning “Ta'lim hamma uchun” loyihasiida bayon etilgan mezonlarga muvofiq ta'lim sohasidagi muammolar Rejada alohida quyidagicha yoritilgan.

Umumiy qoidalar.

HMR-THU tayanch tamoyili (shaxs ustuvorligi)ga tayangan bo'lib, har bir go'dak, o'smir va yoshi katta inson o'zining tayanch ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini so'zsiz tan oladiki, ushbu tushuncha eng yuqori va to'la ma'noda qoniqish, yangi dunyoni bilishga o'rganish, harakat qilish boshqalar bilan

birgalikda yashash va kun ko'rish imkonini beruvchi ta'lim olish huquqiga egadir. Shuningdek, HMR-THUning maqsadi-har bir insonning iqtidori va imkoniyatlarini ochish, o'qiyotganlar shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlashdir, toki odamlar o'z hayotlarini yaxshilab, o'z jamiyatlarini tuza olsinlar”

Bundan tashqari ushbu Rejaning III.9 qismi “Maxsus ehtiyojli bolalarni o'qitish”, deb nomlangan bo'lib, unda maxsus ta'lim tizimining bugungi kundagi barcha jabhalarining ahvoli yoritib o'tilgan.

Shuningdek, VI. Band ham maxsus ta'lim xususida bo'lib unda quyidagicha bayonot qilinadi:

1). Qonunchilik va me'yoriy huquqiy bazani takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirildi:

a. “Rivojlanishda jismoniy va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning uzluksiz ta'limi to'g'risidagi Nizom”ni tasdiqlash;

b. “Maxsus ehtiyojlari mavjud bolalarni xonadonlarda o'qitish” to'g'risida Nizom ishlab chiqish;

c. Maxsus yordamga muhtoj bolalar korreksion ta'limi davlat standartlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash va boshqalar.

2). Maxsus ta'lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish bandining bosh masalasi inklyuziv ta'lim tizimidir:

a. bolalar bog'chalari va maktablarida inklyuziv ta'lim strategiyasini amalga oshirish. Umumta'lim maktab o'qituvchilari bilan maxsus maktab o'qituvchilarining hamkorlikda ishlashiga erishish;

b. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalarni harakatlantiruvchi mexanizmlarini asoslash va qonuniy tasdiqlashni ko'zda tutish maqsadga muvofiq.

c. imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning skrining holatini aniqlash. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim maktablariga jalb etishda ulardagi nuqsonlarning turi va darajasi, shu hududda sharoitlardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Tashxis markazlari xodimlari ish faoliyatiga bog'cha va maktablarga inklyuziv ta'lim strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatini kiritish kabilar.

IX. yo'nalishning IV. bandi inklyuziv ta'lim tizimini o'quv uslubiy tomondan takomillashtirish xususida bo'lib, unda quyidagilar bayon etilgan:

a. oddiy sinflarda maxsus ehtiyojli bolalarni o'qitish rejalari, baholash va sinfdan sinfga o'tkazish tizimini soddalashtirish;

b. maktablarning darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, dasturlarga ehtiyojini aniqlab, mazkur adabiyotlarni yetkazib berish, darsliklar mazmunini takomillashtirish (2003-2005 yillar);

c. inklyuziv maktab o'qituvchilari va o'quv rejalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, ta'lim standarti, shuningdek maxsus ehtiyojlari mavjud bolalarning oddiy sinflarda bilim olishlarini nazarda tutadigan ixcham va o'zgaruvchan rejaralar tuzish (2005-2010);

d. inklyuziv maktablar o'quvchilari va ota-onalar uchun uslubiy qo'llanmalar, o'qituvchilar uchun o'quv materiallari tayyorlash va ta'minlash.

Tahlil natijasi shuni ko'rsatdiki, "Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasi har tomonlama mukammal tuzilgan. Reja dasturning V bandi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish" deb nomlanadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish yuqori malakali kadrlarsiz samarali kechmaydi. Jumladan, dasturda "Umumiy ta'lim muassasalari pedagoglarini inklyuziv ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash. Barcha gumanitar o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'lim asoslari bo'yicha kurs kiritish (2003-2005)" kabi masalalar e'tiborin olgan.

"Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasida yuqoridagilardan tashqari inklyuziv ta'lim tizimini joriy etishning moddiy - texnika bazasini mustahkamlash, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishda qo'ndiruvchi va me'yoriy bazani takomillashtirish, inklyuziv ta'limni joriy etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish zaruriyati va boshqa masalalar ham qayd etilgan. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalash hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga ega. Psixologo - Tibbiy -pedagogik komissiyaning tavsiyasi bilan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning ota-onalari o'z xohish istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasaturini tanlash huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda qonun hujjatlari bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin, deb belgilab berilgan. Xulolsa qilib aytganda yuqorida keltirilgan barcha me'yoriy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy qilishning huquqiy asoslari yaratilgan.

3.2. Inklyuziv ta'lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo'l va omillari

Inklyuziv ta'lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo'l va omillari quyidagilardan iborat: Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatdan dustona munosabatiruxiy shakllanadi.

- Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umumta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart - sharoitlar yaratiladi (maxsus jixozlangan korreksion xonasi, maxsus texnik vositalar).
- Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umumtalim maktablarida tayyorlov guruhi va birinchi sinflarda 35 daqiqa, yuqori sinflarda 45 daqiqadan darslar olib boriladi.

- Imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baxolanadi.
- Ta'lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e'tiborga olinadi.
- Korreksion ta'lim o'quvchilarning extiyojlariga ko'ra tabaqalashtirilgan holda tashkil etiladi.
- Inklyuziv ta'lim amalga oshirayotgan umumta'lim maktabiga o'quvchilar ota-onalarning arizasi hamda "psixologo - pedagogik komissiya"lar xulosalari asosida qabul qilinadi va ta'lim muassasalarining rahbarlarining buyrug'lari bilan tasdiqlanadi.

Inklyuziv ta'lim amalga oshirayotgan umumta'lim maktabdagi sinflarda integratsiya qilingan o'quvchilar soni 3 - 4 nafardan oshirilmaydi hamda o'quvchilarning umumiy soni 25 nafargacha belgilanadi

Yuqorida qayd etilgan va amalga oshirilgan ma'lum darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo'lgan quyidagi muammolar ham mavjud:

- -ota-onalar uchun nogiron bolalarni o'qitish tizimi, inklyuziv ta'lim tizimi haqidagi o'quv qo'llanmalarining tanqisligi;
 - -maxsus ehtiyojli bolalarni uyda yakka tartibda o'qitish uchun maxsus mutaxassislarning yetishmasligi, yordamchi - texnik vositalar bilan ta'minlash tizimining joylarda talab darajasida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
 - -imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasasida o'qitish uchun ho'quqiy bazani qayta ko'rib chiqilmaganligi;
 - Sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (35-40)
 - umumta'lim muassasalarining binolari imkoniyati cheklangan bolalarni ng xususiyatlariga mos ravishda qo'rilmaganligi;
 - umumta'lim muassasalarida bolalarni psixologo - tibbiy - pedagogik yordamni olish imkoni yo'qligi;
 - umumta'lim muassasalari pedagoglari maxsus metodikalarni bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus extiyojlarini qondira olmasligi;
 - umumta'lim muassasalarida tiflo, surdotexnik vositalar mavjud emasligi;
- Umumta'lim pedagoglari, maktab rahbarlarini maxsus ta'lim buyicha qayta tayyorlovdan o'tmaganligi va umumta'lim maktablarini qo'shimcha kadrlar
- (logoped – maxsus pedagog, psixolog – ijtimoiy pedagog) bilan ta'minlanmaganligi integratsiyani amalga oshirish uchun salbiy munosabatni keltirib chiqmoqda;
 - -nogiron bolalar oilasi bilan maktabning uzviy aloqasi yo'qligi;
 - -nogiron bolalarning maktabga kelishi uchun transport bilan ta'minlash masalalari;
 - -chekka qishloqlardagi tashxislarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

- -nogironlar aravachalari, qo'ltiq hassalar, eshituv apparatlari, ko'zoynaklar, travmatologik poyafzallarning yetishmasligi;
- -davlat tomonidan kasb-hunarga yo'naltirish, ish bilan ta'minlash, muammolari to'laqonli hal qilinmaganligi;
- -nogiron bolalarga qarovchi ota-onalar uchun nafaqaning yo'qligi;
- -tevarak-atrof muhitining nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabati;
- -nogiron bolalar bilan ishlash mahallalarda yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va nodavlat-notijorat tashkilotlarning faoliyati yetarli emasligi;
- -nogiron bolalarning ota-onalarida huquqiy bilimning yetarli emasligi va davlat tomonidan belgilangan imtiyozlarni bilmasligi;
- -ta'lim muassasalari uchun kadrlarning yetarli emasligi;
- -inshatlarning maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilmaganligi;
- -malaka oshirish tizimida umumta'lim pedagoglarini maxsus ta'lim yo'nalishi bo'yimkoniyati cheklangana qayta tayyorlash ishlari talab darajasida emasligi va.h.k

Chunonchi maktabda va maktabgacha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalarga korreksion - pedagogik yordam ko'rsatmasdan, oilalar bilan muloqotda bo'lib turmasdan, maxsus o'quv adabiyotlari bilan ta'minlamasdan ular uchun alohida sharoit yaratmasdan turib integratsiya yoki inklyuziv ta'limni amalga oshirish ijobiy natija bermaydi.

-Imkoniyati cheklangan o'yg'unlashuvi, ularni ilk yoshdan agniqlash, tashxis qo'yish, ta'lim olishi uchuntegishli o'quv tarbiya muassasalaiga yo'llash, uzliksiz maxsus ta'limning muqobil turlarini rivojlantirish zaruriyati mavjud. Psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olishi uchun shart - sharoitlar yaratish, umumta'lim muassasalarida ta'lim - tarbiya olayotgan, uy sharoitida o'qitilayotgan bolalar ta'lim mazmunini ularning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda belgilash, individual dasturlarni ishlab chiqish, ota - onalar va pedagoglar uchun inklyuziv ta'lim yo'nalishida o'quv - metodik adabiyotlarni ishlab chiqish ta'limga zamonaviy pedagogik, axborot - texnologiyalarni jalb qilish, internet tarmoqlari orqali masofada o'qitishni tashkil etish jamiyatimiz va mutaxassislar oldida turgan muxim vazifadir.

-Respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga korreksion - pedagogik yordam ko'rsatishning markazlashtirilgan bazasini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish.

-- Psixik va jismoniy rivojlanishida kamchiligi bulgan bolalarni uzliksiz inklyuziv ta'lim sharoitida o'qishi va rivojlanishini ta'minlovchi m'eyoriy-uslubiy bazani mustaxkamlash

-Nogiron bolalarni ta'limga jalb qilinishi uchun, jamiyatga uzliksiz inklyuziv ta'limini milliy moddi - konsepsiyasini, nizomini takomillashtirish va tasdiqlash.

-Metodik najmualar (individual rivojlantiruvchi dastur, darslik, o'kuv reja metodik qo'llanma; va mashg'ulotlar ishlanmalari, tavsiyalar) yaratish; - Yangi tahrirdagi DTSlarini maxsus ta'limga moslashtirish;

imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim maktablarida ta'lim olishlarini nuqson turiga ko'ra(ko'rish, eshitish, aqliy va nutqiy rivojlanishini)

e'tiborga olgan holda individual - rivojlantiruvchi variativ o'quv reja - dasturlarini ishlab chiqish;

-Inklyuziv ta'limni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy ta'minot va xususiy manba'lardan foydalanishni kengaytirish;

-Inklyuziv maktab uchun kerakli moddiy-texnik ba'zani o'rganish bo'yicha takliflar kiritish.

- Zarur bo'lgan yordamchi texnik vositalar bilan ta'minlash masalalarini davlat, davlatdan tashqari budjetlar (xorijiy investitsiyalar, grantlari) asosida amalga oshirish.

Umumta'lim, maxsusta'lim pedagoglarini hamkorlikda faoliyat ko'rsatishini amalga oshirish va imkoniyati cheklangan hamda soglom tengdoshlari orasida dustona munasabatni shakillantirish.

- Ommaviy axborot vositalari orqali aloxida xztiyojli bolalar integratsiya va inklyuziv ta'limi xaqida chiqishlar tashkil etish.
- Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining psixologiya, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, defektologiya yo'nalishlarida ta'lim oluvchi talabalar, uchun inklyuziv ta'lim soxasi bo'yicha maxsus kurs, seminar dasturlarini va metodik qullanmalar ishlab chiqish, seminarlar o'tkazishll

Aravacha yuradigan yoki xassa va boshka moslamalar orkali xarakatlanuvchi bolalar uchun sinfdagi xarakatlanish joylarini yetarli ekanligiga ishonch kilish uchun kuyidagilarga e'tibor bering:

• Kurish va eshitish kiyinchiliklarida ega bolalar gilam va partalar orasida butun sinf faoliyatida ishtirok eta oladigan tarzda utirganlariga ishonch xosil kiling.

• Ta'lim olishda kiyinchilikka uchraydigan va bunda ta'lim olish imkoniyatlarini kullay olishlariga ishonch xosil kiling.

• Turli xil tibbiy muammolarga ega bolalarning ayrimlari tez-tez ovkatlanish, suyuklik imkoniyati cheklanganish yoki boshkalgara karaganda kuprok borish extiyojiga ega buladilar. Bunday bolalar uzlarini nokulay xis etmasliklari uchun zarur shart-sharoitlarini yaratishga e'tibor karating.

• Uzak muddatlik tik tura olmaydigan bolalar xam e'tibordan chetda koldirmang. Agar bolaga diqqatni jamlash yoki kurinmas yashirish (autizim yoki giperfaollik natijasida dikkatning yetishmasligi) natijasida tinch utirishga kiynalsa, boshka ukuvchilar aytilgan vazifalar bilan mashgulot bulsalar xam dikkati tarkok ukuvchilarning bir nafas dam olishlariga imkon bering.

Maxsus (korreksion)muassasalarni ko'p yillar davomidagi faoliyatidagi ta'lim jarayonida aloxida ta'lim olishga extiyoji bo'lgan nuqsonli bolalarni o'qitishda kurgazma ia boshqa vositalar qo'llanib kelingan, lekin bu tajribani mexanik ravishda umumta'limga o'tkazish mumkin emas. Chunki ta'limning maqsadi va uning vazifasi , yondoshuvi va metodi turli - xil.

Ammo bu vaziyatdan chiqishni iloji bor; imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim jarayoniga bosqichma - bosqich kiritishning tizimini kiritishning tizimini ishlab chiqish kerak. Bunda avval tashkil qilinib faoliyat ko'rsatib kelayotgan maxsus (korreksion)

Uzbekistonda maxsus ta'limi tizimi rivojlangan bo'lib imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlar ta'limini davr talabi darajasida samarali takomillashtirishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilib, davlat qonunlarda o'z ifodasini topgan. Respublikanizda imkoniyati cheklangan bolalar nuqson turiga ko'ra maxsus maktab, maktabga cha ta'lim muassasalarida ta'lim olishi tashkil qilinib kelgan. Ushbu ta'lim muassasalarida bolalarni o'qitish uchun qulay sharoitlar yaratilgan va tibbiy - psixologo - pedagogik yordam mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Kam ta'mirlangan oilalar mexribonlik uylari, uyda yakka tartibda ta'lim olayetgan nogiron bolalar ta'lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, moddiy bazasini yaxshilash, ularni ta'lim olishi uchun zarur bulgan shart sharoitlarni yaratish xamda ukuv kurolar, maxsus yerdamchi vositalar, dastur, darsliklar bilan ta'minlanishi birmuncha faollashib, turli chora tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu ta'lim muassasalarida bolalarni aloxida o'qitilishi uzoq yillardan beri davom ettirilib kelinmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlaridan ajratilib o'qitilishi natijasida ularning ishga joylashishi, boshqa maktabni bitiruvchi tengdoshlariga nisbatan a'cha past foizni tashkil etadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom bolalar bilan birgalikda maktablarda o'qitish ularni jamiyatga faol integratsiyadashning alternativ bir turidir.

Inklyuziv o'qitish masalasi butun Jahon hamjamiyatida tan olingan va xayrixoxlik bilan amalga oshirilishi ta'lim siyosatining eng asosiy yo'nalishidir.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan ta'lim olishida qiyinchiligi bo'lgan yanii maxsus e'xtiyajli bolalar va usmirlarni maxsus muassasalarda ta'lim olishi bilan bir qatorda ularni kobiliyat va imkoniyat darajasini e'tiborga olgan xolda umumta'lim muassasalarida integratsiya va inklyuziv usulda ta'lim tarbiya olishiga xam e'tibor berilmokda. O'zbekiston respublikasining davlat qonunlari, me'yoriy xujjatlarda ush bu masala qayd etilgan. Lekin savol tug'iladi: har bir sog'lom yoki nogiron shaxs va har bir O'zbekiston fuqarolari imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitilishiga tayyormi?

Gender ijtimoiy - siyosiy markaz tomonidan hr - xil toifadagi axoli guruxlari urtasida otkazilgan surovnomalarda umumta'lim tizimida bolalarning birgalikda o'qitilishig jamiyatning munosabati va tayyorligi qaydarajada ekanligini aniqlashdan iborat edi. O'rganish natijasida shu narsa aniqlandiki O'zbekistonda istiqomat qiluvchi fuqarolarning ko'pchiligi ya'niy 62% nogiron bolalarni maxsus maktablarda o'qitilishi kerak deb ta'kidlashgan. Bunday aloxida o'qitish tarafdorlarini ko'pchiligiin eshitishida va ko'rishida nogironligi bo'lganlar. Lekin tayanch - xarakati a'zolari falajlangan nogiron bolalarning har bir 4 sidan biri umumta'lim maktablarida o'qish tarafdorlari. Gender va siyosiy, ijtimoiy tadqiqot markaz ekspertlarining tadqiqoti xulosasiga ko'ra an - anaviy shakllangan maxsus ta'lim muassasalar pedpogglari bilan xisoblashish zarur deb ta'kidlaydi. Agarda ota - onalar nogiron bolalarini umumta'lim maktablarida o'qitishni xoxlashsa, ular banday huquqlarga egadirlar. Bu borada xalqaro va mahalliy ekspertlar fikricha, imkoniyati cheklangannogiron bolani umumta'lim maktabida o'qishi nafaqat ota - onalar uchun

shuningdek davlatga ham foydali. Chunki maxsus ta'limga ajratilgan moliyaviy budjet nogiron bolalarni umumta'lim maktablarda o'qitishiga qaraganda birnecha bor oshadi. Hatto umumta'limni nogironlarga qulay qilib qayta jixozlash yoki ta'mirlashga sarflaydigan mablag' maxsus ta'limga ajratiladiganga nisbatdan ancha kam. O'tkazilgan surovnomalardan ma'lum bo'ldiki maktab, kolledj va oliy ta'lim tizimini qurilishi nogiron o'quvchilarni qabul qilishga tayyor emas, chunki infratuzilmalar: yulakchalar, binolarga o'rnatilgan qurilmalar, zinapoyalar, maxsus yordamchi texnik vositalar (kompyuterlar), maxsus individual rivojlantiruvchi dasturlar, darsliklar yetishmaydi. Mavjud bo'lgan muammolar bilan bir qatorda uni yechimi ham asta sekin hal qilinmoqda.

Halqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim strategiyasini rivojlantirish ko'p muddatli vaqtni talab qiladi. Bu ta'limni rivojlantirish uzliksizlikni va uni tadbiiq qilishga bosqichma – bosqich kompleks yondashuvni amalga oshirish kerak.

Inklyuzivning muvaffaqiyati, muttaxasislarning fikri bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalarni qayerga borib o'qishiga va inklyuziv ta'lim dasturiga bog'liq. Eng avvalo inklyuziv ta'lim davlat ishi bo'lishi kerak. chunki ta'lim olishga imkoniyati bo'lmagan aloxida extiyojli shaxslar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayondan tushib qoladilar. Xukumat ularga tenglik imkoniyatini ta'minlashi kerak. Shuni aytish joizki inklyuziv ta'lim nogironlar uchun zarur. \

Inklyuziv ta'limga o'tish masalasi O'zbekistonda ratifikatsiya qilingan bolalar huquqlari va nogironlar huquqlari tug'risidagi konvensiyaga asoslanadi. Ammo inklyuziv ta'limga o'tishga, bunday yondashuv uchun nafaqat mos keladigan huquqiy bazani --yaratish va shuningdek zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishga;

--kadrlarni tayyorlash;

--nogironlarni kasbiy rehabilitatsiyasini ta'minlash;

--jamiyatni to'g'ri va ijobiy fikrlashiga;

--davlat ta'lim standartlarini moslashtirish va tasdiqlash kabi

Inklyuziv ta'lim isloxotini amalga oshirish uchun normativ bazasini mustahkamlash, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalarida ta'lim olishini ta'minlash uchun pedagoglarni malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini jadallashtirish va samaradorligini oshirish, inshootlarni moslashtirish kabi bir qator dolzarb muammolarni hal qilishga bog'liq.

Yuqorida ko'rib chiqilgan inklyuziv ta'lim to'g'risidagi zarur tushuncha va fikrlar integratsiya ta'limini amaliyotga tadbiiq qilishda foydali bo'lishi mumkin. Olib borilgan surovnomalar tahlili imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim maktablarida o'qitish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

-- Chunonchi umumta'lim muassasalari sharoitini imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirib ta'lim va tarbiya berish natijasida bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar shakllanib boradi. Bunday bolalar va usmirlarning ijtimoiy jamiyatga erta va to'laqonli moslashuvlari ta'minlanadi.

Inklyuziv ta'limni O'zbekiston Respublikasida joriy qilishning yana bir afzallik tomoni shundaki, maxsus ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan joylarda ham

imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim tizimiga to'liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratiladi.

Inklyuziv ta'limni joriy qilishdagi amaliyotdagi mavjud muammolarni hal etish uchun uning mazmuniga oid masalalarni oydinlashtirish lozim:

1. Inklyuziv maktab pedagog va psixologlariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Resurs markazlari nima?
3. Resurs o'qituvchi kim?
4. Ota-onalarning ishtiroki qanday?
5. Individual rivojlantirish reja-dasturi nima?
6. Sinf, o'qishda nimalarga e'tibor beriladi?

Inklyuziv sinf o'qituvchilari rivojlanishida u yoki bu darajada muammolari bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari haqida keng tushunchaga ega bo'lishlari, ta'lim jarayonida interfaol usullarini qo'llay olishlari, resurs o'qituvchi hamda otalar bilan mustahkam aloqa o'rnatishlari lozim.

Psixolog bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib individual va guruhlarda ishlashni majallashtiradi. Psixologning asosiy vazifasi bolaning bilish va xissiy-irodaviy rivojlanishi bilan bog'liq reja-dastur bo'limlariga javob berishdan iborat.

Resurs markazlari har bir tuman xalq ta'limi boshqarmasi tarkibidagi bo'lim. Bu bo'limning faoliyati inklyuziv maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish, boshqarish, amaliy va moddiy yordam ko'rsatishdan iborat.

Resurs o'qituvchi bola bilan darsda va undan tashqari vaqtda dars jarayonida olganlarini mustahkamlash, korreksiya ishlarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus defektologik ma'lumotga ega o'qituvchi.

Ota-onalarning ishtiroki qanday? Bizning modelda ota-onalar nafaqat ko'maklashuvchi, balki asosiy figura. Ular bolani uyda bo'lgan vaqtlarida barcha faoliyatga jalb etishlari, sekin-asta nafaqat atrofdagilarning, balki barchaning uning rivojlanishidagi muammoga oddiy holdek munosabatda bo'lishlariga, turfaliklarni yengishga olib keladi. O'quvchi sifatli ta'lim olishi huquqiga ega bo'lish uchun, maxsus ta'lim sharoitlari yaratilishi, o'qishdagi qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'quvchi maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan shaxs deb qaralishi muhim.

Ta'lim ishtirokchilari o'quvchilarning maktabdagi barcha o'quv-tarbiyaviy jarayonda muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini kafolatlash maqsadida har bir o'quvchi uchun individual rivojlantiruvchi reja-dastur tuzishlari lozim.

Individual rivojlantiruvchi reja-dastur imkoniyati cheklangan o'quvchilari faoliyatining mazmunini yoritishga yo'naltirilgan hujjat. Bu hujjatda korreksion-rivojlantiruvchi dasturining oxirida bola holatining kompleks bahosi beriladi. Individual rivojlantiruvchi rejani ishlab chiqishda fan o'qituvchilari, alohida e'tiborga muhtoj bola bilan individual mashg'ulotlarni olib boruvchi (mutaxassis defektologlar, psixologlar, tarbiyachilar va ota-onalar bevosita ishtirok etadi) barcha mutaxassislar ma'suldir. Individual rivojlantiruvchi dasturni yozishda maktab

rahbari ham ishtirok etadi. Maktab rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Shuningdek, individual rivojlantiruvchi reja-dasturni bajarish bo'yicha mas'ul mutaxassis tayinlanadi. Mas'ul mutaxassis rejadagi har bir bo'limning o'z vaqtida bajarilishini ko'zatiib borishi va mutaxassis jamoasini umumiy ish faoliyatini muvofiqlashtirib borishi lozim.

Maxsus ehtiyojli bolalarni individual-korreksion rivojlantirish reja-dasturi turli ta'lim muddatiga tuzilishi mumkin. Bu muddat bolaning rivojlanishda orqada qolganlik darajasi (kamchiligini tuzilishi)ga, hamda ota-onaning intilishi va bilim darajasiga bog'liq. Odatda bolalarni individual korreksion-rivojlantirish reja-dasturi bo'yicha o'qitish muddati yarim yildan bir yilgacha muddatni tashkil qiladi. Biroq ushbu muddat oralig'ida zaruratga ko'ra individual rivojlantirish reja-dasturiga tegishli o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Shu vaqtdan e'tiboran ushbu dastur bolaning shaxsiy yig'ma jildida va korreksion ta'limni olib borayotgan har bir pedagogda saqlanadi. Individual rivojlantirish reja-dasturi bola rivojlanishining barcha asosiy sohalarini qamrab olishi kerak:

- nutqiy
- ijtimoiy-iqtisodiy
- jismoniy va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish
- davolash va tibbiy rehabilitatsiya.

Bunda mas'ul mutaxassis bolaga korreksion yordam ko'rsatilayotgan davr mobaynida, bo'lib o'tgan barcha voqea hodisalarga tavsif berib boradi, bu vaqt davomida individual rejaga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalarni, ularning sabablarini ko'rsatgan holda yoritib boradi. Bola holatining qayta baholash jarayonida bolaning ota-onasi, uning o'zi bilan suhbat o'tkaziladi, uslubchi va tibbiy-pedagogik-komissiya mutaxassislarining fikri so'raladi. Nihoyat, dastur maqsadlari qay darajada bajarilganligini ko'rsatuvchi ballar ko'rinishidagi baho qo'yiladi.

Dasturga kiritilgan barcha o'zgarish va qo'shimchalar ularning sababini ko'rsatgan holda yozib boriladi. O'tkazilayotgan korreksion bosqichlarda sodir bo'layotgan uzilishlar sanalari va ularning sabablari ko'rsatiladi.

Pedagog bolaning bilimi va faoliyat turlari (bu o'rinda pedagog bolaning sensor rivojlanishi, atrof muhit haqidagi ma'lumot darajasi, o'yin, mehnat, tasviriy sanat sohasidagi faoliyatining rivojlanish darajasini ko'rsatib o'tadi, bolaning barcha imkoniyatlari va ehtiyojlarini qayd etadi); o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari, pedagog bolani psixofizik rivojlanishini baholash paytida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish darajasini aniqlaydi.

Individual rivojlantiruvchi reja-dastur asosida kundalik ish rejasi tuziladi va haftada bir marta o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Korreksion rivojlantiruvchi vazifalar: kamchilikni o'rmini to'ldirish, bolani ijtimoiy atrof muhitda moslashuviga erishish.

Ta'limiy vazifalar: bolalarni ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirishiga o'rgatish, ularni bilish faolligini rivojlantirish, har bir bolaning yoshiga mos bo'lgan, bolalar faolligining barcha turlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy vazifalar: bolani ijtimoiy muhitga moslashtirish, oilada mustaqilligini oshirish, maktabgacha va maktab yoshi davrida faoliyati va xulqida ma'naviy-ahloqiy me'zonlarini tarkib toptirish, shuningdek ijobiy, insoniy faoliyatni tarbiyalash va hokazo.

Individual rivojlantirish reja-dasturi korreksion-rivojlantiruvchi ta'limni olib borgan mutaxassisning xulosasi bilan tugallanadi.

O'rganilgan asosida bolalar bilan kundalik faoliyatlarni rivojlantirishda pedagoglar jamoasi nimani bajarish, kim uni bajarishi kerak, qachon uni bajarish kerak va ushbu faoliyatni muntazam ravishda bajarish uchun muhim bo'lgan omillarni belgiladik:

Birinchiidan: Hamkorlikdagi ta'limni amalga oshirib borish lozim. Ya'ni bunda nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar va albatta, o'quvchilarning faolliklariga, ularda shaxsiy javobgarlik xissini rivojlantirishimiz lozim. Barcha bolalar alohida e'tiborga muhtoj o'quvchilarga vazifa va topshiriqlarni bajarishda yordam berishda qatnashishlari lozim. Bolalar ta'limda faol qatnashishlari jarayonida, ya'ni hamkorlikka asoslangan ta'limda a'lo darajada o'rganadilar. Shuningdek, faoliyatlar haqiqiy hayotiy misol va tajribalariga asoslanganda, a'lo darajada o'zlashtiradilar, chunki ular o'z bilimlarini yanada samarali ravishda qo'llashlari mumkin. Shu bois o'qituvchilar darslarni rejalashtirayotganlarida bunday uslublarga tayanishlari lozim.

Ikkinchiidan: O'qitishni samarali tashkil etishimizda o'quv materialini o'quvchilar tushunyaptilarmi yoki yo'qmi, uni kuzatish muhim o'rin egallab, kelgusida nimani bajarish va o'qitishni qanday takomillashtirish haqida fikr yuritishimiz imkoniyat yaratiladi.

Hamkorlikka asoslangan guruh ishi barcha o'quvchilarga ularning tushunchalarini oshirish, rohatlanishni rag'batlantirish hamda ishga va o'zlariga nisbatan ijobiy munosabatlar orqali yordam beradi. Bunday ta'limda o'quvchilar ijobiy so'zlashish va faol eshitish mahoratlarini rivojlantiradilar. Ayrim o'qituvchilar haqiqiy ta'lim faqat o'qituvchi orqali bo'ladi, deb o'ylaydilar. Shunday ekan, biz jarayonga hamkorlikka asoslangan ta'lim uslublarini kiritishni maqsad qilgan holda, o'qituvchilar uchun mazkur mavzulardagi o'quv seminarlarini tashkil etishni yo'lga qo'yib borishimiz lozim.

Uchinchiidan: Ta'lim jarayoniga turfalikni kiritib borish muhim. Turfalik - bu xuddi barcha bolalar bir xil bo'lganiday, butun sinfga o'qitishning bir xil usulidan ko'ra ma'lum bir bolaning yoki bolalarning kichik guruhining o'rganish ehtiyojlariga murojaat qilishdir. Turfalik o'qituvchilar va bolalar, materiallarni, bolalarni guruhlashni, o'rganishni baholash usullarini va sinfxonaning boshqa elementlarini shaxsiy va butun sinfning yutug'ini qo'llab-quvvatlovchi turlicha usullardan foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlarni nazarda tutadi. Nimani turfalash mumkin? Avvalo, ta'lim mazmunini. Mazmun dalillardan, tushunchalardan,

umumlashtirishlardan yoki qoidalardan, munosabatlardan va predmetga tegishli mahoratlardan hamda o'rganilayotgan mavzudan tashkil topadi. Mazmun o'qituvchi bolalarning o'rganishi uchun nimani rejalashtirishini, istalgan bilimni, tushunchani va mahoratlarni haqiqatda bola qanday o'rganishini ham o'z ichiga oladi. Mazmunli o'rganish borasida o'qituvchi turlicha imkoniyatlarni berishi mumkin bo'lgan usullarning ayrimlari quyidagilardir⁴⁰:

- bolalarning yangi matematik yoki ilmiy tushunchalarni tushunishlariga yordam berish uchun o'quvchilar bilan predmet, jismlardan foydalanish;
- birgina o'qish darajasidan ko'ra ko'proq matnlardan foydalanish;
- matn materiallari bilan ishlayotgan bolalarni qo'llab-quvvatlash va qiyin bajariladigan masalalar uchun turlicha o'quvchilarning hamkorligi sharoitlaridan foydalanish;
- qiyin o'zlashtirishi kuzatilgan, namoyishga ehtiyoj sezgan bolalarga metod tanlash va qaytadan o'qitish;
- turlicha o'quvchilarga asosiy tushunchalarni yetkazib berish usullari sifatida matn, magnitofon, videolardan foydalanish (multimediya).

Agar bolalarga mazmunli bo'lgan va qiziqarli o'quv dasturlarini yaratsak, shunda ularni qiziqтира olamiz va dars jarayonlariga ishtiyoq bilan qatnashadilar. Shuningdek, agar bolalarga e'tibor berilmasa yoki ularga g'amho'rlik ko'satilmasa, ular yomon xulq-atvoriga ega bo'lishlari mumkin. Ayniqsa, agar ular uyda yetarli darajada g'amho'rlik yoki e'tiborga ega bo'lmasalar, ular e'tiborga muhtoj bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, biz (kattalar sifatida) ayrim xulq-atvorlarni qabul qilmasligimiz mumkin, biroq bu bolani shaxs sifatida qabul qilmaslikni aslo anglatmasligi lozim. Boladan yomon xulq-atvorni ajratib olish muhim.

To'rtinchidan: Maktab, sinf va o'quvchilar jamoalarida bir-birini xurmat qilish qoidaloriga amal qilishlari zarur.

Ma'lum bir xulq-atvor muammosiga sabab bo'luvchi narsalarni aniqlash uchun biz ajoyib kuzatish va qayd qilish mahoratlariga ega bo'lishimiz zarur.

Beshinchidan: biz bolalar faol ravishda jalb etilgan va rag'batlantirilgan muhitni yaratishimiz zarur. Bu barcha bolalarni kuchli va teng o'qitishdir. Shuningdek, bu - o'qituvchi har doim nazorat qiluvchi shaxs emasligini anglatadi, biroq u bolalar, ota-onalar va boshqa o'qituvchilarni o'z ichiga olgan muammoni yechuvchilar jamoasining a'zosi hisoblanadi.

Oltinchidan: Ta'lim metodlari umumta'lim maktabi uchun ham, inklyuziv maktab uchun ham umumiy hisoblanadi. Biroq, qo'llanilishi jihatidan bir-biriga aynan o'xshash bo'lmaydi, ularning o'zlashtirishlari o'ziga xos bo'lganligi sababli, ta'lim metodlari ham o'ziga xos mazmunga ega bo'ladi. Bitta umumiy, universal ta'lim usluli bo'lmaydi. Darsda o'qituvchi turli ta'lim metodlaridan foydalanadi. O'qitish metodlarini tanlash quyidagi bir qator omillarga: yordamchi maktabning hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti, o'quv fani, o'rganiladigan materialning mazmuni, o'quvchilarning yoshi va ularning rivojlanish xususiyatlari hamda ularning o'quv materialini egallashga tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

⁴⁰ Малофеев Н.Н. "Развитие системы специального образования в России в условиях переходных процессов общества"-Москва-1996-87.с.

O'qitish usullarini turfalash va uyg'unlashtirish orqali alohida e'tiborga muhtoj bolaning nuqsonini tuzatish tomon yo'nalib, o'quvchilarni muayyan kasb-hunar egallashga tayyorlash hamda ijtimoiy moslanish vazifasi o'z yechimini topadi.

Yettinchidan: inklyuziv sinflarda o'quvchilarni baholashda quyidagilarni yodda tutish lozim:


1. Baho shakllantiruvchi (bolaning rivojlanishini nazarda tutgan) bo'lishi kerak. O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini rag'batlantirishi kerak. Bola nimani bilmasligini qidirmang, o'quvchi nimani bilishini topgan xolda baholash lozim.
2. Baho muvaffaqiyatga ko'mak berishi kerak. Hech qachon o'quvchini bajarilmagan topshiriq uchun koyimaslik, sababini bilib, bolaga yordam berish, unga ishonishni aytib, unda o'ziga ishonch hosil qiling. Bolaga uning muvaffaqiyatga erishayotgani – olg'a harakatini ko'rsatish lozim.
3. Baho "quruq" bo'lmasligi kerak: uni tushuntirib, izohlab berish muhim. Baho qo'yishda o'quvchiga bo'lgan shaxsiy munosabatingizni unuting, o'quvchini emas, faqat ishini baholash lozim.
4. Baho ishonchli bo'lishi kerak, ya'ni o'quvchini har kuni ballarda baholashga imkoniyat bo'lmasa, norasmiy ravishda baholab: "balli", "qoyil", "Bugun yaxshi ishlading", "juda toza va chiroyli yozilgan", "masalani yechishning ajoyib yo'li" va hokozolar deb ta'rif berishi lozim.
5. Baho qo'yishda o'quvchilarni qiyoslab bo'lmaydi! Bolalarning qobiliyatlari har xil, moslashish yo'llari, uy vazifasini bajarish sharoitlari turlicha. Shuning uchun o'quvchilarni o'zaro qiyoslamay, balki har bir o'quvchining kechagi (o'tgan chorakdagi, o'tgan yilgi) va bugungi ko'rsatkichlari (natijalari) ni solishtirish muhim shartdir.

3.3. Inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan.

Innovatsiya iborasiga bir qancha pedagog olimlar o'zlarining turli hil fikrlarini aytib o'tishgan. Jumladan, pedagogika soxasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Demak, innovatsion pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bu shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi safarbarqila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri esa ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi⁴¹

⁴¹ *Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.-12.с.*




1-rasm. Inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatning asosiy turlari

Innovatsion faoliyat-yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Ta'limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, innovatsion faoliyat 4 bosqichda olib boriladi, ya'ni:

- 1) tayyorgarlik bosqichida muammoni tahlil etish asosida aniqlaydi,
- 2) mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalaydi;
- 3) o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtiradi;

4) o'zgarishlarni amalga oshiradi.



2-rasm. Inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatning bosqichlari.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Ta'limdagi innovatsion jarayonlar bosqichlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo bo'lish boshqichi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amaliy qo'llay bilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish deirasining qisqarish bosqichi.

Ma'lumki, innovatsion tayyorgarlik bu - mutaxassisining o'zlashtirilgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalariga tayangan xolda pedagogik jarayonni loyihalashtirish, amalga oshirish va kafolatlari natijaga erishish jarayonidagi nostandart tafakkur tazi va ish tartibiga asoslangan holda yangi yo'nalishdagi o'qitishning shakl, metod va vositalarini izlab topishi va amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan sifatlari yig'indisidir.

Innovatsion faoliyatga nisbatan yondashuvlar:

Gumanistik aksiologiya - aksiologiyaga insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi. Innovatsion faoliyatga aksiologik

yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga bahshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi.

Akmeologik yondashuv – akmeologiya (acme) yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yangi davr degan ma'nolarni bildiradi.

Kreativ yondashuv – termini AQShda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Refleksiv yondashuv – (lotincha reflexio – ortga qaytish) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: *iste'dod nishonalari; o'quvliklik; qobiliyat; iste'dod; oila tarbiyasi sharoiti; o'quv yurti; o'z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosa-batida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;

- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayriodatiylikka va yangi-likka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N.V. Vishnekova).

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xoslik-larning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'mini anglay olishi (V.A. Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Yaqin o'tmishda "Innovatsion ta'lim", "Innovatsion faoliyat" va "Innovatsion jarayonlar" terminlari respublikamizning pedagogik adabiyotlarida juda kam kuzatilar edi. Innovatsion ta'lim so'zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o'zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

Innovatsion ta'lim - ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda "Rim klubi"da qo'llanilgan.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

Ta'lim sohasida innovatsion jarayon - bu ta'lim konsepsiyasidagi, o'quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o'qitish usullaridagi yangilik va o'zgarishlardir. Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar so'zining tub ma'nosida pedagogikaning ikkita muhim - o'rganish, umumlashtirish va ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizi bir - biriga o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo'lishi kerak. Aynan, inklyuziv innovatsion faoliyat xizmat ko'rsatish bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor - o'qituvchining kasb mahoratining o'sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi. Shuning uchun ham, innovatsion faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati va talabalarning o'quv jarayoniga ijodiy faoliyati bilan uzluksiz bog'liq.

Ta'lim muassasasida pedagogning inklyuziv innovatsion faoliyatini tashkil etish uchun "Inklyuziv innovatsion muhit" shakllangan bo'lishi kerak, ya'ni pedagogik jamoda umuman ta'lim muassasasida ijodiy, samimiy do'stona sharoit, unda pedagog-o'qituvchi o'zini erkin xis qila olishi va jamoda ichki intilish moddiy-ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda pedagog-o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga yo'naltiriladi. Natijada innovatsion jarayon-yangilikni kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Innovatsion faoliyatni dunyo mamlakatlari eng asosiy ustuvor yo'nalish sifatida tan olgan. Ya'ni, jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri - bu samarali innovatsion siyosatni amalga oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslangan yangi, ilg'or texnologiyalar, mehnatni tashkil etish va boshqarish yangi shakllari hamda yirik ixtirolar natijalarini joriy qilish ekanligi ayni haqiqat.

Inklyuziv innovatsion faoliyat - pirovard natijasi mahsulot, xizmat, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish shakli, texnologiyalarning yangi turlarini yaratish

yoki mavjudlarini takomillashtirishdan iborat bo'lgan faoliyat. U innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va keng joriy etish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Inklyuziv innovatsion jarayoni ishlab chiqarish va oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini ta'minlash, jahonda o'z mavqeiga ega bo'lish va uni ushlab qolish, unumdorlikni, pirovardida ham oliygoh, ham soha, ham yaxlit iqtisodiyot samaradorligini oshirishning asosiy va majburiy shartidir. Innovatsiyalarni boshqarish esa, innovatsion jarayon yoki faoliyatga nisbatan boshqaruvning asosiy funksiyalari – tashkil etish, me'yorlashtirish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tartibga solishni tatbiq etish hisoblanadi. Innovatsiyalarni jadal tatbiq etish, eng avvalo, mavjud oliy ta'lim muassasalari faoliyatini har tomonlama modernizatsiyalashtirishni zarur qilib qo'yadi. Inklyuziv innovatsion tadbirkorlik yangi ratsionalizatorlik yo'nalishlarini topish va resurslarni foydali tomonga yo'naltirish, ishlab chiqarishning yangi kombinatsiyalarini o'zlashtirish, yangi bozorlarni egallash, yangi mahsulotlarni yaratishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lim sohasi o'quv yurtlarida ish yuritish bevosita va bilvosita iqtisodiy liberalizatsiya va globalizatsiya omillari ta'siri ostida transmilliy darajaga chiqmoqda. Ushbu tendensiyalar ta'lim sohasida o'quv jarayonini o'zgartirmasligi, uni prinsipial yangi marraga va taraqqiyot ufqiga olib chiqmasligi mumkin emas.

Har qanday zamonaviy oliy o'quv yurti muayyan uch komponent – omillar, vositalar va texnologiyalar bo'lishini talab qiladi. Faqat shu uch komponent bo'lgandagina o'quv jarayonini boshlash hamda bozorda aniq talab bo'lgan mutaxassislarni va ta'lim xizmatlarini tashkil qilish mumkin.

O'quv jarayoni ta'minoti uchun uch komponent bir qator talablarga javob berishi kerak:

- o'quv soatlarining kerakli hajmi, ya'ni nafaqat o'quv jarayonini tashkil qilish, balki kelgusida o'quv hajmini oshirish imkonini beruvchi uning miqdoriy ifodasi;

- xizmat ko'rsatish omillari, vositalari va texnologiyalarining tegishli sifati, ya'ni o'quv jarayonida foydalanish uchun optimal holati;

- vaqt va joy birligi – o'quv jarayonida foydalanish imkonini beruvchi barcha komponentlarning bir vaqtning o'zida chegaralangan joyda bo'lishi.

Ta'lim xizmati omillari, vositalari va texnologiyalaridan foydalanish uchun mas'ul va ulardan foydalanish huquqiga ega shaxs yoki shaxslar guruhining (vakolatli shaxslar) bo'lishi.

O'quv jarayonda komponentlarning qatnashish darajasiga nisbatan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kerakli to'liq vakolatga ega muvofiqlashtiruvchi markaz bo'lishi kerak. Muvofiklashtiruvchi markaz oliy o'quv yurtining innovatsion salohiyatiga tayangan, oliy o'quv yurtining innovatsion salohiyati esa shu tashkilotning yangilikni qabul qilishiga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, bu quyidagi omillarga bog'liq bo'lgan kompleks ko'rsatkichdir: shaxsiy-psixologik, ichki yoki tuzilmali va tashqi. Bundan tashqari, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik sohalarida inklyuziv innovatsion faoliyatni amalga oshirishga to'squinlik qiluvchi hamda ko'maklashuvchi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalardan kutilayotgan natija samaralarini baholashda ijobiy va salbiy omillarning ta'sirini o'rganishga bog'ishlangan tadqiqotlarning salmog'i nihoyatda oz. Ushbu masala yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilganligi natijasida innovatsion loyihalarni samaradorligi loyihaviy boshqaruvga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Buning asosida muvaffaqiyatli loyiha jamoasini tuzish orqali samaradorlikni aniqladik.

Samarali innovatsion jamoa o'zining vaqt bilan cheklangan vazifasini tushunishi va uning bajarilishi uchun butunlay javobgar bo'lishi lozim. Jamoa aniq jamoaviylik mezonlarini ishlab chiqishi kerak. Bu o'xshashlik asosan loyiha maqsadi bilan belgilanadi. Jamoaviylik tashqaridan yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Loyihaning yakuniy natijasiga diqqatni qaratish jamoani tashkilotning keng ko'lamli strategiyasidan xavfli darajada ajralmagan holda uning mustahkamligini saqlab qolishga yordam beradi. Nihoyat, muvaffaqiyatli innovatsion jamoa uchun turli malakalarga ega bo'lish xosdir. Jamoaning turli-tumanligi – bu uning kuchidir. U vazifalarni bajarishdagi kadrlarning malakasi mujassamligiga qarab kuchayib boradi. Jamoa ijodiy, konstruktiv va birgalikda fikrlay olishi lozim.

U g'ya va ma'lumotlar bilan almashishga tayyor bo'lishi, muammolarni hal qilish uchun birga harakat qilishi va sharoitning o'zgarishiga moslashishi lozim. Jamoa samarali muloqot olib bora olishi kerak.

Innovatsiyalarning yaratuvchisi doimo alohida individ (shaxs) bo'lgan. Bu holatda biz innovatsiyalarga bo'lgan qobiliyati nuqtai nazaridan alohida shaxsning psixologiyasini ko'rib chiqishimiz kerak. Shuning uchun innovativlik psixologiyasining asosiy muammosi shaxsning ijodiy potensialini psixologik tomondan o'rganish mexanizmlari, shakllari va usullarini nazariy va eksperimental ravishda o'slab berish hamda samarali innovatsion faoliyat uchun psixologik komfort bilan ta'minlashdir. Innovatsion faoliyatga bo'lgan iqtidor yoki ijodkorlik qobiliyati – bu faqat ayrim odamlar ega bo'lgan tug'ma xususiyat ekanligini faraz qilishimiz mumkin.

Bundan tashqari, shaxsning innovatsion faolligiga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, innovativlik psixologiyasida quyidagi bog'liqlik ta'kidlab o'tiladi: yangi narsalarga yo'nalishi kamroq tajribaga ega ishchilar tajribaliroq ishchilarga qaraganda sustroq. Aytib o'tilganlardan xulosa qilib shuni ta'kidlashni istardikki, ijodkor-novator uchun xos bo'lgan xarakteristikalarining bir vaqtdagi birikmasi omogenli, professional, demografik, jins-yosh, ta'lim, milliy-madaniy yoki konfessional-etnik ijodiy guruhlariga nisbatan faqatgina juda kam sonli vakillarda ko'zga tashlanadi. Odatda, guruhning umumiy sonida bu kabi ijodkorlarning ulushi 10-12 foizgacha bo'ladi. Bundan tashqari, bu kabi xodimlarni, odatda, boshqarish oson emas hamda ular bilan ishlashdumuammolar yuzaga keladi. Innovatsiya – bu ijtimoiy fenomendir. U o'z ifodasini jamiyat ichida topadi va uning yuzaga kelishi uchun birgalikda faoliyat olib borish kerak.

Ilmiy muassasa hamda oliy o'quv yurtlarida innovatsion faoliyatning mezon va ko'rsatkichlari, innovatsion tadbirkorlik oliy o'quv yurtini rivojlantirish omili ekanligi isbotlanib, oliy ta'lim tizimi innovatsion faoliyatning sub'ekti va mamlakat ilmiy-texnik salohiyatining manbai ekanligi ochib berildi. Innovatsion tadbirkorlik

xulq-atvori uchun yangi riskni yaratib borishga bo'lgan moyillik va tavakkalchilikning jami variantlarini tenglashtirish xarakterlidir. Bugungi kunda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning innovatsion omili sifatida innovatsion tadbirkorlikning turfa tashkiliy shakllari keng rivojlanmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tezlashtirilishi ahamiyatli darajada innovatsion jarayonning samaradorligi bilan bog'liq. O'z navbatida innovatsion jarayonning samaradorligi innovatsion biznes tashkiliy tuzilmasining mustahkamligi, innovatsion tadbirkorlik bilan aniqlanadi. Innovatsion tadbirkorlikning afzalligi innovatsion g'oyalarni qidirishga intilishni, yangi loyihalarni amalga oshirishga intilishni hamda qayta ishlash adekvat tashkiliy mexanizmlarni talab qiladi.

3.4. Inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar va ta'limni tashkil etish shakllari

Talabalarni inklyuziv inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashga oid bo'lgan tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar shaxsning kasbiy faoliyatida rivojlanish jarayoniga alohida e'tibor qaratadilar. Talabalarni inklyuziv innovatsion faoliyatga tayyorligini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda harakatlantiruvchi kuch hamda inklyuziv innovatsion faoliyatga tayyorlash usullari, vositalari va ularni optimallashtirish imkoniyatlari uchun kerakli hamda maqsadga muvofiq bosqichlar, jarayonlar va davrlarga ajratib ko'rsatiladi.

Talabalarni inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorligini takomillashtirish muammosini tahlil qilishda quyidagi asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqich – oliy ta'lim muassasalari talabalarida inklyuziv ta'limsohalariga boshlang'ich yo'naltirish va umumlashtirish, umumiy rivojlanish ta'sirida inklyuziv innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish istagini paydo bo'lishi va shakllanishi.

Ikkinchi bosqich – talabalarni tanlangan mutaxassisliklari bo'yicha inklyuziv innovatsion faoliyatga tayyorlashning maqsadli tayyorgarlik bosqichi.

Uchinchi bosqich – inklyuziv innovatsion faoliyatga kirishish jarayoni, tanlangan mutaxassisligi bo'yicha kasbni faol egallash bilan tavsiflanadi.

Talabalarni inklyuziv innovatsion faoliyatga tayyorlashdan asosiy maqsad – tanlangan sohasiga oid bo'lgan bilimlarni shakllantirish, kasbining mazmun va mohiyatini tushunib yetishlari uchun shart-sharoitlar va barcha imkoniyatlar yaratish, tanlashga yo'naltirish, talabalarda innovatsion faoliyatga yo'naltirish borasida ko'nikmalarini shakllantirish – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, predmetni o'qitish, talabalarni tarbiyalash, malaka oshirish, mehnat natijalari va jarayonlarini hujjatlarda qayd qilish, optimal ish rejimini ta'minlash, pedagogik hamda ishlab chiqarish jamoalarida shaxslararo munosabatlar tizimiga faol kirishishni o'z ichiga oladigan qator xususiy maqsadlarni qo'yish va ularga erishish orqali amalga oshiriladi. Inklyuziv innovatsion faoliyatga tayyorligi muammolari orasida asosiy muammolardan biri bu – ularning darajasi kasbiy innovatsion faoliyat talablariga muvofiq oliy ta'lim bitiruvchilarining yanada rivojlanishi hamda kasbiy moslashuv

muddatini qisqartirish uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladigan maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Bugungi kunda kadrlar iste'molchilari tomonidan oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislarga kelajakda muvaffaqiyatli mehnat faoliyatini tashkil etish, ularni mutaxassislikka oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, yangiliklarni tushunishi, qabul qilishi va o'zlashtira olish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy eta olish ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, innovatsion faoliyatda mutaxassislikka oid kasbiy innovatsion sifatlariga ega bo'lishlariga qo'yilayotgan talablar tobora ortmoqda.

Talabalarni inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorligini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar tizimi va tashkil etish shakllari quyidagilarga asoslanadi.

Pedagogik dasturiy vositalar:

- dasturiy mahsulotlar;
- texnologik va metodik ta'minot;
- qo'shimcha yordamchi vositalar.

Innovatsion pedagogik metodlar:

- an'anaviy metodlar;
- hamkorlikda o'rganish;
- modellashtirish;
- tadqiqot.

Ta'limni tashkil etish shakllari:

- ma'ruza mashg'ulotlari;
- seminar (amaliy) mashg'ulotlar;
- mustaqil ta'lim;
- amaliyot.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllarida biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi.

Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga:

o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi);

texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o'rganuvchi dasturlar – o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;

- mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;

- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi. Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Talabalarni inklyuziv innovatsionfaoliyatga tayyorlashda oliy ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir dars (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot)ning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Talabalarni inklyuziv innovatsionfaoliyatga tayyorlashda an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buninguchun o'quv mashg'uloti oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishi, o'rganilayotgan o'quv materialining mazmuniga mos ravishda metod va vositalarni tanlash orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ta'lim oluvchilarni o'zlashtirish darajasi, amaliy ko'nikma va malakalarini interfaol yoki interaktiv ta'lim metodlari orqali rivojlantirish mumkin.

Interfaol metodlardeganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim-tarbiya jarayonida talaba-talaba, talaba-o'qituvchi hamkorligida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladigan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Interfaol ta'lim metodlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari o'zlashtirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoityaratilishi.

Talabalarni inklyuziv innovatsionfaoliyatga tayyorligini takomillashtirishda quyidagi ta'limni tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliyqiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bals va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Talabalarni inklyuziv innovatsion faoliyatga tayyorligini takomillashtirishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda ko'proq an'anaviy (og'zaki, suhbat, namoyish, video usul va h.z.) hamkorlikda o'rganish (aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, intervyu, davra suhbatlari va h.z.), modellashtirish (ishbilarmon o'yinlar, rolli o'yinlar), tadqiqot (muammoli vaziyat, loyihalash, yo'naltiruvchi matn, keys – stadi) texnologiyalariga tayyandirish.

“Aqliy hujum” strategiyasi talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalardan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. U erdamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Hamkorlik ta'limi – o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish. Hamkorlikda o'qitishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- talabalarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish.

Bu turdagi ta'limning g'oyalari o'tgan asrning 80-yillarida J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko va b. novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan.

Hamkorlik ta'limi talabalarda intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyoqarashni hosil qilish maqsadini ilgari suradi. Ushbu ta'lim turi “Cooperative learning” (“Korporativ ta'lim”)dan farq qilib, u juftlik va kichik guruhda ishlash orqali talabalarning jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Hamkorlik ta'limini qo'llashda talabalar quyidagi **shakllarda** ta'lim oladi:

- 1) jamoada;
- 2) kichik guruhda;
- 3) juftlikda.

1-variant: Jamoada ta'lim olish. Har bir talabanning yutuqlaridan jamoa xabardor bo'ladi, chunki jamoa har bir talaba tomonidan o'quv materialining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishidan manfaatdor. Zero, jamoaning muvaffaqiyati har bir talaba va uning yutug'iga, jamoa oldiga qo'yilgan muammoning yechimiga bog'liq.

2-variant: Kichik guruhda ta'lim olish. Talabalar 4-5 nafardan bo'lib, kichik guruhlarga birlashib, blok holida berilgan o'quv materiali ustida ishlaydi. Har bir talaba material ustida alohida ishlaydi. So'ngra bir guruhdagi talabalar boshqa guruhlarga 1 nafardan bo'lib o'tishadi va o'zlari o'rgangan material bo'yicha ekspert sifatida tengdoshlariga ma'lumot bergandan so'ng o'z guruhlariga qaytirib, tengdoshlaridan o'zlashtirgan ma'lumotlar bilan o'z jamoasi a'zolarini tanishtiradi. Bunda sheriklarni diqqat bilan tinglash, zarur ma'lumotlarni o'z daftarlariga qayd etib borish talab qilinadi. Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi istalgan talabadan o'rganilgan mavzu bo'yicha savollarga javob berishini so'raydi.

3-variant. Juftlikda ishlash. Talabalar juftliklarga bo'linadi. Har bir juftlik yaxlit mavzu bo'yicha alohida topshiriq oladi. Birgalikda ishlash asosida juftlik a'zolari o'zlariga berilgan materialni o'zlashtiradi. So'ngra bu haqida jamoa oldida axborot beradi.

1. Tayanch konspekt (, tezislar, izohlovchi suratlar, qisqacha xulosalar, ramziy belgilar, sxemalar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar)dan foydalanish.

2. Test (bilimlarni test asosida sinovdan o'tkazish).

3. Baholash (talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash)

“Rolli o'yin” metodi - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir. Rolli o'yinlarning ishbop o'yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o'yin” metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o'yin” metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o'zlari hal etadilar. Rolli o'yinda ham ishbop o'yin kabi muammoni yechish bo'yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo'lga qo'yilgan. Rolli o'yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi. “Rolli o'yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o'ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o'yinlar o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Quyida“Rolli o'yin” metodini tarkibiy tuzilishi keltirilgan:

- Ssenariy ishlab chiqiladi;
- O'yinning maqsadi va vazifalaritushuntiriladi;
- Rollar taqsimlanadi;
- Rollar ijro etiladi;
- Yakuniy xulosaga kelinadi.

“Rolli o'yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad vanatijalarini belgilaydi hamda rollio'yin ssenariysini ishlab chiqadi.

2. O'yiming maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O'yiming maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqata'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O'yinyakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniymulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy t'lim beruvchitomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni hamssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarningmotivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rollio'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

Loyiha (projekt) – tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija (loyihaning beqiyos mas'uliga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihaning muhim belgilari:

➤ Muammoga yo'naltirilgan o'quv izlanishini tizimli tashkillashtirish o'quv muhitini yaratadi;

➤ Talabalarga ularni qiziqtirgan muammoni tadqiq qilish va uni hal etishda yo'naltirish va yordam berishda o'qituvchi o'rni belgilovchi o'quv muhitini yaratadi;

➤ Fan bilimlarini mustahkamlashga va ularni rivojlantirishga yordam beruvchi o'quv muhitini yaratadi;

➤ Talabalarga mustaqil harakat qilish, (amaliyotga yo'naltirilgan) aniq yakuniy natija olishni ta'minlovchi o'quv muhitini yaratadi;

Keys-stadi (inglizcha case – vaziyat, holat, study -o'rganish). Keys-stadida bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish usulidir.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari:

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish:

- yakka tartibdagi audio-vizual ish;

- keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);

- axborotni umumlashtirish;

- axborot tahlili;

- muammolarni aniqlash.

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash:

- individual va guruhda ishlash;

- muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;

- asosiy muammoli vaziyatni belgilash.

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish:

- individual va guruhda ishlash;

- muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;

- har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;

- muqobil yechimlarni tanlash.

4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot:

- yakka va guruhda ishlash;

- muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;

- ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;

- yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

Shuningdek, talabalarni inklyuziv innovatsionfaoliyatga tayoligini shakllantirishda maxsus kurslar (innovatsion iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti, kasbiy ta'lim metodikasi, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi)ning amaliy mashg'ulotlarida qo'llash bilan bog'liq o'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishga jalb etish yaxshi samara berdi. O'quv loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali talabalarda loyihalashning umumlashgan algoritmini bajarish qobiliyati bo'lib, g'oyani ilgari surish; muammoni ko'rsatish, maqsadni belgilash va uni hal etish vazifalarini ifodalash; natijaga erishishning qulay usul va vositalarini asosli tanlash; hamkorlikda ishlashni rejalashtirish va loyihadagi majburiyatlarni taqsimlash; natijalarni rasmiylashtirish va ularning umumiy taqdimotini o'tkazish; o'z-o'zini baholash va refleksiyaning amalga oshiradi.

Loyihalarni tayyorlash talabalardan ko'proq mustaqil ishlashni talab etadi. Mazkur jarayonda ular katta hajmdagi loyihalashni qayta ishlash bilan shug'ullanishdi.

Loyihalarning himoyasida talabalar demonstratsion va tarqatma materiallar tayyorlashdi, shuningdek, loyihaning ijodiy jihati ham baholandi.

Taklif qilingan loyihalar mavzulari uch yo'nalishga ajratildi: gnostik, kasbiy individual hislatlar, umumkasbiy muhim sifatlar. Mazkur mavzulari tavsiyaviy tavsifga ega bo'lib, talabalar ko'rsatilgan yo'nalishlar doirasida o'zlari ham erkin ravishda mavzuni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Mavzular individual va kichik guruhlarda bajariladi. Maxsus kurslarni o'zlashtirish jarayonida talabalar barcha yo'nalishdagi mavzular kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorligiga qaratiladi.

Mustaqil ish topshirig'i sifatida egallangan bilimlarini mustahkamlash maqsadida talabalarga esse yozish topshiriladi.

Shunday qilib, o'yinli texnologiyalar bo'lajak mutaxassisning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, shaxsiy sifatlarini takomillashtirish, ilmiy-ijodiy va

amaliy tajribalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi va shu asnoda ularning kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorligi shakllanib boradi.

Yuqoridagi ahlillar asosida inklyuziv innovatsion faoliyatga quyidagi ta'rifni berish mumkin: inklyuziv innovatsion faoliyat qanday turdagi yangilik emas, balki inklyuziv ta'lim amaliyoti bilan chambarchas bog'liq va faoliyat natijasida namoyon bo'ladi. Inklyuziv innovatsion faoliyat esa, yangilikni inklyuziv ta'lim amaliyotiga tadbiq etish emas, balki yangilikni ishlab chiqish, tadbiq etish, o'zlashtirish hamda bevosita analiyotga singdirishga yo'naltirilgan maqsadli chora tadbirlar majmuidir. Ijtimoiy hayotda innovatsiyalar innovatsion faoliyat natijasida o'z samarasini berishi aniqlandi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

2. Inklyuziv ta'limni joriy etish xususiyatlarini tavsiflang.
3. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy va me'yoriy asoslarini yoritig.
4. Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning ba'zi bir xususiyatlarini taxlil qiling.
5. Inklyuziv ta'lim amaliyotida samaradorlikka erishish yo'l va omillarini tavsiflab bering.
6. Individual rivojlantirish reja-dasturi bola rivojlanishining ulyasi asosiy sohalarini qamrab olishi kerak?
7. Individual rivojlantirish reja-dasturi korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim mazmunini yoritig.

IV BO'LIM. INKLYUZIV TA'LIM ISHTIROKCHILARI OTA-ONALAR VA PYEDAGOGLAR JAMOASI XAMKORLIGI MAZMUNI

4.1. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalar va pedagoglar jamoasi xamkorligi mazmuni, usullari va shart-sharoitlari

Inklyuziv ta'lim rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga olib kirish ma'nosida qo'llanib, integratsiyadan farqli ravishda "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga muvofiq tarzda barcha bolalarning ta'lim olish, oilada kamol topishdagi huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Barcha bolalarning birgalikda ta'limi ularning har biriga individuallashtirilgan ta'lim asosida amalga oshiriladi. Ya'ni u yoki bu jihatdan rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, ular o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'limi ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari ta'minlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi – "Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari" shiori asosiga qurilgan.

Inklyuziv ta'limga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar va ilmiy-nazariy manbalar, respublikamizning turli hududlarida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan Loyihalarda ega bo'lgan tajribalar va mavjud amaliyot tahlili quyidagi xulosalar asos bo'ldi:

- Ta'lim tizimiga kengqamrovli o'zgartirishlarni kiritish zarur.
- O'zgartirishlarni kiritish qo'shimcha, murakkab jarayon hisoblanadi.
- Tizimdagi o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun uning me'yoriy-huquqiy negizini ishlab chiqish lozim.
- Ta'lim muassasasi binosini o'quvchilarning jismoniy ehtiyojlariga moslashtirish, texnik jihozlar va maxsus moslamalar bilan ta'minlash talab etiladi.
- Alohida e'tiborga muhtoj bolani ta'limga qo'shib qo'yish (integratsiya) muvaffaqiyatli natijani kafolatlamaydi.
- Hatti-harakatlardagi o'zgarishlar 3 yil ichida sezila boshlasa, kishilar ongidagi, munosabatlardagi o'zgarishlar uzoqroq – bir necha o'n yillarni talab qiladi.
- Jarayonning kengqamrovli ekanligiga, ishtirokchilar safining kengayishiga alohida e'tibor qaratish kerak.
- O'zgarishlarni amalga oshirishda jamiyat a'zolari, aholi o'rtasida tushuntirish-tashviqot ishlarini olib borish muhim.
- Islohotlarni sinfdagi o'zgartirishlardan boshlash zarur.

- O'qituvchilar inklyuziv ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishlari, ularning malakasini oshirish masalasiga alohida e'tibor berish lozim.
- Ta'lim tizimi barcha qatlami, xususan, umumta'lim muassasalari rahbarlari jarayonda yo'l boshchi (lider) sifatida namoyon bo'lishlari kerak.
- Pedagogik ta'lim hamda amaliyot bolalarning sermazmun hayoti bilan uzviy holda, ular shaxsiga yo'altirilganlik tamoyillari asosida rivojlanishi lozim.
- Barcha jабha va bosqichda muntazam monitoring olib borish va ishtirokchilar qo'llab-quvvatlanib borishlari zarur⁴².

Shu maqsadda biz umumta'lim muassasalarida maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limini tashkil qilishning samaradorligini ta'minlashga asos bo'luvchi quyidagi pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- inklyuziv ta'limni murakkab jarayonligini inobatga olish;
- inklyuziv ta'limni samarali tadbiriq etish uchun uning me'yoriy-huquqiy negizini ishlab chiqish;
- ta'lim muassasasi binosini o'quvchilarning jismoniy ehtiyojlariga moslashtirish;
- o'qituvchilar inklyuziv ta'lim yo'nalishida tayyorgarlikdan o'tishlari, ularning malakasini oshirish masalasiga alohida e'tibor berish;
- islohotlarni sinfdan, maktabdan boshlash zarurligi bois, maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi o'rtasida o'quvlar tashkil etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilarning sermazmun hayoti bilan uzviy holda, ular shaxsiga yo'altirilganlik tamoyili asosida rivojlantirilishi, har bir o'quvchi uchun individual ta'lim rejasini ishlab chiqish va uning bajarilishiga diqqat qaratish;
- inklyuziv ta'limni amalga oshirish jarayonida kengqamrovli yondashuv asosida faoliyat olib borish, ota-onalarning ishtirokiga alohida e'tibor qaratish;
- barcha jабha va bosqichda muntazam monitoring olib borish va ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlab borish;
- ommaviy axborot vositalari, internet sahiflarida inklyuziv ta'limning foydali va samarali tamonlari to'g'risida, Eshitishda nuqsoni bo'lgan bo'lgan bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi, maktab, maktabdan tashqarida erishgan muvaffaqiyatlari mavzularida axborotlar ko'lamini kengaytirib borish yuzasidan tizimli ishlarni olib borishni tavsiya qilamiz.

Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalar va pedagoglar jamoasi, bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, maxsus metodik vositalarga tayangan holda o'z oldilariga nutqni rivojlantirishni nazarda tutuvchi maqsadni qo'yadilar hamda uni amalga oshirish uchun zaif eshituvchi bolaga maxsus tashkil etilgan serqirra jarayon hamda ota-onalar bilan o'tkaziluvchi turli-tuman tadbirlar orqali ta'sir choralarni qo'llaydilar. Ular asosida kafolatlangan natijaga – tarbiyalanuvchining nutqiy jihatdan rivojlanishiga erishiladi. Nutqni rivojlantirishga qaratilgan ish yalpi (frontal) va yakka (individual) mashg'ulotlardan tashqari kun tartibining barcha tarkibiy qismlari davomida olib borildi. Pedagoglar faoliyatlarini o'rganish ularning zaif eshituvchi bolalarga pedagogik ta'sir ko'rsatish tadbirlaridan voqif emasliklari, bu ishlarni tashkil etishda o'ta qiyinchiliklarga duch kelishlari ma'lum bo'lgan edi.

⁴² Малофеев Н.Н. "Развитие системы специального образования в России в условиях переходных процессов общества"-Москва-1996-87.с.

Kasbiy salohiyat darajasi e'tiborga loyiq omil ekanligi sababli pedagoglar uchun yo'nalishlar bo'yicha yillik, kalendar-mavzuli va kundalik rejalashtirish namunalari ishlab chiqildi. Ushbu rejalashtirishlarni ishlab chiqishda bolalarning nafaqat nutqiy jihatdan rivojlanishlari, balki ularning ijtimoiy hayotga uyg'unlashib ketish omillari ham nazarda tutildi. Shuningdek, pedagog xodimlar uchun seminar-treninglar, ochiq mashg'ulotlar, maslahatlar uyushtirildi.

2015 yilning 21 may kuni Koreyaning Inchxon shahrida Butunjahon ta'lim forumi o'tkazilib, unda sayyoramizdagi barcha shaxslarning ta'limi hamda zaruriy bilim va malakalarni egallashlarini ta'minlashga qaratilgan 2030 yilga qadar Rivojlanish Deklaratsiyasi hamda Global rejasi qabul qilinib, ularda ta'lim shaxsning rivojlanishi, o'z-o'zini namoyon etishi, jamiyat hayotiga uyg'unlashuvi, ijtimoiylashuvi hamda shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishining zaruriy sharti ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi. Xuddi shu yilning 29 oktyabrida Fransiyada bo'lib o'tgan BMT Sammitida ishtirokchi davlatlar kun tartibining muhim masalasi sifatida "barcha shaxslarga maktabgacha, boshlang'ich, o'rta, yuqori va kasbiy-texnik tayyorgarlik pohnalarida sifatli ta'lim olishlari uchun inklyuziv va teng ravishdagi sharoitlarni yaratish"ni rasman qabul qildilar. Turli jabhalarida ijobiy o'zgarishlari bilan dunyo hamjamiyati tomonidan tobora keng e'tirof etilayotgan mamlakatimizda nogironligi bo'lgan bolalar ta'limiga muhim omil sifatida qaralayotganini kuzatishimiz mumkin. Kuni kecha imzolangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida ham mamlakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida inklyuziv ta'limni rivojlantirish belgilangani fikrimizning yorqin dalilidir. Respublikamizda 1996 yildan boshlab maxsus ta'limga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. Amalga oshirilgan loyihalarda turli soha vakillari, hamjamiyat ishtirokchilarining yakdil sa'yi-harakatlari natijasida erishilgan yutuqlar alohida e'tiborga muhtoj bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, ulardagi mavjud muammoning erta korreksiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuvlariga samarali ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Hozirgi kunga qadar qator xalqaro tashkilotlar hamda RBIMM bilan hamkorlikda amalga oshirilgan Loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya ishlari jarayonida erishilayotgan ko'pgina yutuqlarga qaramay, mazkur qo'llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktab amaliyotida ba'zi muammolarning yuzaga kelayotgani kuzatilmog'da.

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli joriy qilishdagi muammolarni qilish maqsadida institutda qator ishlarni amalga oshirdik⁴³:

1-bosqich. Mazkur bosqichda biz umumiy o'rta ta'lim maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining direktorlari bilan suhbat va

⁴³ Shomaxmudova R. Maxsus va iklyuziv ta'lim. – Toshkent, 2012. -123.b.

so'rovnomalar o'tkazdik. O'rganganlarimiz asosida umumta'lim maktablari direktorlarining o'z faoliyatlari jarayonida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997 yil), "Ta'lim to'g'risida"gi (1997 yil) va "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2008 yil) qonunlari, "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ga; ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari direktorlarining "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (1991 yil), "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (2017 yil), Xalq ta'limi vazirligining "Aqliy va jismoniy nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni maxsus ta'lim muassasasidan boshqasiga yoki inklyuziv sharoitlarida ta'lim olish uchun umumta'lim muassasasiga o'tkazish to'g'risida"gi (2015 yilning 17 iyunidagi Adliya vazirligidan 2685-son bilan ro'yxatdan o'tgan) Nizomi asosida ish olib borishlarini aniqladik.

Toshkent shahri, Samarqand, Surxondaryo, Namangan viloyatlaridan malaka oshirish uchun kelgan har ikki tur ta'lim muassasalari direktorlari ta'limda e'tiborga muhtoj o'quvchilarning umumta'limga jalb qilingani, mazkur hududlarda inklyuziv resurs markazlari tashkil etilib, ta'lim ishtirokchilariga yordam ko'rsatishlari amalga oshirilgani, Loyiha doirasida axborotnoma ham chop etib borilgani haqida xabardor ekanliklarini aniqladik. Mazkur o'rganish davomida maktab rahbarlarining inklyuziv ta'lim haqida tushunchalarining noaniqligi, mazkur yo'nalishdagi lavozim majburiyatlarini to'liq tushunmasliklari, nogiron bolalar ta'limini yengillashtiruvchi texnik vositalarning yetarli emasligi, har ikki toifa direktorlarida inklyuziv ta'lim borasida qorishiq tushunchalarning mavjudligini aniqladik.

2-bosqich faoliyatimiz ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'qituvchi va tarbiyachilar yo'nalish bo'yicha bilim darajalarini aniqlashga qaratildi. Suhbatlar natijasida mutaxassisning o'z tarbiyalanuvchilarini umumta'lim muassasasiga o'tkazishga tayyorlash bo'yicha tavsiya va yo'riqnomalar, bolalar bilan olib boriluvchi ish yo'nalishlari va ularning hujjatlashtirilishi borasida qiyinchiliklarga uchrayotganliklari, texnik vositalarning yetarli emasligi, har ikki toifa pedagoglarida segregatsiya, integratsiya, inklyuziv ta'lim borasidagi qorishiq tushunchalarning mavjudligini aniqladik.

Amalga oshirilgan ishlar hamda xalqaro ilg'or tajribalar tahlili quyidagi xulosalargakelish uchun asos bo'lmoqda:

- Mavjud o'zgartirishlarni kiritish qo'shimcha jarayon hisoblanadi.
- Alohida e'tiborga muhtoj bolani ta'limga olib kirish (ta'limga erishishlik) muvaffaqiyatli natijani kafolatlamaydi.
- Hatti-harakatlardagi o'zgarishlar 3 yil muddat ichida sezila boshlasa, munosabatdagi o'zgarishlar uzoqroq – bir necha o'n yillarni talab qiladi.

- Islohotlar sinfdan boshlanishi zarur.
- O'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishlari, ularning malakasini oshirish masalasiga alohida e'tibor berib borish lozim.
- Ta'lim muassasalari direktorlari jarayonda yo'lboshchi (lider) sifatida namoyon bo'lishlari kerak.
- Pedagogik ta'lim amaliyot hamda bolalarning sermazmun hayoti bilan hamkorlikda rivojlanishi lozim.
- Barcha jabha va bosqichda muntazam qo'llab-quvvatlanish zarur.
- Bolalarni ta'limga muvaffaqiyatli jalb qilish maqsadida baholash tizimini qayta ko'rib chiqish lozim.

Eshitishda nuqsone bo'lgan bo'lgan o'quvchining sifatli ta'lim olish huquqiga ega bo'lish uchun, har ikki tur muassasalarida ta'lim sharoitlari yaratilishi talab qilinadi va inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni belgilab olish muhim, deb hisoblaymiz⁴⁴:

1. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda har ikki tur ta'lim muassasalari direktorlari o'zlarini jarayonda yo'lboshchi, maslahatchi sifatida namoyish qilishlari lozim. Bunda ular ham me'yoriy-huquqiy, ham metodik, ham amaliy bilim, ko'nikmalarini egallab borishlari lozim.

2. O'quvchilarga mazmunli bo'lgan va qiziqarli o'quv dasturlarini joriy qilinishi orqali ularni qiziqitira olamiz va ularning dars jarayonlariga ishtiyoq bilan qatnashishlariga erishamiz.

3. Har ikki turdagi ta'lim muassasalarida hamkorlikdagi ta'limni amalga oshirib borish lozim. Ya'ni bunda nafaqat direktorlar, pedagoglar, balki ota-onalar va albatta, o'quvchilarning faolliklariga erishish lozim. Bolalar ta'limda faol qatnashishlari jarayonida, ya'ni hamkorlikka asoslangan ta'limda, shuningdek, hayotiy misol va tajribalarga asoslanganda, a'lo darajada o'zlashtiriladi.

4. Ta'lim jarayoniga turfalikni kiritib borish muhim. Turfalik - bu xuddi barcha bolalar bir xil bo'lganiday, butun sinfga o'qitishning bir xil usulidan ko'ra ma'lum bir o'quvchi yoki o'quvchilar kichik guruhining o'rganish ehtiyojlariga murojaat qilishdir. Turfalik o'qituvchilar va o'quvchilar, materiallarni, o'quvchilarni guruhlashni, o'rganishni baholash usullarini va sinf xonasining boshqa elementlarini shaxsiy va butun sinfning yutug'ini qo'llab-quvvatlovchi turlicha usullardan foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlarni nazarda tutadi.

5. Agar bolalarga e'tibor berilmasa yoki ularga g'amho'rlik ko'satilmasa, ular ta'lim-tarbiya jarayonida qiyinchilik sezadilar. Ayniqsa, ularga uyda yetarli darajada g'amho'rlik yoki e'tibor ko'rsatilmasa, ular odamovi bo'lib, atrofdagilarga muhtoj bo'ladilar. Shu bois o'quvchilar oilalari bilan hamkorlik ishlari ko'lamni kengaytirib borish lozim.

6. Biz bolalar faol ravishda jalb etilgan va rag'batlantirilgan muhitni yaratishimiz zarur. Ya'ni bunday jarayonda o'qituvchi doimiy nazorat qiluvchi shaxs bo'lmay, ota-onalar va boshqa o'qituvchilarni o'z ichiga olgan muammoni

⁴⁴ Малофеев Н.Н. "Развитие системы специального образования в России в условиях переходных процессов общества"-Москва-1996-82.с.

yechuvchilar jamoasining aʼzosi hisoblanadi.

7. Taʼlim metodlari umumtaʼlim maktabi uchun ham, inklyuziv maktab uchun ham umumiy hisoblanadi. Biroq, qoʻllanilishi jihatidan bir-biriga aynan oʻxshash boʻlmay, ularning oʻzlashtirishlari oʻziga xos boʻlganligi sababli, oʻziga xos mazmunga ega boʻladi. Darsning nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy koʻnikmalarning shakllanishida muhim oʻrin egallashini inobatga olgan holda oʻqituvchi yagona boʻlgan umumiy, universal taʼlim usuliga tayangan ravishda emas, turfa ish uslublaridan foydalanishi tavsiya etiladi. Yaʼni oʻqitish metodlarini tanlash sinf (maktab) ning ayni bosqichdagi taraqqiyoti, oʻquv fani, oʻrganiladigan materialning mazmuni, oʻquvchilarning yoshi, ularning rivojlanish xususiyatlari hamda oʻquv materialini egallashga tayyorgarlik darajasiga bogʻliq boʻlishi tavsiya etiladi.

8. Bolalarni taʼlimga muvaffaqiyatli jalb qilish maqsadida baholash masalasiga alohida eʼtibor qaratish muhim. Inklyuziv sinflarda oʻquvchilarni baholashda quyidagilarni yodda tutish tavsiya etiladi:

- bahoshakllantiruvchi (bolaning rivojlanishini nazarda tutgan) boʻlishi kerak. Oʻquvchining oʻqishga boʻlgan ishtiyoqini ragʻbatlantirishi kerak. Bola nimani bilmasligini emas, oʻquvchi nimani bilishini topgan xolda baholash lozim;

- baho muvaffaqiyatga koʻmak berishi kerak. Hech qachon oʻquvchini bajarilmagan topshiriq uchun koyimaslik, sababini bilib, bolaga yordam berish, unga ishonishni aytib, oʻziga ishonch hosil qilish, uning muvaffaqiyatga erishayotgani – olgʻa harakatini koʻrsatish lozim;

- baho “quruq” boʻlmasligi kerak: uni tushuntirib, izohlab berish muhim. Baho qoʻyishda oʻquvchiga boʻlgan shaxsiy munosabatingizni unuting, oʻquvchini emas, faqatishini baholash lozim;

- baho ishonchli boʻlishi kerak, yaʼni oʻquvchini har kuni ballarda baholashga imkoniyat boʻlmasa, norasmiy ravishda baholab: “balli”, “qoyil”, “bugun yaxshi ishlading”, “juda toza va chiroyli yozilgan”, “masalani yechishning ajoyib yoʻli” va hokozalar deb taʼrif berishi lozim;

- baho qoʻyishda oʻquvchilarni oʻzaro qiyoslab boʻlmaslikni yodda tutish muhim. Bolalarning qobiliyatlari, moslashish yoʻllari, uy vazifasini bajarish sharoitlari turli ekanligi bois oʻquvchilarni oʻzaro qiyoslamay, balki har bir oʻquvchining kechagi (oʻtgan chorakdagi, oʻtgan yilgi) va bugungi koʻrsatkichlari (natijalari) ni solishtirish muhim shartdir⁴⁵.

Inklyuziv taʼlimni muvaffaqiyatli taʼlim qatnashchilarining faol ishtiroki, hamkorlikda amalga oshiriluvchi oʻqitish usullarini turfalash va uygʻunlashtirish orqali ahida eʼtiborga muhtoj oʻquvchilarning birlamchi muammolari yetaklab keluvchi ijtimoiy muammolarining yuzaga kelishining oldi olinib, oʻquvchilarni

⁴⁵ Малофеев Н.Н. “Развитие системы специального образования в России в условиях переходных процессов общества”-Москва-1996-87.с.

muayyan kasb-hunar egallashga yo'llash, tayyorlash hamda ijtimoiy moslashish vazifasi o'z yechimini topadi. Shu sababli ham bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish muhim. Farzandlarimizning ma'naviy hamda jismoniy sog'lom, kelajagi buyuk O'zbekistonning ilg'or fuqarosi bo'lib yetishishlari uchun barcha – jamiyatimiz har bir a'zosi hamjihat bo'lib harakat qilishi lozim.

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli ta'lim qatnashchilarining hamkorligini amalga oshirishda maxsus maktab o'qituvchi va tarbiyachilaridan kasbiy savodxonlik, delikatlik, hamdardlik, izchillik va qat'iyat namoyon qilish talab etiladi. Ota – onalarning farzand tarbiyasi bilan sistemali shug'ullanish, uning ta'limida qatnash istagi ko'p jihatdan maxsus maktab pedagoglarining ota – onalar bilan shaxsiy va ish tartibida aloqalarni yo'lga qo'ya olishi, o'zining bolalar bilan ishlashi namunasi bilan qiziqтира olishi, turli yo'nalishlardagi ish metod va usullarini qulay shaklda tushuntirishi va namoyish etib berishi bilan bog'liq.

Inklyuziv ta'limni qatnashchilarining ota – onalar bilan maktab hamkorligida ishlashda quyidagi vazifalarni shartli ravishda ajratish mumkin:

- ota- onalarda inklyuziv ta'limni maqsadlarini to'g'ri tushunishni shakllantirish;

- maktab jamoasi bilan birgalikda aloxida yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

- pedagogik faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni ommalashtirish, korreksiya ishi metod va usullari bilan tanishtirish;

- oilaviy tarbiya tajribasini o'rganish, uni ota – onalar o'rtasida targ'ib qilish, maxsus maktab faoliyatida undan foydalanish.

Yuqoridagi vazifalarni qilishning shartlaridan biri har bir aloxida yordamga muxtoj bola o'sayotgan oilaning tarkibi, tarbiya xarakteri bilan tanishish sanaladi, bolalar o'sayotgan oila haqidagi axborot keng qamrovli bo'lishi kerak. Odatda, bu axborot bola maxsus maktabida tarbiyalangan barcha yillar mobaynida to'planadi va to'ldirib boriladi. Aloxida yordamga muxtoj bolaning oiladagi tarbiya sharoiti bilan tanishish jarayonida maxsus maktab pedagoglari qo'yidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur:

- oila tarkibi, kattalarning mashg'ulot turi, moddiy ta'minlanganligi, sanitar – gigienik sharoitlar, oilada aloxida yordamga muxtoj bola yoki shaxsning mavjudligi;

- oiladagi munosabatlar, ota – onaning umumiy madaniy darajasi, bolalarga, jumladan aloxida yordamga muxtoj bolaga ota- onasining munosabati;

- bolaning uydagi xulqi va mashg'ulotlari, sevgan mashg'ulotlari, oilada aloxida yordamga muxtoj bola bilan munosabat shakllari, oila a'zolari tomonidan uning faoliyati va xulqiga talablarning qo'yilishi, kun tartibining bajarilishi, bolaning uy mehnatida ishtiroki;

- ota – onalarning umumta’lim va maxsus ishlarining olib borilishiga munosabati, mutaxassis maslahatlarini olishi, oilada mashg’ulotlarning tashkil qilingani, dila a’zolarining aloxida yordamga muxtoj bola bilan ishlarda ishtiroki, o’z pedagogik imkoniyatlarini baholashi, aloxida yordamga muxtoj bola bilan ishlar samaradaofligini baholashi, uning imkoniyatlariga ishonishi;

- ota-ona aloxida yordamga muxtoj bola tarbiyasida duch kelayotgan qiyinchiliklar xarakteri;

- ota – onalarning aloxida yordamga muxtoj bolaning maktab ta’limi va tarbiyasi mazmuni, turli yo’nalishlardagi ish metodlari haqida bilimlari, ota – onalarning pedagoglar bilan korreksion – pedagogik ishlarda qatnashish istagi va manfaatdorligi.

Aloxida yordamga muxtoj bola tarbiyasida oila va maktab hamkorligini qo’yidagi yo’nalishlari tasniflanadi: Individual ish yo’nalishlari maktabga ota-ona tashrifi, oilaga o’qituvchi tashrifi ,o’qituvchining individual konsultatsiyalari ,ota-ona bilan yozishmalarni qamrab oladi. Jamoaviy ish yo’nalishlari ota-onalar uchun lektoriylar ,tematik konsultatsiyalar,ota-onalar uchun kechalar,ochiq eshiklar kuni,konsertlar,ijodiy ,o’quv ishlar ko’rgazmasi ota-onalar majlislari kabi ish turlarini o’zida jamlaydi⁴⁶.

Aloxida yordamga muxtoj bola maxsus maktabiga qabul qilinganda pedagoglar tomonidan olingan va keyinchalik, ota – onasi bilan tanishganlik sari to’ldirib boriladigan axborot ish modelini qurish, o’zaro hamkorlik shakl va metodlarini tanlash uchun asos bo’ladi. Odatda, aloxida yordamga muxtoj bolaning ota – onalari tarkibi ijtimoiy xarakteristikasiga ko’ra ham, umumiy madaniy darajasiga ko’ra ham, aloxida yordamga muxtoj bolaga munosabati va uning imkoniyatlarini baholashga ko’ra ham juda xilma – xil. Shu sababli pedagoglar ota – onalar bilan muloqot uslubi, umumiy ish shakllarini belgilab olishi shart. Pedagoglar tomonidan ish rejasining rasmiy bajarilishi emas, balki aloxida yordamga muxtoj bola va uning oilasi hayotida qatnashish muhim. Ota – onalarning umumiy ishda qatnashish istagi ko’pincha ularga qo’yiladigan talablarning qat’iyligi bilan emas, balki pedagog va tarbiyachilarning o’z ishiga berilganligi, tarbiyalanuvchilariga muhabbati, aloxida yordamga muxtoj bolalarni rivojlantirish ishida maksimal natijaga erishishga intilishi bilan bog’liq. Ayrim aloxida yordamga muxtoj bolalarning maktabdagi o’qitish natijasida rivojlanishini konkret namoyish qilish, ularning tengdoshlari va begona kishilar bilan nutqiy muloqot imkoniyatlari ba’zida ota – onalarga ma’ruza va tavsiyalardan ko’ra ko’proq ta’sir o’tkazishi mumkin. Maxsus maktabi faoliyatida ota – onalar bilan ishlashning jamoaviy shakllaridan ham foydalaniladi . Bularga umumiy va sinf ota – onalar majlislari, lektoriylar, «davra suhbatlari», ota – onalar konferensiyalari, bolalar bilan ishlashda tajriba almashish bo’yicha seminarlar,

⁴⁶ Малофеев Н.Н. “Развитие системы специального образования в России в условиях переходных процессов общества”-Москва-1996-87.c.

guruhda konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, bolalar ishlari ko'rgazmalari, bayram va ertaliklar, muassasa va guruh tadbirlarida ota – onalarning ishtirokini kiritish mumkin. Bolalar bilan ish samaradorligini tavsiflayotib, e'tiborni qiyinchiliklarga, bola rivojlanishidagi salbiy tomonlarga qaratmasdan, balki bolaning imkoniyatlari, uning ta'limda ilgari lab borishini ko'rsatib berish muhim. Bola bilan ishdagi qiyinchiliklarni ota – onalar bilan yakka tartibdagi suhbatlarda ochib berish, muhimi ota – onalar bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun nima qila olishlarini ko'rsatib bergan ma'qul. Sinf ota – onalar majlisi pedagoglardan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda xabarni tayyorlash, qo'rgazmali – illyustrativ materialni (tablichkalar, qo'lbola kitobchalar, didaktik o'yinlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalarning ishlari va sh.k.) tanlash kata ahamiyat kasb etadi. Shuningdek pedagoglar muhokama mavzusiga oid ota – onalar uchun qulay, tushunarli adabiyotlarni tavsiya qilishlari, uni o'qiganda nimalarga e'tiborni qaratish lozimligini tushuntirishlari zarur. Ota – onalar majlislariga ota – onalar ishtirokida tayyorlangan bolalarning ishlari, rasmlari ko'rgazmasini tayyorlash maqsadga muvofiq. Bolalarni o'qitishning konkret masalalari ko'pincha korreksion ishlar bilan bog'liq bo'lib, tematik ota – onalar yig'ilishlarida, davra suhbatlarida, ota – onalar uchun lektoriylarda muhokama qilinadi.

4.2. Maxsus maktab o'qituvchilarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha kompetentligini rivojlantirish

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tashkil etish tizimini yaratish uni amalga oshirish shart-sharoitlari, xususan, o'qituvchi va surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va takomillashtirish, maxsus maktab o'qituvchilari va tarbiyachilarini metodik ta'minoti va axborot mexanizmi ta'sirini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish, mazkur jarayonga o'qituvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish hamda ko'zlangan natijalarga erishishda innovatsion jarayonlarni oldindan loyihalashtirish va bunda innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Surdopedagogning «kasbiy kompetentligi» kategoriyasini biz o'qituvchi shaxsini o'ziga xosligi ifodalovchi pedagog tarbiyachi va bolalar psixologi sifatidagi majmuaviy tushuncha sifatida ko'rib chiqdik. Uning asosida pedagog tomonidan o'zini pedagogik imkoniyatlarni, o'quvchilar nutqini rivojlantirish xususiyatlari, perspektiv anglashi yotadi. Bunday konseptual anglash o'qituvchining asosiy maqsadini - Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksi on pedagogik yordamni amalga oshirish metodlari, vositalari, ta'lim shakllari, innovatsion yondashuvni tanlash imkonini beruvchi kasbiy layoqatini aniqlab beradi.

Ta'limiy tajriba-sinov doirasida maxsus maktablarning amaliyotiga eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha yangi korreksion -pedagogik tizimini tatbiq etishga mo'ljallangan va surdopedagoglarni kasbiy

kompetentligini oshirishni nazarda tutuvchi « Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tashkil etish » dasturi ishlab chiqildi. Dasturning maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tashkil etish tizimni nazariy va amaliy nuqtai nazardan o'rganishga yordam berishdan iborat. Dastur o'qituvchilar guruhi bilan ma'ruza, seminar, munozara va uslubiy amaliy mashg'ulotlarda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tashkil etish dasturini egallash jarayonida o'qituvchilarning bilimi oshirish;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tashkil etishning yangi shakllar va usullarini egallash;

uslubiy vazifalarni ijodiy yechimini topish tajribasiga ega bo'lish;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tashkil etish muammosiga shaxsiy yondashuvini ishlab chiqish.

Dastur doirasida pedagogik tizimni amalga oshirish jarayonida faoliyat ko'rsatuvchi, lekin ish tajribasiga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun seminar va metodik praktikumlarni o'tkazish rejalashtirildi. Seminarda ishtirok etgach, o'qituvchilar pedagogik tizimi bo'yicha o'quv-uslubiy majmua bo'yicha ishlashga o'tdilar. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida tajribali o'qituvchilarning darslarida ishtirok etish va darslarni tahlil qilish, mustaqil loyihalarning ommalashtirish darslarini tahlil qilish, darslarni korreksiyalash, qayta ishlash jarayonlari tashkil etildi.

Maxsus tashkil etilgan pedagogik refleksiya o'qituvchilarga yangi ma'lumotlarni shaxsiy amaliyoti bilan qiyoslash, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tashkil etish pedagogik tizimiga nisbatan o'z munosabatini aniqlashtirishga imkon beradi. O'qituvchilar uchun seminar va amaliy mashg'ulotlarning quyidagi turlari ishlab chiqildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning metodik-pedagogik tayyorgarliklarga qaratilgan seminarlarni tashkil etish innovatsion pedagogik tizimida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish jarayonini tashkil etishga qaratildi. Bu maqsadda o'qituvchilar eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish usullari egallashi lozim.

O'rganish jarayonida o'quvchilarning eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha ijodiy ishlari, dars ishlanmalari, loyihalari, dars videoyozuvlari qo'llanildi. Seminar o'tkazilgan sinflarda seminar mavzusiga oid o'quv vaziyatlari modellashtirildi. Mazkur seminar doirasida innovatsion pedagogik tizimining asosiy komponentlari, yangi yondashuvlar, tamoyillari ko'rib chiqildi. Amaliy mashg'ulotlarda muammoni xal etishning uslubiy yo'llari, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish shakllari, metodlari tahlil qilindi. Surdopedagoglarning eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish jarayonida o'qituvchilarning muammolarini hal etish tajribasi bilan tanishtirildi.

O'qituvchilarning eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha kasbiy kompetentligini oshirishiga xizmat qiluvchi seminarlar kutubxonada o'tkazildi.. Bunday seminarlar o'qituvchi-surdopedagoglarni chuqur tayyorgarligi ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarini amalga oshirishga javob beradi. Mazkur innovatsion tizimda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar o'quvchi-kitobxon bilan ijodiy muloqotga intilishlari lozim. Mazkur vazifa o'qituvchi tomonidan bolalar o'zbek va chet el adabiyoti, maxsus maktabda adabiy ta'limga zamonaviy yondashuv uslubiyati bo'yicha bilimga ega bo'lmasdan amalga oshmaydi. Ma'ruza mashg'ulotlarida jamiyatni axboratlashuvda kutubxonaning roli, yosh avlodni tarbiyalashda adabiy ta'lim ta'siri xususiyatlarni yoritildi. Asosiy e'tibor surdopedagoglar uchun qiziqish uyg'otadigan internet resurslari, ularning ta'lim salohiyatiga qaratildi.

Seminarlarda o'qituvchilar diqqatini o'zbek xalq ertaklarining badiiy xususiyatlari, o'zbek va chet el bolalar adabiyotida bola shaxsini rivojlantirish masalasiga qaratildi. Tinglovchilar bibliografik ko'rsatkichlardagi bolalar adabiyoti ifodalanishi, kutubxonada yosh kitobxonlarning ma'lumotli-bibliografik xizmat ko'rsatilishi, kitob tuzilishi, kitobning an'anaviy va yangi shakllari, bibliografik ma'lumotlardan xabardorligi bilan tanishdilar. O'qituvchilarga XX asrda bolalar kitoblari badiiy illyustratsiyasi, bolalar kitoblari badiiy illyustratsiyasiga zamonaviy yondashuv bo'yicha ma'ruzalar berildi. Amaliy mashg'ulotlarda yozuvchi va shoirlar, rassom-illyustratorlar bilan ijodiy uchrashuvlar tashkil etildi. O'qitish jarayonida tinglovchilarga kutubxonaning tarbiyaviy, ta'lim vazifalari, kutubxona vositalari bilan bolaning nutqiy rivojlantirishga e'tiborni qaratdik. Amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchilarni biblioterapiya metodlari, kitobxonlarni imkoniyatlarni ochib beruvchi kutubxona ishi xususiyatlari bilan tanishtirib berildi.

Amaliy mashg'ulot Power Point paketa MS Office dasturida multimedia taqdimotlari, E-Book Publicant, Photosop i Amazing Animation elektron dasturlarida elektron kitoblar, multfilmlar, pedagogik ssenariy, slayd taqdimotlari yaratish, animatsiya bilan birgalikda nutqiy materialni ovozlashtirishga o'rgatishga qaratildi. Amaliy mashg'ulot jarayonida o'qituvchilar kompyuter texnologiyalari vazifalari bilan tanishtirildi, elektron ma'lumot tarqatuvchilar haqida ma'lumot oldilar, kompyuter savodxonligini takomillashtirildi. Amaliy mashg'ulotda o'qituvchilarni faoliyatining yakuniy natijasi sifatida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha slayd taqdimotlarni va badiiy asar bo'yicha multfilm yoki elektron kitob yaratish hisoblandi. Seminarlarda zaif eshituvchi o'quvchilarni nutqini rivojlantirish innovatsion tizimi predmetli-uslubiy majmuasi bilan tanishuv amalga oshirildi. «1-5 sinflarda o'qishga o'rgatish va nutqni rivojlantirish» o'quv-uslubiy majmuasida adabiy ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilarni nutqini rivojlantirish innovatsion tizimi bo'yicha ta'limiy tajriba-sinovning har bir o'quv yili bo'yicha o'quv-uslubiy majmua berilgan. Har bir majmuaga o'quvchilar uchun o'qish darsliklar, ishchi daftar, o'qituvchilar uchun uslubiy tavsiyalar kiritildi.

« Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni» dasturi asosida surdopedagoglarning eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv

talinga jalb etish masalasi bo'yicha ularning kasbiy komponentligini darajasini oshirish va o'z navbatida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish korreksion -pedagogik modelini tatbiq etish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Surdopedagoglarga eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordamni tatbiq etishni to'rtta bosqichda amalga oshirishni rejalashtirdik. Birinchi bosqich - eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etishda bo'lajak surdopedagoglarda ijodiy pedagogik vazifalarni aniqlash, tahlil qilish va yechimini topish qobiliyatini shakllantirish; ikkinchi bosqich - ilmiy bilish, pedagogik tadqiqot bosqichida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish tizimini tatbiq etish metodologik asoslarini egallash, shart-sharoitlari, uning asosiy tushunchalari bilan tanishtirish; uchinchi bosqich - eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish texnologiyasini o'zlashtirish bosqichida surdopedagoglarni mualliflik dasturlarini yaratishda ishtirok etishni tashkil etish; to'rtinchi bosqich - eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish tizimini amaliyotga joriy etish bosqichida tajribali rus va chet el surdopedagoglarni amaliy ishini tashkil etish, tuzatish ishlarini olib borish hamda tajriba natijalarini kuzatishni o'z ichiga oldi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordam jarayonida surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligining zarur darajasiga maxsus tashkil etilgan o'quv jarayoni orqali va bu muammoning o'qituvchilar uchun dolzarbligi va ahamiyatini hisobga olgan holda erishish mumkin. Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quv jarayonida faol, ijodiy, muvofiqdastiruvchi sub'ektga aylanishi, o'quv jarayonidagi ishtirokchilar boshqalarning rivojlanishidagi va vositasi bo'lgan o'zaro munosabatlar zarurligi ta'kidlangan.

Tadqiqotda muammoga doir psixo-pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, pedagogik jarayonni modellashtirish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, anketa, suhbat, kuzatish, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda mazkur tizim samarali ekanligini ko'rsatdi va ularni amaliyotga joriy qilish tavsiya qilindi. Surdopedagoglarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi mezonlarning o'zaro bog'liqligini belgilovchi pedagogik refleksiya ko'rsatkichlari ularning tayyorgarlik sifatiga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirildi.

Bundan tashqari tajriba-sinov ishlari jarayonida surdopedagoglarni metodik tayyorgarligini takomillashtirish asosida kasbiy-shaxsiy ahamiyatga ega quyidagi qadriyatlarini shakllantirish imkonini berishi aniqlandi:

axloqiy mamnunlik (dars, tarbiyaviy soat, sinfdan tashqari tadbirlarni yaxshi o'tkazishda o'quvchilar bilan ta'limning nostandart ijodiy shakllarining muvaffaqiyatli qo'llanilishiga doir aloqalarning hosil qilinishi)ning yuqori darajasi;

sinf bilan bevosita muloqot, kommunikativ, notiqlikka doir ko'nikmalarni takomillashtirish imkoniyati;

o'quvchilarga o'zining bilim, hayotiy va ma'naviy tajribalarini uzatuvchi inson roliga namoyon bo'lishi;

shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyat sifatida pedagogik faoliyatini ko'rib chiqishi, avval talab qilinmagan va amalga oshirilmagan xususiyatga ega o'zining salohiyat imkoniyatini ochishi;

ularni bartaraf etish, pedagogik tajribalarni qo'llash imkoniyatlari sifatidagi kasbiy qiyinchilik (muloqot, o'quv muammolari, axloqiy vaziyatlar va boshqalar)ga munosabati;

o'qituvchi va o'quvchilarni rivojlantiruvchi, olg'a intiladigan madaniy jarayon sifatidagi o'qitish jarayonini idrok etishi;

fan, metodika bo'yicha o'zining bilimlar sohasida o'zining kasbiy rivojlanishga yo'naltirilganligini tushunishi, ta'lim va tarbiyaga

nisbatan o'z yondashuvini ishlab chiqishi va qo'llashi;

uzluksiz ta'lim, o'z-o'ziga ta'lim berishi, malakasini oshirish asosidagi istiqbolli kasbiy rivojlanishni hosil qilishi;

muvaffaqiyat va doimiy malakasini oshirib borish darajasi va ijtimoiy holat bilan bog'liqlikda bo'lg'usi kasbiy va moddiy maqomini loyihalash.

Ishlab chiqilgan metodik ishlanmalar va vositalar surdopedagoglarda asosida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuviga samarali ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Jumladan, surdopedagoglarning o'z o'quv, kasbiy, hayotiy mazmuniy yo'nalganligi, motivlari, maqsadlarini qayta ishlashi, saralashi, baholashi, qayta baholashi; fikriy faoliyatni faollashtirishi, «mualliflik»ning namoyon bo'lishi – g'oya va tushunchalarni mustaqil shakllantirishi; surdopedagoglarning o'zlarining uni mustaqil tashkil etishdagi katta hissa qo'shishlari bilan aloqadorlikda materialni mustahkam, chuqur o'zlashtirishi va anglashi; ijtimoiy va pedagogik faoliyatga doir dalil va hodisalar bo'yicha hodisalar qatorida muhim yangi munosabatlarni aniq shakllantirishi; o'zining kommunikatsiyalashuvi, ixtisoslashuvi, ijtimoiylashuvining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashi; o'zini-o'zi takomillashtirishi va rag'batlantirishi sifatidagi rivojlanish qarama-qarshiliklarini aniqlashi namoyon bo'ldi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha korreksion pedagogik yordam tizimi doirasida surdopedagoglarda atrofdegilar bilan o'zaro muloqotda faollik va mustaqillikni namoyon etdilar, tanlagan kasblariga mas'uliyat bilan yondashdilar, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'ldilar.

4.3. Imkoniyati cheklangan bolalarga umumtali muassasalarida ta'lim-tarbiya berishda ota-onalar va defektolog hamkorligining ijobiy samarasi

Imkoniyati cheklangan bolalarni umumtali muassasalariga jalb qilish muvaffaqiyati nafaqat surdopedagogning o'z majburiyatlariga nisbatan munosabatlariga, ularning kasbiy tayyorgarligi-yu ahloqiy-psixologik qiyofasiga, balki bola tug'ilib o'sadigan mikro muhit,uning ota-onasiga ham ko'p jihattan bog'liq bo'ladi. Oiladagi tarbiya shaxsning ahloqiy sifatlarining shakllanishida chuqur iz qoldiradi. Bola muayyan hayotiy tajriba orttiradigan va jamiyatda qaror topgan ahloq normalariga daxldor bo'ladigan dastlabki ijtimoiy muhit bu oiladir. Bolaligida har bir inson beg'araz va cheksiz onalik mehi va g'amxo'rligini sezadi, yaxshi amallarni yomonlardan farqlashga o'rganadi. Oilada bolaning muayyan ijtimoiy qadriyatlariga yo'naltirilgan hayotiy qarashlari shakllana boshlaydi, hayotiy maqsad haqidagi tasavvurlari paydo bo'ladi. Maktabga inson yetti yoshida kirib keladi. Bu davrga kelib u yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik haqida o'z tasavvurlariga ega bo'ladi. O'qituvchi bolada qanday tushunchalar shakllangani haqidagina emas, balki qanday sharoitda shakllanganini ham bilishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi ota-onalar bilan aloqa o'rnatishi, o'quvchi tarbiyasida ularning o'ziga ittifoqdosh bo'lishlariga erishishi lozim. Maxsus maktabda imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim va tarbiya berish ishining maqsadi – bola shaxsining maqbul shart-sharoitlarda rivojlanishini ta'minlash (jismoniy, ijtimoiy, odob-ahloq meyorlarida, intellektual), bolaga kompleks, ya'ni ijtimoiy-pedagogik, korreksion, tarbiyaviy va psixologik yordam berish, shuningdek bolani kundalik hayotiy vaziyatlarda himoya qilishdan iborat. O'qituvchilar ham, ota-onalar ham bola ijobiy tomonga rivojlanishi va to'g'ri tarbiya topishidan manfaatdorlar. Maktab va oilaning o'zaro aloqalari tarbiya maqsadi va vazifalarining birligidan kelib chiqadi. Bu maqsadni maxsus o'quv muassasasining o'zi bajara olmaydi. Bunda ota-onalar, oilaning yaqin kishilari, qolaversa mahallaning ishtiroki muhim o'rin egallaydi. Bu esa o'qituvchini, o'zining ota-onaga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ular bilan doimiy aloqa qilib turishini taqozo etadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash, ularning kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish, ta'limini to'laqonli tashkil qilish, pirovard natijada ijtimoiy-foydali shaxs qilib yetishtirishda oilaning roli katta ekani e'tirof etilgan haqiqatdir. Maktab bolaning hamma munosabatlarini ijobiy yechimini topishga yordam beradigan markazga canlanadi. Unda ta'lim - tarbiya maktab jamoasi, ota-onalar jamoasi, mahalla jamoasi, o'quvchilar jamoasi hamkorligida, demokratik tamoyillar asosida, o'ta tolerantlik bilan amalga oshiriladi. O'quvchilar oddiy ta'lim oluvchilar emas, ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari bo'ladilar. Barcha bolalarga bir xil nuomala va munosabat, hamkorlikdagi ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi va ma'nuriyat o'rtasida do'stona munosabat hukmronlik qiladi. Bolaga nisbatan do'stona muhit o'zaro adolatli munosabatlar zamirida vujudga keladi. Adolat bor joyda haqiqat bor, haqiqat bor joyda o'zaro hurmat hukm suradi. O'zaro hurmat shakllangan maktabda do'stona munosabat, uzaro g'amxo'rlik,

mehr – muruvvat hukm suradi. Mana shunday umumtalim muassasalariga, imkoniyati cheklangan bolalarni jalb qilishda ota ona faoliyatining samarali natijalarga olib keladi. Umumtalim muassasalari imkoniyati cheklangan bolalar o'zaro hurmat asosida, bir-birlariga g'amxo'r, ma'naviy boy bo'lib o'sadilar. Mazkur ta'limda ishtirok etadigan maktablarda bolaga do'stona munosabat muhiti hukm suradi. O'qituvchilar va o'quvchilar orasida o'zaro hurmat va ishonch munosabatlari o'rnatiladi. O'zi aslida maktab barcha bolalar uchun quvonch keltiradigan, dunyoning faqat ijobiy eshigini ochib beradigan, ularni yuksak ma'naviyat cho'qqisiga yetaklovchi, shu yo'l bilan komil inson bo'lib voyaga yetishi uchun xizmat qiladigan asosiy maskandir. Chunki uning asosiy maqsadi va uning yo'lidagi barcha katta va kichik vazifalari ham yosh avlodning ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, ilmi, axloqli, mehr-muruvvatli bo'lib kamol topishiga qaratilgan. Lekin, otanalarning o'qituvchiga, uning shaxsiga nisbatan negativ munosabatlari bolalarning ko'z oldida sodir bo'lib, bolalar uchun salbiy ibrat, salbiy namuna bo'lib qolishi, keyinchalik sinfdagi o'quvchilarning salbiy tabaqalashuviga olib kelish holatlari kuzatiladi. Bunday maktablarda bolalar orasida boy, kambag'al, kuchli, qo'rqqoq, yetim, ikkichi, a'lochi, dangasa, yalqov, jinni, cho'loq kabi o'zaro hurmatsizlikka olib keluvchi munosabatlar kelib chiqishi, bolalarning oiladagi moddiy imkoniyatiga munosabatlar shakllanishi vujudga kelish holati kuzatilmogda.. Imkoniyati cheklangan bola uyda tarbiyalanayotgan paytda ham, rivojlanishdagi kamchilik chuqur bo'lgani sababli yoki yuzaga kelgan hayotiy vaziyat tufayli u maxsus muassasada bo'lgan paytda ham bola tarbiyasida ota-onalarning tutgan o'rmini hech narsa bosa olmaydi. O'z farzandining rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda aql bovar qilmaydigan kuch sarflayotgan ota-onalar oz emas. Biroq ularga ko'p hollarda bilim va malakalar yetishmaydi, ba'zida esa sohta, hatto tasavvurlar halaqit beradi. A.R.Maller va G.V.Sikoto faqat bir qator shartlarga rioya qilinsagina imkoniyati cheklangan bolalarni umumtalim muassasalariga jalb qilishda kutilgan darajaga erishish mumkin deb hisoblaydilar. Bular: korreksion ishning imkon darajada erta boshlanishi; maqbul oilaviy vaziyat va maxsus muassasalarning oilalar bilan yaqin aloqasi; rivojlanishi normal kechmayotgan bolalarning real yosh davriga va real imkoniyatlariga hamda ularning tarbiya maqsadlariga mos keladigan ta'lim dasturlari va metodlaridan foydalanish.

Shunday ekan, imkoniyati cheklangan bolalarni umumtalim muassasalariga jalb qilishda defektolog va oilaning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu faoliyat samarali kechishi uchun maxsus maktab oilalarni o'zining to'laqonli hamkori bo'lishida muayyan ishlarni amalga oshirishi lozim. Bu ishlarning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan oila sharoitida korreksion ishlarni yaxshiroq yo'lga qo'yish, korreksion-pedagogik ishga ota-onalarni to'g'ri yo'naltirishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal qilish ko'zda tutiladi: oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish; onaning psixologik holatini korreksiyalash;

bola va ota-ona munosabatlarini korreksiyalash; bolaning ham jismoniy, ham psixologik imkoniyatlarini adekvat baholashga yordam berish; onaga oila sharhida bola bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun maxsus korreksion va metodik usullarni o'rgatish; onaga bolaning shaxsini korreksiyalash uchun zarur bo'lgan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish. Bu esa mutaxassis zimmasiga nafaqat imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'limi, tarbiyasi va korreksiyasi bilan bog'liq vazifalarni yuklaydi, balki ota-onalar bilan hamkorlik faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarni ham hal qilishni talab etadi. Avvalam bor defektolog imkoniyati cheklangan o'quvchilarning va uning atrofidaqilari orasidagi vositachi, shuningdek bolani atrofidaqilar bilan bevosita muloqotida murabbiy sifatida ishtirok etadi. U oilalarni ijtimoiy diagnostikasini o'tkazadi, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning tarbiyalash bo'yicha muammolarni hal etuvchi, ota-onalarga yordam beruvchi dasturlar tuzadi. Oila va maxsus maktab hamkorligini amalga oshirishda mutaxassis-defektolog qarshisida avvalambor, ota-onalar bilan ta'limiy ishlarni olib borish talabi turadi. Ota-onaga imkoniyati cheklangan farzandining psixologik-jismoniy xususiyatlari, o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari, bolaning zaif va kuchli tomonlari haqida ma'lumot berish va bunda bolaning kuchli tomonlariga ko'proq e'tibor qaratish, muhimi bu bilimlardan foydalanish malakalarini rivojlantirish bu ishning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu faoliyatning asosiy maqsadi onaning imkoniyati cheklangan farzandiga nisbatan dunyoqarashini o'zgartirishdan iborat. Ota-ona o'z bolasiga nisbatan vazifalarini faqat uni boqish, parvarishlash, davdashedagina emas, balki uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ekanini va bu vazifa muhimroq ekanini anglab yetishi lozim. Shundagina u tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushunadi va o'z kuchini shu vazifaga ham qaratadi. Natijada ota-ona imkoniyati cheklangan farzandining umumtalim muassasalariga jalb qilish bilan bog'liq korreksion ish sohasida ham bilim va tajribalari ortib boradi.

4.4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga umumtalim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish bo'yicha ota-onalarda bilimlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Ota-onalarda imkoniyati cheklangan bolalarni umumtalim muassasalariga jalb qilish bo'yicha bilimlarni shakllantirishga oid psixologik-pedagogik ish asosan uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinci bosqich ota va onani imkoniyati cheklangan bolalarni umumtalim muassasalarga jalb qilish jarayoniga qaratishga yo'naltiriladi. Defektolog bu ishda faqat uning muhabbati va hatti-harakatlariga muhtoj ekanligiga, imkoniyati cheklangan farzandining o'quv jarayoni bilan o'zidan boshqa odam bu darajada sidqidildan shug'ullana omasligiga, nihoyat, bu ishdan o'zidan boshqa kishi bu darajada manfaatdor emasligha defektolog bolaning ota va onasini ishortirish kerak.

Ikkinchi bosqich ota-onada o'z farzandining umumtalim muassasalaridagi rivojlanish jarayoniga nisbatan qiziqishni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bunda

defektolog onaning e'tiborini imkoniyati cheklangan farzandini umumtalim muasasalariga jalb qilish bolasida kichik bo'lsa-da, ammo uning rivojlanishida g'oyat muhim bo'lgan yutuqlar bo'lishi mumkinligiga qaratadi. Asta-sekin ona defektolog bergan topshiriqlar ustida uyda bolasi bilan ishlash malakalariga ega bo'lib boradi.

Uchinchi bosqichning maqsadi onaning ko'z o'ngida umumtalim muasasalarida imkoniyati cheklangan farzand ta'limida shaxsiy ijodiy yondashuvlarni qidirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

V.V.Tkachevaning fikricha, aynan ijodiylikni namoyon qilish onaga uzoq muddatli stress paytida salbiy ichki psixologik holatni susaytirish, o'zining nogiron farzand bilan bog'liq hayotiy qoidalari va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Imkoniyati cheklangan farzandga ega oilalarda mutaxassis-defektologning ota-onalar bilan olib boradigan psixokorreksion ishining shakllari turli-tuman bo'lib, E.G.Dementeva tomonidan taklif qilingan psixokorreksion modelga ko'ra bu ishning quyidagi shakllari taklif qilinadi:

1. Ota-onalarga individual maslahatlar berish. Bu maslahatlar oilada nogiron bolaning ta'limi, tarbiyasi va muloqotida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida olib boriladi, shuningdek defektolog bilan ota-ona o'rtasida o'zaro shaxsiy aloqani o'rnatishda asos vazifasini o'taydi. Ota-onalar bilan olib boriladigan dastlabki suhbatlarda defektolog ularga quyidagi qoidalarga rioya qilishni, bu qoidalar ularning hayotini ancha osonlashtirishini qayta-qayta ta'kidlashi lozim. Avvalambor, defektolog ota-onalarga qo'rqinch, tushkunlik, umidsizlik tuyg'ularini yengish kerakligini, ikkinchidan, sodir bo'lgan vaziyatda aybdorni qidirish behuda vaqtini sarf qilish ekanini, bu o'rinda aybdorning o'zi yo'qligini uqtirishi kerak. Uchinchidan, ota-onalarga o'z bolasiga va oilasiga qanday yordam talab qilinishini (tibbiy yoki psixologik-pedagogik, yoki har ikkalasi) aniqlab olishni maslahat beradi. Shunday qilib, defektolog ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlarda ta'limiy va psixologik ishni birga qo'shib olib boradi, ya'ni vaziyatni nazorat qilishga to'sqinlik qiladigan shubha va qo'rquv tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oila oilaviy terapiya va ta'limiy treninglar dasturlariga ham jalb qilinishi mumkin. Ularning maqsadi – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, imkoniyati cheklangan farzandiga tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq tang vaziyatlar keltirib chiqqan yashirin muammolarni hal qilish.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishning individual maslahatlar berish shakli odatda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat bo'ladi. Maslahatlar davomida maslahatchi-defektologning maxsus bilimlari maslahat oluvchilarga kundalik muammolarni hal qilish yoki bo'lajak hatti-harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Bu ish shaklidan foydalanish zarurati shu bilan belgilanadiki, nogiron bolaga ega oilalarning ko'pchiligi o'tkir yoki surunkali stress holatida bo'ladi, o'zlarining yangi maqomlariga moslasha olmaydilar, oila ichida va atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun ularga ishning boshida yangi bilimlar bilan bir qatorda maxsus tashkil qilingan samimiy muloqot g'oyat zarurdir.

2. Defektolog tomonidan maxsus ta'lim muassasasining boshqa mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan turli mavzularga oid majlislarda ota-onalarning qatnashuvi.

Bunday majlislar natijasida nogiron bolalarning korreksion-rivojlantiruvchi faoliyati sohasida hamda bola bilan o'zaro samarali aloqa o'rnatish borasida kattalarning bilim doirasi kengayadi.

Shunday maqsadlarda o'tkaziladigan majlislarning taxminiy mavzulari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- "O'z-o'zini rivojlanishida kamchiligi bor bolaning otasi yoki onasi sifatida anglash";

- "Umumtalim muassasalarida bolalar va ota-onalar o'rtasidagi to'qnashuvlar va ularni yengib o'tish";

- "Umumtalim muassasalarida bolalar tarbiyasida turli xil yondashuvlar va ularning tahlili";

- "Umumtalim muassasalarida jazolash va taqdirlash – tarafdolar va qarshilar";

- "Umumtalim muassasalariga bolani maktabga qanday tayyorlash kerak" va h.k.

3. Ota-onalar tomonidan umumtalim muassasalarida korreksion pedagogning individual mashg'ulotlarini kuzatish. Ota-onalar bilan olib boriladigan bu ish shakli onalarning bolalari bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishda xamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga, "ona - bola" juftligida jipslik, fikrdoshlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratiladi. Ona individual mashg'ulot davomida defektologning bola bilan ishlash usullarini kuzatar ekan, bu mashg'ulotlarning ishlanmasini yozib borar ekan, eshitishida nuqsoni bolaning ta'limi va tarbiyasi sohasida kerakli bilimlarni egallab boradi.

4. Bo'sh vaqtni birgalikda o'tkazish. Ota-onalar, bolalar va pedagoglarni yanada birlashtirish, ular o'rtasida erkin, behijolat munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'tkaziladi. Bunday tadbirlarning quyidagi mavzularini taklif qilish mumkin: "Yangi yilni kutish", "Onajonim-mehribonim", "Navro'z – bahor bayrami", "Eng yaxshi ota" va h.k.

5. Ota-onalar uchun stend. Stendda namoyish qilinadigan ma'lumotlar va sahifalar kamida har oyda yangilanib turishi kerak. Stend tarkibidagi "Ota-onalar universiteti" bo'limi ayniqsa katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Biron-bir sababga ko'ra defektolog bilan shaxsan uchrashib, u bilan suhbatlasha olmagan ota-onalar o'z savollarini shu bo'limda qoldirishlari va javob olishlari mumkin.

6. "Hayotimizdagi voqealar" kundaligini tutish. Ishning bu yo'nalishi E.L.Goncharova va O.I.Kukushkina tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni E.G.Dementeva psixokorreksion ishga moslashtirib, joriy qilgan. Bu bolaning maxsus tashkil qilingan va muntazam olib boriladigan ishi bo'lib, bunda bola o'zi uchun qulay bo'lgan belgilarda o'z hayotini aks ettiradi. Bu yozma matn, rasm, applikasiya bo'lishi mumkin. Bu yo'nalishning maqsadi ota-onalar va bolalar o'rtasida hamkorlik va birgalikdagi ijodkorlikni mustahkamlashdan iborat.

7. Ota-onalar guruhi bilan olib boriladigan ish. Uning maqsadi: ta'lim va tarbiya bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish; bola bilan o'zaro munosabatlarda mos muloqot va hulq-atvor shakllarini tanlash; umumta'lim va maxsus ta'lim muassasa

mutaxassislari bilan konstruktiv va ishchan munosabatlarni o'rnatish. Bu yo'nalishdagi ish ota-ona uchun bolaga pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish vositalarini kengaytirishga, bola bilan o'zaro munosabatlarning yangi usullaridan foydalanishni mashq qilishga yordam beradi. Bunday hatti-harakatlar, o'z navbatida, imkoniyati cheklangan bola tarbiyalanayotgan oilada ichki munosabatlarning uyg'unlashuviga, oilaning ijtimoiy moslashuviga asos bo'lib xizmat qiladi. Ishning bu shaklida ota-onalarning farzandi bilan o'zaro munosabatlarida, imkoniyati cheklangan bolaning ongida quyidagi ijobiy o'zgarishlar yuz berishini kuzatish mumkin: imkoniyati cheklangan bola oilaviy munosabatlarni yaxshiroq idrok eta boshlaydi; bola o'zining oila jamoasida o'z o'rnini anglab boradi; ota-onalarning bolalariga munosabatlarida muayyan tartib va reja paydo bo'ladi; ota-onalarning imkoniyati cheklangan bolalarga munosabatlarida muvozanat paydo bo'ladi, ular bolalarini qanday bo'lsa, shunday qabul qila boshlaydilar, munosabatlarida iliqlik, tushunish yuzaga keladi. Imkoniyati cheklangan bolaning rivojlanish qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning har xil modellari, bolalar shaxsi va hulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari haqida har tomonlama ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolari o'z kelajaklariga ishonch bilan qaray boshlaydilar.

8. Guruhda olib boriladigan ta'sirchan ish shakllaridan biri bu treninglardir. Psixologik va ta'limiy treninglar ayniqsa keng tarqalgan. Psixologik trening o'zida bir qator individual va guruhli ish shakllarini birlashtiradi hamda yangi psixologik malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Hozirda trening dasturlarining maqsadlari tobora kengayib bormoqda, treninglar amaliy psixologiya sohasi chegaralaridan chiqib, ijtimoiy sohada, ta'lim tizimida ham keng qo'llanmoqda.

Umumtalim muasasalariga jalb etish bo'yicha ota-onalar uchun mo'ljallangan treninglar avvalam bor oilaviy mikromuhitni boshqarishga, o'zaro maqbul munosabatlarni o'rnatishga, muammoli vaziyatlardan to'g'ri yo'l topishga yordam beradigan malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Trening ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning eng istiqbolli shaklidir. Zero bu muammoning dolzarbligi so'nggi yillarda ayniqsa ortib bormoqda. O'zlari ham nogiron bo'lgan ota-onalarga nisbatan esa uning o'tkirligi yanada ortadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan guruhli ish shakllari ularga bir-birlari bilan tajriba almashinish, o'z savollariga muammolari xuddi o'zlarinikiga o'xshagan guruhdoshlaridan javob olish imkonini beradi. Axborot almashinish jarayonida peshqadamlik namoyon qilgan ota-onaning faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortib boradi.

Defektologlarning va maxsus ijtimoiy pedagoglarning ish tajribalarida guruhli ish shakllari, xususan ota-onalar uchun ta'limiy treninglar ijtimoiy-pedagogik ta'sirning yetakchi texnologiyalari qatoridan o'rin oladi. Ularning samaradorligi chet el tajribasida o'z isbotini topdi. Shunday qilib, defektolog imkoniyati cheklangan bola va uning oilasi hayotida katta rol o'ynaydi. O'z faoliyatida u asosan maslahat berish, treninglar o'tkazish, patronaj usullaridan foydalanadi. Bu ish usullari va shakllari asosan chet el tajribasidan o'zlashtirilgan. Shuning uchun bizda yaxlit ijtimoiy-

pedagogik texnologiyalar haqida so'z yuritish hali erta. Ular hozircha shakllanish va sinovdan o'tish bosqichidadir. Maxsus maktab o'qituvchi va tarbiyachilarini ota – onalar bilan maktab hamkorligida ishlashda quyidagi vazifalarni shartli ravishda ajratish mumkin:

- ota-onalarda umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va o'qitish maqsadlarini to'g'ri tushinishni shakllantirish;

- umumta'lim maktablarida maktab jamoasi bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;

- umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni amallashtirish, korreksiya ishi metod va usullari bilan tanishtirish;

- umumta'lim maktablarida oilaviy tarbiya tajribasini o'rganish, uni ota – onalar o'rtasida targ'ib qilish, maktab faoliyatida undan foydalanish.

Yuqoridagi vazifalarni qilishning shartlaridan biri har bir imkoniyati cheklangan bola o'sayotgan oilaning tarkibi, tarbiya xarakteri bilan tanishish sanaladi, bolalar o'sayotgan oila haqidagi axborot keng qamrovli bo'lishi kerak. Odatda, bu axborot bola mehnat ta'limi maktabida tarbiyalangan barcha yillar mobaynida to'planadi va to'ldirib boriladi. Imkoniyati cheklangan bolaning oiladagi tarbiya sharoiti bilan tanishish jarayonida maktab pedagoglari qo'yidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur:

- oila tarkibi, kattalarning mashg'ulot turi, moddiy ta'minlanganligi, sanitar – gigiyenik sharoitlar, oilada eshitishda nuqsoni bo'lgan bola yoki shaxsning mavjudligi;

- oiladagi munosabatlar, ota – onaning umumiy madaniy darajasi, bolalarga, jumladan imkoniyati cheklangan bolaga ota-onasining munosabati;

- bolaning uydagi xulqi va mashg'ulotlari, sevgan mashg'ulotlari, oilada imkoniyati cheklangan bola bilan munosabat shakllari, oila a'zolari tomonidan uning faoliyati va xulqiga talablarning qo'yilishi, kun tartibining bajarilishi, bolaning uy mehnatida ishtiroki;

- ota – onalarning umumta'lim va maxsus ishlarning olib borilishiga munosabati, mutaxassis maslahatlarini olishi, oilada mashg'ulaotlarning tashkil qilingani, oila a'zolarining imkoniyati cheklangan bola bilan ishlarda ishtiroki, o'z pedagogik imkoniyatlarini baholashi, imkoniyati cheklangan bola bilan ishlar samaradorligini baholashi, uning imkoniyatlariga ishonishi;

- ota-ona imkoniyati cheklangan bola tarbiyasida duch kelayotgan qiyinchiliklar xarakteri;

- ota – onalarning imkoniyati cheklangan bolaning maktab ta'limi va tarbiyasi mazmuni, turli yo'nalishlardagi ish metodlari haqida bilimlari, ota – onalarning pedagoglar bilan korreksion – pedagogik ishlarda qatnashish istagi va manfaatdorligi.

Imkoniyati cheklangan bola tarbiyasida oila va maktab hamkorligini qo'yidagi yo'nalishlar tasniflanadi: Individual ish yo'nalishlari maktabga ota-ona tashrifi, oilaga o'qituvchi tashrifi, o'qituvchining individual konsultatsiyalari, ota-ona bilan yozishmalarni qamrab oladi. Jamoaviy ish yo'nalishlari ota-onalar uchun lektoriylar, tematik konsultatsiyalar, ota-onalar uchun kechalar, ochiq eshiklar kuni, konsertlar, ijodiy, o'quv ishlar ko'rgazmasi ota-onalar majlislari kabi ish turlarini o'zida jamlaydi.

Maxsus maktab faoliyatida ota – onalar bilan ishlashning jamoaviy shakllaridan ham foydalaniladi . Bularga umumiy va sinf ota – onalar majlislari, lektoriylar, «davra suhbatlari», ota – onalar konferensiyalari, bolalar bilan ishlashda tajriba almashish bo‘yicha seminarlar, guruhda konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, bolalar ishlari ko‘rgazmalari, bayram va ertaliklar, muassasa va guruh tadbirlarida ota – onalarning ishtirokini kiritish mumkin.

Ota – onalar majlisi keng tarqalgan ish shakllaridan biri sanaladi. Majlis umumiy maktab yoki sinf o‘quvchilari ota – onalari uchun bo‘lishi mumkin. Umumiy ota – onalar majlislari yiliga 2 – 3 marta, sinfda esa har chorakda o‘tkaziladi. umumiy majlislarda ota – onalarni maktab ishining mazmuni bilan tanishtiriladi, ma‘muriyatning ma‘lum vaqt oralig‘idagi faoliyat to‘g‘risidagi hisoboti, ota – onalar qo‘mitasining hisoboti tinglanadi. Ota – onalar uchun qiziqarli mavzularda, masalan «Mehnat faoliyati-Imkoniyati cheklanganbolalarni tarbiyalash asosi» «Bolalarda mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalash», «O‘quvchilarni tarbiyalashda maktab,oila va mahalla hamkorligi», «Bolalarni o‘ziga xos rivojlanishidagi zaiflik va nuqsonlarni bartaraf etish yo‘llari» kabi mavzularda ma‘ruzalar qilinadi. Sinfda ota – onalar yig‘ilishlarida shu sinf ota – onalari uchun dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Maxsus maktab pedagog va tarbiyachi ota – onalarni bolalar tarbiyasi va ta‘limining turli yo‘nalishlariga oid ishlar mazmuni bilan qulay va tushunarli tarzda tanishtiradi. Bolalarning oiladagi tarbiyasi haqidagi axborotlar, masalan, «Bolalar uchun kun tartibini tashkil qilish», «Bolalarda madaniy – gigiyenik ko‘nikmalarni tarbiyalash» mavzulari bilan chiqadigan tarbiyachilarning ishtiroki muhim sanaladi. Sinfda ota – onalar majlisida pedagoglar ta‘limning natijaliligi, turli yo‘nalishlardagi ish natijalari haqida ota – onalarga ma‘lum qiladi. Bolalar bilan ish samaradorligini tavsiflayotib, e‘tiborni qiyinchiliklarga, bola rivojlanishidagi salbiy tomonlarga qaratmasdan, balki bolaning imkoniyatlari, uning ta‘limda ilgarilab borishini ko‘rsatib berish muhim. Bola bilan ishdagi qiyinchiliklarni ota – onalar bilan yakka tartibdagi suhbatlarda ochib berish, muhimi ota – onalar bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun nima qila olishlarini ko‘rsatib bergan ma‘qul. Sinf ota – onalar majlisi pedagoglardan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda xabarni tayyorlash, qo‘rgazmali – illyustrativ materialni (tablichkalar, qo‘lbola kitobchalar, didaktik o‘yinlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalarning ishlari va sh.k.) tanlash kata ahamiyat kasb etadi. Shuningdek pedagoglar muhokama mavzusiga oid ota – onalar uchun qulay, tushunarli adabiyotlarni tavsiya qilishlari, uni o‘qiganda nimalarga e‘tiborni qaratish lozimligini tushuntirishlari zarur. Ota – onalar majlislariga ota – onalar ishtirokida tayyorlangan bolalarning ishlari, rasmlari ko‘rgazmasini tayyorlash maqsadga muvofiq. Bolalarni o‘qitishning konkret masalalari ko‘pincha korreksion ishlar bilan bog‘liq bo‘lib, tematik ota – onalar yig‘ilishlarida, davra suhbatlarida, ota – onalar uchun lektoriylarda muhokama qilinadi.Ota – onalar universiteti yoki lektoriy ota – onalarni defektologikaning umumiy masalalari bilan ma‘muriyat tomonidan oldindan tuzilgan reja asosida sistemali tarzda tanishtirib borish ko‘zda tutadi. Ota – onalar uchun vrach, metodist, psixolog, pedagog ma‘ruzalari, odatda, oyda bir marta o‘tkaziladi. Ota – onalar uchun umumiy yoki sinfda mavzuli konsultatsiyalari o‘tkazilganda ota – onalar oldindan yozma ravishda savollarini

berishi mumkin. Bir mavzu yuzasidan savollar to'planib qolganiga ko'ra ota – onalar uchun sinfda konsultatsiyalar mazmuni shakllantiriladi. Umumiy konsultatsiyalarda bolalar salomatligini muhofaza qilish, o'z –o'ziga hizmat malakalarini shakllantirish va ota – onalarni qiziqtirgan boshqa ko'plab masalalar muhokama qilinadi. Ota – onalar uchun sinfda konsultatsiyalar shu yoshdagi bola tarbiyasi va ta'limiga oid konkret masalaga bag'ishlanadi. Pedagoglar axborotlari konkret xarakterga ega, ota – onalar uchun tushunarli bo'lishi, misollar namoyishi, turli didaktik vositalar bilan to'ldirib borilishi lozim. Ota – onalar konferensiyalarini tashkil qilish muhim va foydali ish shakli sanaladi, uning maqsadi ota – onalarning oilada farzand tarbiyasi tajribasini ammalashtirishdan iborat. Bunday konferensiyalar yilda 1-2 marotaba o'tkaziladi. Ularni maktab va ota – onalar qo'mitasi, pedagoglar tayyorlaydi. Bu konferensiyalarda ota – onalar oilada farzand tarbiyasiga oid tajriba almashadi, turli yo'nalishlar, masalan mehnatsevarlikni tarbiyalash, oilada bola bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirish, jismoniy tarbiya bo'yicha ish mazmunini ochib beradi.

Ota - onalar bilan ish shakllaridan yana biri ochiq eshiklar kuni sanaladi. Bu kunlari ota – onalar sinflardagi frontal yoki individual mashg'ulotlarda qatnashishi, bolalarning sayr davomidagi, kun tartibi vaziyatlarini o'tkazish chog'idagi muloqoti va mashg'ulotlarini kuzatish, pedagoglar, katta tarbiyachi, mudir bilan uchrashish va suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Shunday qilib, ota – onalar bilan olib boriladigan individual, jamoaviy ish shakllari maxsus maktab va ota – onalarni hamkorligini yo'lga qo'yish, maktabda, oilada Imkoniyati cheklangano'quvchilarni tarbiyalashda samarali natijalarga erishishni ko'zda tutadi. Maxsus maktab mazkur yo'ldan borar ekan, ota – onalarni hamkorlikga jalb etish, ota – onalarni pedagogik bilim, malakalari darajasini oshirish, maktab va oilaning umumiy korreksion-tarbiyaviy tizimini yaratish imkoniga ega bo'ladi.

4.5. Ota-onalarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha bilimlarni shakllantirish

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish, ularning kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish, ta'limini to'laqonli tashkil qilish, pirovard natijada ijtimoiy-foydali shaxs qilib yetishtirishda ota-onaning roli katta ekani e'tirof etilgan haqiqatdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola uyda tarbiyalanayotgan paytda ham, rivojlanishdagi kamchilik chuqur bo'lgani sababli yoki yuzaga kelgan hayotiy vaziyat tufayli u maxsus muassasada bo'lgan paytda ham bola tarbiyasida ota-onalarning tutgan o'rini hech narsa bosa olmaydi. O'z farzandining rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda aql bovar qilmaydigan kuch sarflayotgan ota-onalar oz emas. Biroq ularga ko'p hollarda bilim va malakalar yetishmaydi, ba'zida esa sohta, xato tasavvurlar xalaqit beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning oilada tarbiyalash masalalari bilan maxsus shug'ullangan olimlardan B.D. Korsunskyaning bolalarning rivojlanishida kutilgan darajaga erishish korreksion ishning imkon darajada erta boshlanishi; maqbul oilaviy vaziyat va maxsus muassasalarning oilalar bilan yaqin aloqasi; rivojlanishi normal kechmayotgan bolalarning real yosh davriga va real imkoniyatlariga hamda ularning tarbiya maqsadlariga mos keladigan ta'lim dasturlari va metodlaridan foydalanish deb hisoblaydilar. deb ko'rsatadi. Shunday ekan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etishda maxsus maktab va oilaning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu faoliyat samarali kechishi uchun maxsus maktab oilalarni o'zining to'laqonli hamkori bo'lishida muayyan ishlarni amalga oshirishi lozim. Bu ishlarning asosiy maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan oila sharoitida korreksion ishlarni yaxshiroq yo'lga qo'yish, korreksion -psixologogik-pedagogik ishga ota-onalarni to'g'ri yo'naltirishdan iborat. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalarni hal qilish ko'zda tutiladi:

- oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- onaning psixologik holatini korreksiyalash;
- bola va ota-ona munosabatlarini korreksiyalash;
- bolaning ham jismoniy, ham psixologik imkoniyatlarini adekvat baholashga yordam berish;
- onaga oila sharoitida bola bilan mashg'ulotlar o'tkazish uchun maxsus korreksion va metodik usullarni o'rgatish;
- onaga bolaning shaxsini korreksiyalash uchush zarur bo'lgan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish.

Bu esa mutaxassis zimmasiga nafaqat bolaning ta'limi, tarbiyasi va korreksiyasi bilan bog'liq vazifalarni yuklaydi, balki ota-onalar bilan hamkorlik faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish bilan bog'liq vazifalarni

ham hal qilishni talab etadi. Bu vazifalar odatda ijtimoiy pedagog zimmasiga yuklanadi. Avvalam bor surdopedagog bola va kattalar, bola va uning atrofidagilari orasidagi vositachi, shuningdek bolani atrofidagilar bilan bevosita muloqotida murabbiy sifatida ishtirok etadi. U oilalarni ijtimoiy diagnostikasini o'tkazadi, bolani tarbiyalash bo'yicha muammolarni xal etuvchi, oilalarga yordam beruvchi dasturlar tuzadi. Oila va maxsus maktab hamkorligini amalga oshirishda mutaxassis-surdopedagog qarshisida ota-onalar bilan ta'limiy ishlarni olib borish talabi turadi. Ota-onaga eshishda nuqsoni bo'lgan farzandining psixologik-jismoniy xususiyatlari, o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari, bolaning zaif va kuchli tomonlari haqida ma'lumot berish va bunda bolaning kuchli tomonlariga ko'proq e'tibor qaratish, muhimi bu bilimlardan foydalanish malakalarini rivojlantirish bu ishning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu faoliyatning asosiy maqsadi onaning eshishda nuqsoni bo'lgan farzandiga nisbatan dunyoqarashini o'zgartirishdan iborat. Ona o'z bolasiga nisbatan vazifalarini faqat uni boqish, parvarishlash, davolashdagina emas, balki uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ekanini va bu vazifa muhimroq ekanini anglab yetishi lozim. Shundagina u tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushunadi va o'z kuchini shu vazifaga ham qaratadi. Natijada ota-ona farzandining ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq korreksion ish sohasida ham bilim va tajribalari ortib boradi.

Ota-onalarida eshishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish bo'yicha bilimlarni shakllantirish ishning quyidagi shakllari taklif qilindi.

1. Ota-onalarga individual maslahatlar berish. Bu maslahatlar ota-onalarida eshishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni inklyuziv talimga jalb etish, oilada eshishda nuqsoni bo'lgan bolaning ta'limi, tarbiyasi va muloqotida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida olib borildi, shuningdek pedagog bilan ota-ona o'rtasida o'zaro shaxsiy aloqani o'rnatishda asos vazifasini o'tydi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan dastlabki suhbatlarda surdopedagog ularga quyidagi qoidalarga rioya qilishni, bu qoidalar ularning hayotini ancha osonlashtirishini qayta-qayta ta'kidlashi lozim. Avvalam bor surdopedagog ota-onalarga qo'rqinch, tushkunlik, umidsizlik tuyg'ularini yengish kerakligini, ikkinchidan, sodir bo'lgan vaziyatda aybdorni qidirish behuda vaqtni sarf qilish ekanini, bu o'rinda aybdorning o'zi yo'qligini uqtirishi kerak. Uchinchidan, ota-onalarga o'z bolasiga va oilasiga qanday yordam talab qilinishini (tibbiy yoki psixologik-pedagogik, yoki har ikkalasi) aniqlab olishni maslahat beradi.

Shunday qilib, surdopedagog ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlarda ta'limiy va psixologik ishni birga qo'shib olib boradi, vaziyatni nazorat qilishga to'stinlik qiladigan shubha va qo'rquv tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oila oilaviy terapiya va ta'limiy treninglar dasturlariga ham jalb qilinishi mumkin. Ularning maqsadi – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, eshishda nuqsoni bo'lgan bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq tang vaziyatlar keltirib chiqargan yashirin muammolarni hal qilish. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishning individual maslahatlar berish shakli odatda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat bo'ladi. Maslahatlar davomida maslahatchi-

surdopedogogning maxsus bilimlari maslahat oluvchilarga kundalik muammolarni hal qilish yoki bo'lajak xatti-harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

Modomiki maslahat berish eshitishda nuqsoni bo'lgan bola tug'ilishi bilan bog'liq hayotiy muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan asosan sog'lom kishilarga (nogironlikka ega bolaning ota-onasiga va boshqa oila a'zolariga) yordam ko'rsatish uchun qaratilar ekan, bu ish shakli eshitishda nuqsoni bo'lgan bola oilasining rehabilitatsiyasiga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik amaliyotda ham keng qo'llanishi mumkin.

Bu ish shaklidan foydalanish zarurati shu bilan belgilanadiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolabolaga ega oilalarning ko'pchiligi o'tkir yoki surunkali stress holatida bo'ladilar, o'zlarining yangi maqomlariga moslasha olmaydilar, oila ichida va atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun ularga ishning boshida yangi bilimlar bilan bir qatorda maxsus tashkil qilingan samimiy muloqot g'oyat zarurdir. korreksion pedagog tomonidan maxsus ta'lim muassasasining boshqa mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan turli mavzularga oid majlislarda ota-onalarning qatnashuvi samara beradi. Bunday majlislar natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning korreksion - rivojlantiruvchi faoliyati sohasida hamda bola bilan o'zaro samarali aloqa o'rnatish borasida kattalarning bilim doirasi kengayadi.

Ota-onalar guruhi bilan olib boriladigan ish ta'lim va tarbiya bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish; bola bilan o'zaro munosabatlarda mos muloqot va xulq-atvor shakllarini tanlash; maxsus muassasa mutaxassislari bilan konstruktiv va ishchan munosabatlarni o'rnatishni ko'zda tutadi. Bu yo'nalishdagi ish ota-ona uchun bolaga pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish vositalarini kengaytirishga, bola bilan o'zaro munosabatlarning yangi usullaridan foydalanishni mashq qilishga yordam beradi. Bunday xatti-harakatlar, o'z navbatida, eshitishda nuqsoni bo'lgan bola tarbiyalanayotgan oilada ichki munosabatlarning uyg'unlashuviga, oilaning ijtimoiy moslashuviga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishning bu shaklida ota-onalarning farzandi bilan o'zaro munosabatlarida, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning ongida quyidagi ijobiy o'zgarishlar yuz berishini kuzatish mumkin: eshitishda nuqsoni bo'lgan bola oilaviy munosabatlarni yaxshiroq idrok eta boshlaydi; bola o'zining oila jamoasida o'z o'rnini anglayb boradi; ota-onalarning bolalariga munosabatlarida muayyan tartib va reja paydo bo'ladi; ota-onalarning eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalariga munosabatlarida muvozanat paydo bo'ladi, ular bolalarini qanday bo'lsa, shunday qabul qila boshlaydilar, munosabatlarida iliqlik, tushunish yuzaga keladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanish qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning har xil modellari, bolalar shaxsi va xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari haqida har tomonlama ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolari o'z kelajaklariga ishonch bilan qaray boshlaydilar.

Guruhda olib boriladigan ta'sirchan ish shakllaridan biri bu treninglardir. Psixologik va ta'limiy treninglar ayniqsa keng tarqalgan. Psixologik trening o'zida bir qator individual va guruhiy ish shakllarini birlashtiradi hamda yangi psixologik malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Hozirda trening

dasturlarining maqsadlari tobora kengayib bormoqda, treninglar amaliy psixologiya sohasi chegaralaridan chiqib, ijtimoiy sohada, ta'lim tizimida ham keng qo'llanmoqda.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan farzand o'stirayotgan ota-onalar uchun mo'ljallangan treninglar avvalam bor oilaviy mikromuhitni boshqarishga, o'zaro maqbul munosabatlarni o'rnatishga, muammoli vaziyatlardan to'g'ri yo'l topishga yordam beradigan malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Trening ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning eng istiqbolli shaklidir. Zero bu muammoning dolzarbligi so'nggi yillarda ayniqsa ortib bormoqda. O'zlari ham eshitishda nuqsoni bo'lgan bolabo'lgan ota-onalarga nisbatan esa uning o'tkirligi yanada ortadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan guruhiiy ish shakllari ularga bir-birlari bilan tajriba almashinish, o'z savollariga muammolari xuddi o'zlarinikiga o'xshagan guruhdoshlaridan javob olish imkonini beradi. Axborot almashinish jarayonida peshqadamlik namoyon qilgan ota-onaning faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortib boradi

Surdopedogoglarning va maxsus ijtimoiy pedagoglarning ish tajribalarida guruhiiy ishshakllari, xususan ota-onalar uchun ta'limiy treninglar ijtimoiy-pedagogik ta'sirning yetakchi texnologiyalari qatoridan o'rin oladi. Ularning samaradorligi chet el tajribasida o'z isbotini topdi. Shuni ta'kidlash lozimki, bolalarning yosh xususiyatlarini tufayli noto'g'ri tarbiya oqibatlarini mustahkamlanib boradi. Boshqa tomondan, xuddi shu yosh xususiyatlariga ko'ra bolalar osonroq o'zgaradilar, tarbiyaga ta'sirchanroq, rivojlanish borasida sezitivroq bo'ladilar. Faqat buning uchun bolaga ko'rsatilayotgan ta'sirlar uning imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lmog'i lozim. Bu oilaviy tarbiya kamchiliklarini erta tashxislash, oldini olish va korreksiyalashning zarurligini taqozo etadi. O'qituvchi ota-onadan bola nimalarga ko'proq qiziqishini, nimalarga mayl bildirishini, uning diqqatini qanday tashkil qilish, o'yinga jalb qilish, bolani qanday qilib topshiriqni bajarishga ko'ndirish mumkinligini so'rab biladi. Bu faqat bola haqida kerakli ma'lumotni olishga yordam beribgina qolmay, balki ota-onaning o'z bolasiga munosabati haqida ham ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Suhbat davomida o'qituvchi bolaning ota-ona ko'rsatib o'tgan eng kichik ijobiiy xususiyatlariga ham alohida e'tibor berib o'tishi, o'zining zavqlanganini ko'rsatishi ("Ofarin. Qanday yaxshi. Ulasini yaxshi ko'rar ekan-da?" va h.k.), uning salbiy xislatlariga urg'u bermasligi lozim. Bu suhbat bolaning uyida bo'lib o'tayotgan bo'lsa, o'qituvchi uy sharoitidagi salbiy jihatlarni (uy ivirsigan, bola qarovsiz va h.k.) "sezmasligi" kerak. Suhbat davomida bolaning uyda hech qanday vazifalari yo'qligini, uning tarbiyasi bilan hech kim shug'ullanmasligini yoki oilada uning hamma istaklari bajarilishini bilganida ham, o'qituvchi tanbeh bermasligi, ko'rganlarini muhokama qilmasligi lozim.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola ota-onasi bilan birinchi marta maktabga kelganida, o'qituvchi ular bilan suhbatga, sinf xonasini, kerak bo'lsa, butun maktabni ko'rsatishga vaqtini ayammasligi kerak. Kichik yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bola maktabda o'tadigan dastlabki kunlari onasining yordamiga muhtoj bo'ladi.

Hayajondan har xil noxushliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday paytlarda uni begonalar emas, o'z onasi erkalab qo'yishi, kiyimlarini to'g'rilab qo'yishi muhim. Agar bola betinch, tez ta'sirlanuvchi bo'lsa, bu paytda maktabda hozir bo'lgan ona uni tinchlantirishi, zarur hollarda esa uning hayajonini bosishi mumkin. Shunday qilib, yordamchi maktabda birinchi o'qish kunlarida o'qituvchi ota-onalar bilan birgalikda kichkintoyda darsda va tanaffus paytida to'g'ri xulq-atvorni, o'qish faoliyatiga e'tiborli munosabatni, o'z tengdoshlariga do'stona munosabatni shakllantiradi.

Ba'zi hollarda esa ota yoki onaning xatto sinf mashg'ulotlarida hozir bo'lishi faqat dastlabki kunlarda emas, balki uzoq muddat davomida ham talab qilinadi. Bunday bolaning onasi bolasi bilan dars paytida yonma-yon o'tiradi, unua amaliy vazifalarni bajarishda yordam beradi, diqqatining chalg'imasligiga harakat qiladi, bolani xojatxonaga, oshxonaga kuzatib boradi, jismoniy tarbiya uchun kiyimlarini kiydirib qo'yadi va h.k. Bolaning xulq-atvori, o'quv faoliyati izga tushganidagina, o'qituvchi onaning yordamidan voz kechishi mumkin. O'z vazifalariga sidqi dildan yondoshadigan o'qituvchiga ona qiyofasidagi beixtiyor kuzatuvchining darsda hozir bo'lishi halaqit bermaydi, aksincha, yordam beradi. Ona ham, o'z navbatida, o'qituvchining mehnati nechog'lik qiyin ekanini, u eshitishda nuqsoni bo'lganbolalarning ta'limi va tarbiyasiga qancha kuch sarflayotgani o'z ko'zi bilan ko'radi. Boshqa ota-onalar undan o'qituvchining bu sermashaqqat mehnati haqida biladilar, natijada o'qituvchining obro'siga putur yetmaydi, balki u yanada ortadi. Ayrim eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ota-onalari noto'g'ri hayot kechiradilar: ichkilikka ruju qo'ygan bo'ladilar, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalarini buzadilar. Bunday ota-onalar odatda o'z farzandlari bilan shug'ullanmaydilar, uyda oddiy tartibga rioya qilinmaydi, oilada tun-u kun janjal-suronlar hukm suradi, ovqatlanish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'ladi. Xatto shunday holatlarda ham o'qituvchi bunday ota-onalar bilan uchrashganda bosiq, xushmuomala bo'lib qolishi lozim. U ishi yurishmagan ota-onalarning ahvollariga achinadi, ularga faqat bitta iltimos bilan murojaat qiladi: o'z farzandlarining yashash tarzlarini o'zgartirishlarini, ularga onda-sonda bo'lsa ham kerakli narsalarni olib berib xursand qilishlarini va sh.k. so'raydi. Keyinchalik o'qituvchi ota-onalarga jiddiyoq talablar qo'yishi, ota-onalik burchini bajarish zarurati haqida qat'iyroq eslatib qo'yishi mumkin. Biroq bunga vaqt o'tishi bilan, shunda ham qachonki o'qituvchi ota-onalar qalbiga yo'l topa olsa, ularni o'z niyati faqat ezgulikka qaratilganiga ishonтира olsa erishiladi. Ota-onalar maktab binosi (sinf xonalari, ustaxonalar, yotoqlar, dam olish xonalari) bilan, o'quvchilar bilan tanishtiriladi. Ota-onalarga estetik jihatdan chiroyli jihozlangan, ozoda xonalarni, o'quvchilarning batartib tashqi qiyofasini, ularning intizomga rioya qilishi va xayrixohligini, o'qituvchilarning madaniyatini ko'rsatish kerak. Jiddiy yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayonining bunday belgilari maktabga nisbatan ham, uning xodimlariga nisbatan ham hurmat va ishonch hissini keltirib chiqaradi.

fikricha, aynan ijodiylikni namoyon qilish onaga uzoq muddatli stress paytida salbiy ichki psixologik holatni susaytirish, o'zining nogiron farzand bilan bog'liq

hayotiy qoidalari va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Imkoniyati cheklangan farzandga ega oilalarda mutaxassis-defektologning ota-onalar bilan olib boradigan psixokorreksion ishining shakllari turli-tuman bo'lib, E.G.Dementeva tomonidan taklif qilingan psixokorreksion modelga ko'ra bu ishning quyidagi shakllari taklif qilinadi:

1. Ota-onalarga individual maslahatlar berish. Bu maslahatlar oilada nogiron bolaning ta'limi, tarbiyasi va muloqotida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida olib boriladi, shuningdek defektolog bilan ota-ona o'rtasida o'zaro shaxsiy aloqani o'rnatishda asos vazifasini o'taydi. Ota-onalar bilan olib boriladigan dastlabki suhbatlarda defektolog ularga quyidagi qoidalarga rioya qilishni, bu qoidalar ularning hayotini ancha osonlashtirishini qayta-qayta ta'kidlashi lozim. Avvalambor, defektolog ota-onalarga qo'rqinch, tushkunlik, umidsizlik tuyg'ularini yengish keakligini, ikkinchidan, sodir bo'lgan vaziyatda aybdorni qidirish behuda vaqtni sarf qilish ekanini, bu o'rinda aybdorning o'zi yo'qligini uqtirishi kerak. Uchinchidan, ota-onalarga o'z bolasiga va oilasiga qanday yordam talab qilinishini (tibbiy yoki psixologik-pedagogik, yoki har ikkalasi) aniqlab olishni maslahat beradi. Shunday qilib, defektolog ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlarda ta'limiy va psixologik ishini birga qo'shib olib boradi, ya'ni vaziyatni nazorat qilishga to'sqinlik qiladigan stubha va qo'rquv tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari oila oilaviy terapiya va ta'limiy treninglar dasturlariga ham jalb qilinishi mumkin. Ularning maqsadi – oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, imkoniyati cheklangan farzandiga tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq tang vaziyatlar keltirib chiqargan yashirin muammolarni hal qilish.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishning individual maslahatlar berish shakli odatda ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat bo'ladi. Maslahatlar davomida maslahatchi-defektologning maxsus bilimlari maslahat oluvchilarga kundalik muammolarni hal qilish yoki bo'lajak hatti-harakatlarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Bu ish shaklidan foydalanish zarurati shu bilan belgilanadi, nogiron bolaga ega oilalarning ko'pchiligi o'tkir yoki surunkali stress holatida bo'ladi, o'zlarining yangi maqomlariga moslasha olmaydilar, oila ichida va atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shuning uchun ularga ishning boshida yangi bilimlar bilan bir qatorda maxsus tashkil qilingan sanimiy muloqot g'oyat zarurdir.

2. Defektolog tomonidan maxsus ta'lim muassasasining boshqa mutaxassislari bilan hamkorlikda o'tkaziladigan turli mavzularga oid majlislarda ota-onalarning qatnashuvi.

Bunday majlislar natijasida nogiron bolalarning korreksion-rivojlantiruvchi faoliyati shahsida hamda bola bilan o'zaro samarali aloqa o'rnatish borasida kattalarning bilim doirasi kengayadi.

Shunday maqsadlarda o'tkaziladigan majlislarning taxminiy mavzulari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- “ O'z-o'zini rivojlanishida kamchiligi bor bolaning otasi yoki onasi sifatida anglash”;

- “Umumtalim muasasalarida bolalar va ota-onalar o’rtasidagi to’qnashuvlar va ularni yengib o’tish”;

- “Umumtalim muasasalarida bolalar tarbiyasida turli xil yondashuvlar va ularning tahlili”;

- “Umumtalim muasasalarida jazolash va taqdirlash – tarafdolar va qarshilar”;

- “Umumtalim muasasalariga bolani maktabga qanday tayyorlash kerak” va h.k.

3. Ota-onalar tomonidan umumtalim muasasalarida korreksion pedagogning individual mashg’ulotlarini kuzatish. Ota-onalar bilan olib boriladigan bu ish shakli onalarning bolalari bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishda xamkorlik ko’nikmalarini shakllantirishga, “ona - bola” juftligida jipslik, fikrdoshlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratiladi. Ona individual mashg’ulot davomida defektologning bola bilan ishlash usullarini kuzatar ekan, bu mashg’ulotlarning ishlanmasini yozib borar ekan, eshitishida nuqsoni bolaning ta’limi va tarbiyasi sohasida kerakli bilimlarni egallab boradi.

4. Bo’sh vaqtni birgalikda o’tkazish. Ota-onalar, bolalar va pedagoglarni yanada birlashtirish, ular o’rtasida erkin, behijolat munosabatlarni o’rnatish maqsadida o’tkaziladi. Bunday tadbirlarning quyidagi mavzularini taklif qilish mumkin: “Yangi yilni kutish”, “Onajonim-mehribonim”, “Navro’z – bahor bayrami”, “Eng yaxshi ota” va h.k.

5. Ota-onalar uchun stend. Stendda namoyish qilinadigan ma’lumotlar va sahifalar kamida har oyda yangilanib turishi kerak. Stend tarkibidagi “Ota-onalar universiteti” bo’limi ayniqsa katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Biron-bir sababga ko’ra defektolog bilan shaxsan uchrashib, u bilan suhbatlasha olmagan ota-onalar o’z savollarini shu bo’limda qoldirishlari va javob olishlari mumkin.

6. “Hayotimizdagi voqealar” kundaligini tutish. Ishning bu yo’nalishi E.L.Goncharova va O.I.Kukushkina tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, uni E.G.Dementeva psixokorreksion ishga moslashtirib, joriy qilgan. Bu bolaning maxsus tashkil qilingan va muntazam olib boriladigan ishi bo’lib, bunda bola o’zi uchun qulay bo’lgan belgilarda o’z hayotini aks ettiradi. Bu yozma matn, rasm, applikasiya bo’lishi mumkin. Bu yo’nalishning maqsadi ota-onalar va bolalar o’rtasida hamkorlik va birgalikdagi ijodkorlikni mustahkamlashdan iborat.

7. Ota-onalar guruhi bilan olib boriladigan ish. Uning maqsadi: ta’lim va tarbiya bilan bog’liq muammolarni tahlil qilish; bola bilan o’zaro munosabatlarda mos muloqot va hulq-atvor shakllarini tanlash; umumta’lim va maxsus ta’lim muassasa mutaxassislari bilan konstruktiv va ishchan munosabatlarni o’rnatish. Bu yo’nalishdagi ish ota-ona uchun bolaga pedagogik va psixologik ta’sir ko’rsatish vositalarini kengaytirishga, bola bilan o’zaro munosabatlarning yangi usullaridan foydalanishni mashq qilishga yordam beradi. Bunday hatti-harakatlar, o’z navbatida, imkoniyati cheklangan bola tarbiyalanayotgan oilada ichki munosabatlarning uyg’unlashuviga, oilaning ijtimoiy moslashuviga asos bo’lib xizmat qiladi. Ishning bu shaklida ota-onalarning farzandi bilan o’zaro munosabatlarida, imkoniyati cheklangan bolaning ongida quyidagi ijobiy o’zgarishlar yuz berishini kuzatish mumkin: imkoniyati cheklangan bola oilaviy munosabatlarni yaxshiroq idrok eta boshlaydi; bola o’zining oila jamoasida o’z o’rmini anglab boradi; ota-onalarning

bolalariga munosabatlarida muayyan tartib va reja paydo bo'ladi; ota-onalarning imkoniyati cheklangan bolalarga munosabatlarida muvozanat paydo bo'ladi, ular bolalarini qanday bo'lsa, shunday qabul qila boshlaydilar, munosabatlarida iliqlik, tushunish yuzaga keladi. Imkoniyati cheklangan bolaning rivojlanish qonuniyatlari, ta'lim va tarbiyaning har xil modellari, bolalar shaxsi va hulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini haqida har tomonlama ma'lumotga ega bo'lgan oila a'zolari o'z kelajaklariga ishonch bilan qaray boshlaydilar.

8. Guruhda olib boriladigan ta'sirchan ish shakllaridan biri bu treninglardir. Psixologik va ta'limiy treninglar ayniqsa keng tarqalgan. Psixologik trening o'zida bir qator individual va guruhli ish shakllarini birlashtiradi hamda yangi psixologik malakalar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Hozirda trening dasturlarining maqsadlari tobora kengayib bormoqda, treninglar amaliy psixologiya sohasi chegaralaridan chiqib, ijtimoiy sohada, ta'lim tizimida ham keng qo'llanmoqda.

Umumta'lim muassasalariga jalb etish bo'yicha ota-onalar uchun mo'ljallangan treninglar avvalam bor oilaviy mikromuhitni boshqarishga, o'zaro maqbul munosabatlarni o'rnatishga, muammoli vaziyatlardan to'g'ri yo'l topishga yordam beradigan nalaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Trening ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'limi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning eng istiqbolli shaklidir. Zero bu muammoning dolzarbligi so'nggi yillarda ayniqsa ortib bormoqda. O'zlarini ham nogiron bo'lgan ota-onalarga nisbatan esa uning o'tkirligi yanada ortadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan guruhli ish shakllari ularga bir-birlari bilan tajriba almashinish, o'z savollariga muammolari xuddi o'zlarinikiga o'xshagan guruhdoshlaridan javob olish imkonini beradi. Axborot almashinish jarayonida peshqadamlik namoyon qilgan ota-onaning faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortib boradi.

Defektologlarning va maxsus ijtimoiy pedagoglarning ish tajribalarida guruhli ish shakllari, xususan ota-onalar uchun ta'limiy treninglar ijtimoiy-pedagogik ta'sirining yetakchi texnologiyalari qatoridan o'rin oladi. Ularning samaradorligi chet el tajribasida o'z isbotini topdi. Shunday qilib, defektolog imkoniyati cheklangan bola va uning oilasi hayotida katta rol o'ynaydi. O'z faoliyatida u asosan maslahat berish, treninglar o'tkazish, patronaj usullaridan foydalanadi. Bu ish usullari va shakllari asosan chet el tajribasidan o'zlashtirilgan. Shuning uchun bizda yaxlit ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar haqida so'z yuritish hali erta. Ular hozircha shakllanish va sinovdan o'tish bosqichidadir. Maxsus maktab o'qituvchi va tarbiyachilarini ota-onalar bilan maktab hamkorligida ishlashda quyidagi vazifalarni shartli ravishda ajratish mumkin:

- ota-onalarda umumta'lim maktablarida imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va o'qitish maqsadlarini to'g'ri tushunishni shakllantirish;
- umumta'lim maktablarida maktab jamoasi bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;
- umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni ommalashtirish, korreksiya ishi metod va usullari bilan tanishtirish;

- umumta'lim maktablarida oilaviy tarbiya tajribasini o'rganish, uni ota – onalar o'rtasida targ'ib qilish, maktab faoliyatida undan foydalanish.

Yuqoridagi vazifalarni qilishning shartlaridan biri har bir Imkoniyati cheklanganbola o'sayotgan oilaning tarkibi, tarbiya xarakteri bilan tanishish sanaladi, bolalar o'sayotgan oila haqidagi axborot keng qamrovli bo'lishi kerak. Odatda, bu axborot bola mehnat ta'limi maktabida tarbiyalangan barcha yillar mobaynida to'planadi va to'ldirib boriladi. Imkoniyati cheklanganbolaning oiladagi tarbiya sharoiti bilan tanishish jarayonida maktab pedagoglari qo'yidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur:

- oila tarkibi, kattalarning mashg'ulot turi, moddiy ta'minlanganligi, sanitar – gigiyenik sharoitlar, oilada eshitishda nuqsoni bo'lganbola yoki shaxsning mavjudligi;

- oiladagi munosabatlar, ota – onaning umumiy madaniy darajasi, bolalarga, jumladan Imkoniyati cheklanganbolaga ota- onasining munosabati;

- bolaning uydagi xulqi va mashg'ulotlari, sevgan mashg'ulotlari, oilada Imkoniyati cheklanganbola bilan munosabat shakllari, oila a'zolari tomonidan uning faoliyati va xulqiga talablarning qo'yilishi, kun tartibining bajarilishi, bolaning uy mehnatida ishtiroki;

- ota – onalarning umumta'lim va maxsus ishlarning olib borilishiga munosabati, mutaxassis maslahatlarini olishi, oilada mashg'ulaotlarning tashkil qilangani, oila a'zolarining Imkoniyati cheklanganbola bilan ishlarda ishtiroki, o'z pedagogik imkoniyatlarini baholashi, Imkoniyati cheklanganbola bilan ishlar samaradaorligini baholashi, uning imkoniyatlariga ishonishi;

- ota-ona Imkoniyati cheklanganbola tarbiyasida duch kelayotgan qiyinchiliklar xarakteri;

- ota – onalarning Imkoniyati cheklanganbolaning maktab ta'limi va tarbiyasi mazmuni, turli yo'nalishlardagi ish metodlari haqida bilimlari, ota – onalarning pedagoglar bilan korreksion – pedagogik ishlarda qatnashish istagi va manfaatdorligi.

Imkoniyati cheklanganbola tarbiyasida oila va maktab hamkorligini qo'yidagi yo'nalishlari tasniflanadi: Individual ish yo'nalishlari maktabga ota-ona tashrifi, oilaga o'qituvchi tashrifi ,o'qituvchining individual konsultatsiyalari ,ota-ona bilan yozishmalarni qamrab oladi. Jamoaviy ish yo'nalishlari ota-onalar uchun lektoriylar ,tematik konsultatsiyalar,ota-onalar uchun kechalar,ochiq eshiklar kuni,konsertlar,ijodiy ,o'quv ishlar ko'rgazmasi ota-onalar majlislari kabi ish turlarini o'zida jamlaydi.

Maxsus maktab faoliyatida ota – onalar bilan ishlashning jamoaviy shakllaridan ham foydalaniladi . Bularga umumiy va sinf ota – onalar majlislari, lektoriylar, «davra suhbatlari», ota – onalar konferensiyalari, bolalar bilan ishlashda tajriba almashish bo'yicha seminarlar, guruhda konsultatsiyalar, ochiq eshiklar kuni, bolalar ishlari ko'rgazmalari, bayram va ertaliklar, muassasa va guruh tadbirlarida ota – onalarning ishtirokini kiritish mumkin.

Ota – onalar majlisi keng tarqalgan ish shakllaridan biri sanaladi. Majlis umumiy maktab yoki sinf o'quvchilari ota – onalari uchun bo'lishi mumkin. Umumiy ota – onalar majlislari yiliga 2 – 3 marta, sinfda esa har chorakda o'tkaziladi. umumiy majlislarda ota – onalarni maktab ishining mazmuni bilan tanishtiriladi, ma'muriyatning ma'lum vaqt oralig'idagi faoliyat to'g'risidagi

hisoboti, ota – onalar qo‘mitasining hisoboti tinglanadi. Ota – onalar uchun qiziqarli mavzularda, masalan «Mehnat faoliyati-Imkoniyati cheklanganbolalarni tarbiyalash asosi» «Bolalarda mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalash», «O‘quvchilarni tarbiyalashda maktab,oila va mahalla hamkorligi», «Bolalarni o‘ziga xos rivojlanishidagi zaiflik va nuqsonlarni bartaraf etish yo‘llari» kabi mavzularda ma‘ruzalar qilinadi. Sinfda ota – onalar yig‘ilishlarida shu sinf ota – onalari uchun dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Maxsus maktab pedagog va tarbiyachi ota – onalarni bolalar tarbiyasi va ta‘limining turli yo‘nalishlariga oid ishlar mazmuni bilan qulay va tushunarli tarzda tanishtiradi. Bolalarning oiladagi tarbiyasi haqidagi axborotlar, masalan, «Bolalar uchun kun tartibini tashkil qilish», «Bolalarda madaniy – gigiyenik ko‘nikmalarni tarbiyalash» mavzulari bilan chiqadigan tarbiyachilarning ishtiroki muhim sanaladi. Sinfda ota – onalar majlisida pedagoglar ta‘limning natijaliligi, turli yo‘nalishlardagi ish natijalari haqida ota – onalarga ma‘lum qiladi. Bolalar bilan ish samaradorligini tavsiflayotib, e‘tiborni qiyinchiliklarga, bola rivojlanishidagi salbiy tomonlarga qaratmasdan, balki bolaning imkoniyatlari, uning ta‘limda ilgari lab borishini ko‘rsatib berish muhim. Bola bilan ishdagi qiyinchiliklarni ota – onalar bilan yakka tartibdagi suhbatlarda ochib berish, muhimi ota – onalar bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun nima qila olishlarini ko‘rsatib bergan ma‘qul. Sinf ota – onalar majlisi pedagoglardan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda xabarni tayyorlash, qo‘rgazmali – illyustrativ materialni (tablichkalar, qo‘lbola kitobchalar, didaktik o‘yinlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalarning ishlari va sh.k.) tanlash kata ahamiyat kasb etadi. Shuningdek pedagoglar muhokama mavzusiga oid ota – onalar uchun qulay, tushunarli adabiyotlarni tavsiya qilishlari, uni o‘qiganda nimalarga e‘tiborni qaratish lozimligini tushuntirishlari zarur. Ota – onalar majlislariga ota – onalar ishtirokida tayyorlangan bolalarning ishlari, rasmlari ko‘rgazmasini tayyorlash maqsadga muvofiq. Bolalarni o‘qitishning konkret masalalari ko‘pincha korreksion ishlar bilan bog‘liq bo‘lib, tematik ota – onalar yig‘ilishlarida, davra suhbatlarida, ota – onalar uchun lektoriylarda muhokama qilinadi. Ota – onalar universiteti yoki lektoriy ota – onalarni defektologikaning umumiy masalalari bilan ma‘muriyat tomonidan oldindan tuzilgan reja asosida sistemali tarzda tanishtirib borish ko‘zda tutadi. Ota – onalar uchun vrach, metodist, psixolog, pedagog ma‘ruzalari, odatda, oyda bir narta o‘tkaziladi. Ota – onalar uchun umumiy yoki sinfda mavzuli konsultatsiyalari o‘tkazilganda ota – onalar oldindan yozma ravishda savollarini berishi mumkin. Bir mavzu yuzasidan savollar to‘planib qolganiga ko‘ra ota – onalar uchun sinfda konsultatsiyalar mazmuni shakllantiriladi. Umumiy konsultatsiyalarda bolalar salomatligini muhofaza qilish, o‘z – o‘ziga xos xizmat malakalarini shakllantirish va ota – onalarni qiziqtirgan boshqa ko‘plab masalalar muhokama qilinadi. Ota – onalar uchun sinfda konsultatsiyalar shu yoshdagi bola tarbiyasi va ta‘limiga oid konkret masalaga bag‘ishlanadi. Pedagoglar axborotlari konkret xarakterga ega, ota – onalar uchun tushunarli bo‘lishi, misollar namoyishi, turli didaktik vositalar bilan to‘ldirib berilishi lozim. Ota – onalar konferensiyalarini tashkil qilish muhim va foydali ish shakli sanaladi, uning maqsadi ota – onalarning oilada farzand tarbiyasi tajribasini mmalashtirishdan iborat. Bunday konferensiyalar yilda 1-2 marotaba o‘tkaziladi. Ularni maktab va ota – onalar qo‘mitasi, pedagoglar tayyorlaydi. Bu

konferensiyalarda ota – onalar oilada farzand tarbiyasiga oid tajriba almashadi, turli yo'nalishlar, masalan mehnatsevarlikni tarbiyalash, oilada bola bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirish, jismoniy tarbiya bo'yicha ish mazmunini ochib beradi. Ota – onalar bilan ish shakllaridan yana biri ochiq eshiklar kuni sanaladi. Bu kunlari ota – onalar sinflardagi frontal yoki individual mashg'ulotlarda qatnashishi, bolalarning sayr davomidagi, kun tartibi vaziyatlarini o'tkazish chog'idagi muloqoti va mashg'ulotlarini kuzatish, pedagoglar, katta tarbiyachi, mudir bilan uchrashish va suhbatlashish imkoniga ega bo'ladi. Shunday qilib, ota – onalar bilan olib boriladigan individual, jamoaviy ish shakllari maxsus maktab va ota – onalarni hamkorligini yo'lga qo'yish, maktabda, oilada imkoniyati cheklangano'quvchilarni tarbiyalashda samarali natijalarga erishishni ko'zda tutadi. Maxsus maktab mazkur yo'ldan borar ekan, ota – onalarni hamkorlikga jalb etish, ota – onalarni pedagogik bilim, malakalari darajasini oshirish, maktab va oilaning umumiy korreksion-tarbiyaviy tizimini yaratish imkoniga ega bo'ladi

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalar va pyedagoglar jamoasi xamkorligi mazmuni yoriting.
2. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalar va pedagoglar jamoasi xamkorligi shart-sharoitlarini tavsiflang.
3. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalar va pedagoglar jamoasi xamkorligi usullariini yoriting.
4. Aloxida yordamga muxtoj bola maxsus maktabiga qabul qilinganda pedagoglar tomonidan olingan va keyinchalik, ota – onasi bilan tanishganlik sari to'ldirib boriladigan axborot ish modelini qurish, o'zaro hamkorlik shakli va metodlarini tanlash uchun nima asos bo'ladi?
5. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalarga ma'ruza va tavsiyalardan ko'ra ko'proq nimata'sir o'tkazishi mumkin?
6. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari ota-onalar va pyedagoglar jamoasi xamkorligini ish turlarini tahlil qiling.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 20-29.
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 31-61.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017 yil 7 fevral // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda; 23-son, 448-modda.
4. Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-son Farmoni. 2017 yil 1 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son Farmoni. 2019 yil 29 aprel.
6. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori mahkali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1533-son qarori. 2011 yil 20 may.
7. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2829-son qarori. 2017 yil 14 mart.
8. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son Qarori. 2017 yil 20 aprel.
9. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3151-son Qarori. 2017 yil 27 iyul.

10. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori 2018 yil 5 iyun.

11. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3907-son Qarori. 2018 yil 14 avgust.

12. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5270-son Farmoyishi. 2017 yil 12 yanvar.

13. Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 140-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 mart. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr // - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish- ning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so'zi” gazetasi. 2017 yil 23 dekabr. - № 258.

16. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanalari marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

17. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.

18. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

19. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте – М.: Просвещение, 1991.

20. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. М.: Просвещение, 1995.

21. Зыков С.А. Проблемы сурдопедагогика. Избранные труды.- М.: «За-грей».-С. 180- 182.

22. Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогика. – М.: Просвещение, 1984. – 295 с.

23. Белова Н.И. Специальная дошкольная сурдопедагогика. М.: Просвещение, 1985. – 128 с.

24. Усанова О.Н. Психологические основы взаимодействия субъектов практической помощи детям с проблемами в развитии. Автореф. дисс. докт. психол. наук. М.: 1996.

25. Шипицина ЖИ.М. Старое и новое: социальная защита в России. Спб.: 1997.

26. Шматко Н.Д. Коррекционная работа с глухими и слабослышащими детьми раннего возраста // Всесоюзный институт переподготовки и повышения квалификации кадров образования М.: 1991..

27. Юдина И.А. Становление коррекционно-педагогической помощи детям с отклонениями в развитии в республике Саха (Якутия) и пути ее совершенствования: Дисс.канд. пед. наук. Екатеринбург, 2001. - 238с

28. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b.

29. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – Toshkent: RO'MM, 1993
30. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
31. Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU. 2006. – 20 b
32. Shomaxmudova R. Farzandingizga ozingiz yordam bera olasiz // Bola va zamon.– Toshkent, 2006. – № 1. – B. 45.
33. Инновационные подходы к обучению и воспитанию детей с нарушением слуха/ Под ред. Никитина М.И. СПб.: «Образование», 1997. С. 270-273.
34. Казанцева Е.В.Организация и содержание коррекционно-педагогической работы по формированию речевой коммуникации у детей с умеренной и тяжелой умственной отсталостью Автореф, дис. ... канд.пед.наук. —Екатеринбург , 2010.
35. Колокольцева Марионелла Алексеевна Воспитание нравственных взаимоотношений младших школьников в инклюзивном образованииДиссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016
36. Королёва С.Г. Развитие творческих способностей детей 5-7 лет: Пособие для педагогов-психологов ДОУ – М.: Учитель, 2009.
37. Краснов Н.В. История искусства зарубежных стран. Учебник для студентов. — Москва: Изоискусство, 1999. — 170.с.
38. Куликова Т.А. Семейная педагогика и домашнее воспитание. -М.: АСАДЕМИА, 1999. 227с.
39. Леонгард Э.И. и др. Я не хочу молчать! – М.: Просвещение, 1990.–112 с.
40. Леонгард Э.И. Ранняя слухоречевая абилитация детей с нарушениемслуха основа их полноценного включения в общество слышащих.//

Проблемы младенчества: нейропсихологическая педагогическая оценка развития и ранняя коррекция отклонений. М.: 1999. - С. 74 - 77.

41. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушениями в семье. – М.: Просвещение, 1991. – 319 с.

42. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушениями слухом в семье. -М., 1991.

43. Мазурова Н.В. Проблемы семьи, имеющей аномального ребенка. Сб. «Инновации в российском образовании» (Специальное коррекционное образование), МО и ПО РФ, Москва, 1999.

44. Маллер А.Р. Педагог и семья ребенка-инвалида // Дефектология. 1995. - №5. С.15-19.

45. Маслова Е.С. Использование изобразительной деятельности дошкольного возраста с нарушениями слуха Сборник материалов по итогам научно-исследовательской деятельности молодых ученых в области гуманитарных, естественных и технических наук в 2005 г. – М.: Прометей, 2006. – С. 93–96.

46. Маслова Е.С. Рисование как средство обогащения социальных представлений дошкольников с нарушениями слуха Обучение и воспитание детей с нарушениями слуха на основе верботонального метода. Выпуск 3 под ред. Л.И. Руленковой – М.: СППРиК, 2007. – С. 52–55.

47. Обухова Т. И. Изучение готовности младших дошкольников с нарушением слуха к созданию предметного изображения / Т. И. Обухова, Е. Н. Сороко// Дефектология. - 2012. - № 4. - С. 58-65

48. Семаго М.М. Особенности коррекционной работы с семьями, в процессе консультирования ребенка с отклонениями в развитии // Шк. здор. 1996. -№3. С.40 - 54.

49. Семаго М.М. Социально -психологические проблемы семьи ребенка -инвалида с детства. М.: 1992.

50. Сигал Наталья Германовна Современное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург, 2016.

51. Ступникова ЖИ.С. Воспитание глухого ребенка в семье. -Киев, 1996.

52. Ткачева В.В. К вопросу о создании системы психолого-педагогической помощи семье, воспитывающей ребенка с отклонениями в развитии // Дефектология. 1999. №3. - С. 30-36.

53. Ткачева В.В. О некоторых проблемах семей, воспитывающих детей с отклонениями в развитии // Дефектология. 1998. - №4. - С. 3-9.

54. Ткачева В.В. Психокоррекционная работа с матерями, воспитывающими детей с отклонениями в развитии. -М.: Издательство «Гном Пресс», 1999.-64с.

55. Усанова О.Н. Дети с проблемами психического развития. М.: 1995.

56. Цукерман И.В. Проблемы социализации выпускников специальных школ для детей с нарушением слуха // Дефектология, №1. 1998.

57. Чепурных Е.Е. Состояние и перспективы психолого-педагогической и социальной реабилитации лиц с ограниченными возможностями здоровья в системе образования // Дефектология, №6. 1998. - С. 3-8.

58. Шаповалова О.Е. Методическое, пособие по психологии детей с проблемами в развитии. (С) БГПИ. 1997. 37с.

59. Шеврыгин Б.В. Комплексная реабилитация детей с нарушением слуха. Методические рекомендации. —М.: Санкт -Петербург. 2001. - 341с.

60. Шматко Н.Д., Пелимская Т.В. Если малыш не слышит. – М.: Просвещение, 2003. – 255 с.

61. Шматко Н.Д., Пельмская Т.В. Если малыш не слышит. - М.: Просвещение, 1995.

62. Эмоциональное развитие дошкольника. Пособие для воспитателей детских садов. Под. ред. А. Д. Кошелевой. — Москва: Просвещение, 1985.

